

**MAMARAHIMOVA BASHORAT  
ISMATOVNA**

**BUYUK IPAK YO'LI  
SIVILIZATSIYALARARO  
MULQOT YO'LI**



0X0000027158

**Toshkent - 2010**

955  
M-23

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

MAMARAHIMOVA BASHORAT ISMATOVNA

**BUYUK IPAK YO'LI –  
SIVILIZATSIYALARARO  
MULQOT YO'LI**

5220200–Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) ta'lim yo'nalishi  
bakalavr III-bosqich talabalari uchun

O'QUV QO'LLANMA  
TOSHKENT DAVLAT

**Mamarahimova B.I.** Buyuk ipak yo'li – sivilizatsiyalararo muloqot yo'li. 5220200–Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) ta'lim yo'nalishi bakalavr III-bosqich talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari bakalavriatura yo'nalishi 3-bosqich talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanmaning asosiy maqsadi Buyuk ipak yo'li tarixining sivilizatsiyalararo muloqot yo'li sifatidagi aloqida o'rnini atroflicha o'qitib, talabalarda bu sohada bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Qo'llanma Buyuk ipak yo'lining shakllanishining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslari, rivojlanish bosqichlari, o'rganilishi tarixi, asosiy va qo'shimcha tarmoqlari bo'ylab savdo-sotiq, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, Buyuk ipak yo'llarining xalqaro diplomatik va siyosiy, madaniy-ma'naviy, savdo-iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rnini, sivilizatsiyalararo muloqot vositasi, Buyuk ipak yo'li an'anasining tiklanishi va hozirgi zamon xalqaro munosabatlarini uyushtirishdagi ahamiyatini ko'rsatish kabi masalalarni qamrab olgan. Qo'llanmada talabalar uchun nazorat va mustaqil ish uchun savol va vazifalar, test savollari, atamalarning izohli lug'ati keltirilgan.

**Mas'ul muharrir:**

t.f.d., professor M.M.Ishoqov

**T u z u v c h i:**

ToshDShi "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida katta o'qituvchisi B.I.Mamarahimova

**T a q r i z c h i l a r:**

X.Fayziev - ToshDShi "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.n.

B.Qodirov- Nizomiy nomli TDPU «O'zbekiston tarixi» kafedrasida dotsenti

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2010 yil 23-dekabrda 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

© Mamarahimova B.I.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010

**KIRISH**

Insoniyat tarixida qit'alar, mintaqalar, mamlakatlar, ularda yashaydigan turli xalqlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy munosabatlarni ko'p asrlar davomida uyg'unlashtirib turgan noyob tarixiy hodisa - "Buyuk ipak yo'li" nomi bilan ataladi. Bu yo'lining shakllanishi va davomiy ravishda amal qilishi Sharq va g'arb munosabatlari mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. Buyuk ipak yo'li orqali qit'alararo mol ayirboshlash, savdo-sotiq munosabatlari iqtisodiy ma'nosidan tashqari turli madaniyatlar, ma'naviy dunyoqarash tizimlari o'rtasidagi aloqalar uchun muqim vositaga aylandi.

Buyuk ipak yo'lining asosiy bo'g'ini Markaziy Osiyo edi. Binobarin, Buyuk ipak yo'lining dastlabki bosqichida ayni Markaziy Osiyo hududlariga yo'nalgan g'arbiy-siyosiy diplomatik munosabatlar sharqdan g'arbiga, g'arbdan sharqqa Markaziy Osiyoda yuzma-yuz kelgan. Buyuk ipak yo'li Sharq va G'arb o'rtasida sivilizatsiya o'choqdarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muloqot doirasiga tortgan o'z davri uchun global ahamiyat kasb etgan noyob tarixiy madaniy hodisa edi. Zamon va makon tushunchalarini bu hodisa shu qadar o'zgartirib yubordiki, oqibatda kunchiqardan kunbotargacha yuzlab el-yurtlar, xalqlar va mamlakatlar yangi sifat darajasidagi taraqqiyot yo'liga kirdilar.

Buyuk ipak yo'li dunyoning turli sivilizatsiya o'choqlarini o'zaro yaqinlashtirdi. Bu davr qadimiy migratsion jarayonlar orqali madaniyatlar almashuvi, qorishuvi kabilardan farqli ravishda funksional jihatdan barqaror, davomiy, o'zaro ehtiyojlarni qisobga oluvchi xalqaro tovar almashuviga, bu orqali madaniy axborot maydonining paydo bo'lishiga yo'l ochib berdi. Ayni shu sivilizatsiyalararo muloqot yo'li sifatida Buyuk ipak yo'li va u bilan bog'liq Markaziy Osiyo xalqlarining xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlari tarixining chuqur ildizlarini o'rganish mintaqalararo xalqlarining hozirgi globallashuv jarayonlaridagi jahon bilan muloqotlari uchun ham tarixiy tajriba sifatida muqim va o'rganilishi dolzarbdir.

**O'quv qo'llanmaning maqsadi** - Buyuk ipak yo'li tarixining sivilizatsiyalararo muloqot yo'li sifatidagi aloqida aspektini atroflicha o'qitib, talabalarda bu sohada bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

### **O'quv qo'llanmaning vazifasi:**

-Buyuk ipak yo'lining zamonlar va makonlar osha amal qilgan xalqaro munosabatlarga xizmat qilgan noyob hodisa sifatida yaxlit o'rganish;

-Buyuk ipak yo'lining shakllanish tarixida Markaziy Osiyoning serqirra va hal qiluvchi ishtirokini ko'rsatish;

-Buyuk ipak yo'li orqali savdo-iqtisodiy munosabatlar jahon miqyosida ilk global hamkorlik omili bo'lganligini ko'rsatish;

-Buyuk ipak yo'lining taraqqiyot bosqichlarining xronologik chegaralari va sifat o'zgarishlari dinamikasini o'rganish;

-Buyuk ipak yo'lining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini tahlil etish;

-Buyuk ipak yo'lining sivilizatsiyalararo muloqotdagi o'rni aniq misollar orqali tushuntirish;

-Buyuk ipak yo'li tadqiqotlari istoriografiyasining asosiy yo'nalishlari, yutuqlari va kamchiliklarini tanqidiy o'rganish;

-Buyuk ipak yo'li an'anasining tiklanishi va hozirgi zamon xalqaro munosabatlarini uyushtirishdagi ahamiyatini ko'rsatish.

Talabalarining bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar.

-Buyuk ipak yo'li shakllanishiga sabab bo'lgan asosiy omillar, tarixiy shart sharoit haqida bu fenomenning tabiati haqida, Buyuk ipak yo'li bo'ylab yashagan xalqlar, qabilalar, ularning sotsial-iqtisodiy, siyosiy, madaniy xoslatlari haqida;

-Buyuk ipak yo'lining dastlabki yo'nalishlari, tovar ayirboshlashdagi mollarning xillari, savdo ishlarining uyushtirish mexanizmlari haqida;

-Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari bo'ylab joylashgan sivilizatsiya o'choqlari, ularning xususiyatlari haqida;

-Sivilizatsiyalararo muloqotlarning davomiyligi asosida madaniy aloqalar, ma'naviy uyg'unlik, sinkretlashuv xodisalari haqida;

-Buyuk ipak yo'li bo'ylab diniy munosabatlar tolerantligining tarixiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.

-Bilishi va amalda foydalana olishi

-Buyuk ipak yo'lining tarixini manbalar asosida o'zlashtirgan holda kundalik faoliyatda (pedagogik, ilmiy, ishbilarmonlik, xizmat ko'rsatish-tarjimonlik, menedjerlik va b.) bu bilimlardan foydalanish:

-Buyuk ipak yo'lining taraqqiyot bosqichlari haqida aniq bilimlarga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash;

-Buyuk ipak yo'lining o'rganilish tarixi bo'yicha to'la ma'lumotlarga ega bo'lish va tanqidiy yondoshuv asosida amalda foydalanish;

-Buyuk ipak yo'li bo'ylab qadimiy sivilizatsiya o'choqlari tarixini bilish va amalda bu bilimlarni qo'llay olishi talab qilinadi.

O'quv qo'llanma o'quv rejasidagi "Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixi", "Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi", "Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixi", "yozuv madaniyati tarixi", "Sivilizatsiyalar tarixi", "Sivilizatsiyalar tarixida Markaziy Osiyo", "Markaziy Osiyo xalqlari moddiy madaniyati tarixi", "Etnologiya va etnik tarix" kabi fanlar bilan boqliq va uzviylikni tashkil etadi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.** Buyuk ipak yo'li haqida slayd prezentatsiyalar, multimediyalar, internet saytlaridagi axborot tizimidan tanqidiy asosida foydalanish imkoniyati bor. Yangi pedtexnologiyalardan debat, blits, so'rov-javob, rolli ijro, sahna lavhalari, tarqatma materiallar, Buyuk ipak yo'li bo'ylab yashagan xalqlar etnografiyasi etnik tarixiga oid ko'rgazma materiallar, sayyor (muzey) darslar va boshqalarni ijodiy qo'llashni ko'zda tutadi. Bulardan tashqari ilmiy adabiyotlar ustida ishlash, ilmiy-ommabob adabiyot bilan tanish bo'lish bu fanni o'zlashtirishda muhim ekanini qayd etish lozim. Internetdan bu mavzu materiallariga tanqidiy yondoshgan holda, ratsional ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## 1-BO'LIM. BUYUK IPAK YO'LINING SHAKLLANISHI ASOSLARI

### 1.1. BUYUK IPAK YO'LI SHAKLLANISHINING TARIXI ASOSLARI

**O'quv maqsadi:** Talabalarga Buyuk ipak yo'li shakllanishining ratixiy shart-sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar berish va bilimlarni mustahkamlash

**Tayanch iboralar:** ipak, Xitoy, Chjan Szyan, Rixtgofen, La'li yo'li, Shoh yo'li, lojuvard, savdo-ayrboshlash, Sharq, G'arb, karvon, Dunxuan, Turfon, Dovon

Jahon tarixida xaqqlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va madaniy xayotida muhim o'rin tutgan bir necha savdo yo'llari mavjud bo'lgan. Qadimgi Rus va Skandaviya xalqlarini bir biri bilan bog'lagan savdo yo'li, Afrikada asosan Saxara cho'li orqali o'tgan tuz yo'li kabilar bunga misol bo'ladi. Lekin, ular orasida eng mashhuri va yirigi bu – Buyuk Ipak yo'lidir. Bu yo'l Atlantika okeani qirg'oqlaridan Tinch okeani qirg'oqlargacha Osiyo qit'asi mamlakatlarini O'rta er dengizi va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan bog'lagan edi. Bu nafaqat yo'l balki sharq bilan G'arbn bir biri bilan bog'lagan ko'prik ham edi.

Buyuk Ipak yo'li mil. av. II asrda paydo bo'ldi. Lekin unga ushbu nom 1877 yilda Fon Rixtgofenning "Xitoy" nomli asarida beriladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Buyuk Ipak yo'lga qadar, O'rta Osiyo va Sharq xalqlarini bir biri bilan bog'lab turuchi yo'llar ham mavjud bo'lgan. Shulardan biri – Lal yo'li edi. U Pomir tog'laridan boshlanib, eron, Old Osiyo va Misr xududlarigacha borgan. Bu yo'lining paydo bo'lishiga Amudaryoning yuqori qismidan ya'ni, Pomirdan qazib olinadigan lal toshlari sabab bo'lgan. Bu qimmatbaho toshlar Shumer va Misr hukmdorlari tomonidan yuqori baholangan. Ularning maqbaralari ochilganda aynan Badaxshon lal toshlari topilgan. Ikkinchi yo'l – Shoh yo'li bo'lib, u mil.av. VI-IV asrlarda faoliyat ko'rsatib, eronning poytaxti Suza shahrini Kichik Osiyoning efes va Sard shaharlari bilan bog'lab turgan. Uning bir tarmog'i esa, erondan Baqtriya, Sug'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston xudularigacha tarqalgan. YUqoridagilardan tashqari yana Oltin yo'l,

Nefrit yo'l, Saxro yo'li kabi savdo yo'llari faoliyat ko'rsatgan.

Mil.av. 138 yilda Xitoy imperatori Vu Di o'z o'g'li Chjan TSzyanni davlat xavfsizligiga daxl qilayotgan xunlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi qilib Farg'ona vodiysiga jo'natadi. Yo'lda u xunlar qo'lga asir tushadi va u erda 10 yil davomida yashashga majbur bo'ladi. U tutqunlikdan qochishga muyassar bo'ladi, hamda Tyan'-Shanning baland dovonlaridan o'tib, Issiq ko'lga, so'ngra Norin daryosi bo'lab Farg'ona vodiysiga etib kelishga musharraf bo'ladi. Farg'onaga etib kelgach, bu erlik hukmdorni xunlarga qarshi kurashga davat etadi. Biroq ular, faqat savdo ishida hamkorlik qilishlari mumkinligini e'tirof etadilar. Chjan TSzyan o'z yurtiga qaytadi va bu erga borish uchun qulay savdo yo'llarin ko'rsatib beradi. Imperator uning xizmatlari evaziga unga "Buyuk sayohatchi" unvonini beradi. Chjan TSzyan Farg'onadan faqat otlarni emas balki, ularni parvarish qilish uchun as qotadigan emi sulini ham olib ketadi. Natijada Xitoyning ko'p joylarida suli etishtirish boshlanadi. Asta sekinlik bilan Xitoy bilan savdo aloqalari yaxshilana boshlaydi. Har yo'li imperator xonadoni bu erga 5-6 marotaba savdo karvonlarini jo'natib, unda asosan ipak va zargarlik mahsulotlarini jo'natgan. O'z navbatida Farg'onadan nefrit, ot va boshqa mahsulotlarga ayribosh qilib ketishgan. Xitoydan keltirilgan mahsulotlar o'z navbatida eron orqali boshqa mamlakatlarga tarqalgan. (Mark Kras mag'lubiyatida ipak bayroqning o'rni)

Xitoydan yo'lga chiqqan karvon dastlab Tyan-Shan' tog'idan o'tib, O'rta Osiyoni kesib o'tgan, so'ngra Xuroson orqali ikki daryo orag'iga unda O'rta er dengizi shaharlariga borgan. Buyuk Ipak yo'lining uzunligi 12 ming kelometrda iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ko'p savdogarlar bu yo'lni to'laligicha bosib o'tmaganlar. Savdo asosan karvon saroylarda amalga oshirilgan. Mil. av. I asrda O'rta Osiyoda Kushon davlatining yuzaga kelishi Buyuk ipak yo'lining yanada taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyodan jun gazlamalar, gilam, taqinchoq, lal va yoqut kabi qimmatbaho toshlar, zotdor otlar; Xitoydan ipak gazlamalar, temir, nikel', mo'yna, choy, qog'oz, porox; Xindistondan ziravorlar keltirilgan.

Asosiy karvon yo'li quyidagi shaharlardan o'tgan: Dun'xuan, Xami, Turfon, Qashg'ar, O'zgan, O'sh, Quva, Andijon, Qo'qon, Samarqand, Buxoro va Marvdan o'tgan. Marv shahriga kelganda yo'l tarmoqlarga ajragan. Birinchi tarmoq – Xorazmda Volga bo'lab,

Sharqiy Evropaga, Kiev, Novgorod, Moskva shaharlariga borgan. Ikkinchi tarmoq – Balx orqali Afg'oniston va Hindiston erlariga borgan. Uchinchi tarmoq – Bog'dod orqali O'rta er dengizi shaharlariga yo'l olgan. Ushbu yo'lda savdo asosan ayriboshlash orqali amalga oshirilgan.

Buyuk Ipak yo'li to'g'risidagi ma'lumotlar I-III asrga taluqli Xitoy manbalarida ko'plab uchraydi. M: "Shitszi"da shunday ma'lumotlar keltiriladi. Xunlar mol boqishardi. Xitoy hukmdorlari ularga sovg'a sifatida ipak matolar jo'natishar ular esa o'z navbatida katta miqdorda mol berishardi. Bu yo'l xususida hind manbasi "Araxashastra"da ham qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xitoy manbalarida sharqiy Turkiston orqali o'tgan Buyuk ipak yo'lining ikki tarmog'i xususida so'z yuritilib, u janubiy (Nan'dao) va shimoliy (Beydauo) tarzida keltiriladi. Manbada keltirilishicha janubiy tarmoq Shan'shandan boshlanib, Kun'lun tog'laridan o'tib, YOrkent orqali Toshqo'rg'on va Vaxanga kelgan. Voxandan yo'l yana ikkiga ajrab, birinchisi – Balx, Marv, Gekatompil, ekbatana, Ktnsifon shaharlaridan o'tgan. Ikkinchisi – Giltit, Kashmir, Qandaxor, Barbarikon va Barigaz shaxarlariga borgan. Shimoliy yo'l Tyan-Shan orqali, Tarim daryosi bo'lab, Qashg'arga undan Farg'ona vodiysiga, so'ngra Movarounnaxr erlari orqali Volga bo'yi, Uraloldi va Qora dengiz bo'lari shaharlariga etib borgan. III asrga kelganda bu tarmoqlarda o'zgarishlar yuz beradi. Bu haqda YU Xuanning asarlarida keltiriladi. Unda yozilishicha iqlimning o'zgarishi natijasida endere va Nii voxalarida xayot to'xtaydi shu bois yo'l janub tomon siljiydi.

Antik davr manbalarida ilk ma'lumotlar Psevdoarrianning "Eritrey dengizining quyo'lishi" nomli asarida (mil.av. II-I asrlar) va Ptolomeyning "Geografiyadan qo'llanma" asarlarida keltiriladi.

Buyuk Ipak yo'li to'g'risidagi ma'lumotlarni Ibn Rushtning "Xudud ul-olam" asarida ham ko'rishimiz mumkin.

#### **Nazorat uchun savollar va vazifalar:**

##### **Savollar:**

1. Buyuk Ipak yo'liga qachon asos solindi?
2. Buyuk ipak yo'lining qadimgi davrda shakllanishiga qanday omillar ta'mir ko'rsatdi?
3. Shox yo'li qaerdan o'tgan?
4. La'l yo'li haqida gapirib bering

5. Buyuk Ipak yo'lining qaysi tarmog'i O'rta er dengizi shaharlariga borgan?

6. Qaysi antik davr mualliflarining asarlarida Buyuk Ipak yo'li haqida ma'lumotlar bor?

7. Buyuk ipak yo'lining qadimgi tarmoqlari yo'nalishlarini aniqlang

##### **Vazifalar:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq atamalarni aniqlash va daftarga yozish

2. Buyuk ipak yo'lining qadimgi davrga oid savdo sotiq markazlarini aniqlash va ular to'g'risida ma'lumotlar to'plash

##### **Mustaqil ish uchun vazifalar:**

1. "Buyuk ipak yo'li – iqtisodiy aloqalar vositasi" mavzusida mustaqil ish bajarish

##### **Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveldze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveldze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. №1

9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitiy globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G`G` Ekonomicheskij Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekove. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto`e persiki Samarkanda. – M.: 1987

28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno`e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekove) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put.G`G` Mejdunarodno`y egegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

## 1.2. BUYUK IPAK YO'LI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY, IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY OMILARI

**O'quv maqsadi:** Buyuk ipak yo'li shakllanishining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillari to'g'risida ma'lumotlar berish va bilimlarni mustahkamlash

**Tayanch iboralar:** ipak, shoyi mato, Baqtriya, Marv, davlatlar, sulolalar, Ahmoniylar, Kushonlar, g'arbiy o'lka, sug'diylar, Xitoy, Chjan Szyan, Rixtgofen, La'l yo'li, Shoh yo'li, lojuvard, savdo-ayrboshlash, Sharq, G'arb, karvon, Dunxuan, Turfon, Dovon

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti tarixida savdo karvoni yo'llari hamisha muhim ahamiyat kasb etgan. Kishilik jamiyati tashkil topib, ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar yuzaga kelishi bilan dastlab qishloqlararo, so'ngra shaharlar va mamlakatlararo aloqalar o'rnatilgan. Bunday o'zaro aloqalar tufayli uzoq-yaqin savdo va karvon yo'llari shakllangan. O'troq jamoalar, qabilalar, elatlar va xalqlarni hududiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan birlashtirgan davlatlar aloqa yo'llarining qaror topishi, kengayishi yoki barham topishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimda O'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon la'lisi (lojuvardi, qizil yoquti)ga bo'lgan ehtiyoj tufayli Yaqin Sharqni Baqtriya bilan bog'lagan «lojuvard yo'li» vujudga kelgan. Mil.av. VI—IV asrlarda esa Axomaniylar davlati poytaxti Persepol shahrini Bobildan Baqtriyagacha bo'lgan hududlarni bog'lagan «shoh yo'li» tarkib topgan. Bu yo'l orqali Badaxshon la'lisi mamlakatlar osha Mesopotamiya va Misrga yetkazilib podshoh saroylari-yu ibodatxonalarni bezashda va zebi-ziyatlar yasashda keng ishlatilgan.

Bir necha ming yillar davomida Sharq bilan G'arbn bir-biri bilan bog'lagan qadimgi yo'llardan yana biri tarixda «ipak yo'li» nomi

bilan shuhrat topgan. Chunki bu karvon yo'li orqali tashkil topgan xalqaro savdo mahsulotlarining asosi va ularning nominal baholari ipak va ipak mato bilan belgilangan.

Xitoy xoqonlari ipak yo'li orqali G'arb mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalar olib borganlar. Ular sovg'a-salomlar bilan o'z elchilarini O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar. Masalan, Xitoy sayyohi Gan In mil. 97 yilda G'arbiy dengiz (O'rta dengiz)gacha borib yetgan. Makedoniyalik May Tisian esa 100 yilda Lanchjougacha yetib borgan.

Shunisi e'tiborliki, ipak yo'li bo'ylab ustunlik qilish uchun Eron, Parfiya, O'rta Osiyo hukmdorlari va Xitoy o'rtasida hamma vaqt kurash borgan. Ayniqsa bunday raqobatli kurash mil. III asrdan boshlab Eron va O'rta Osiyo davlatlari hamda Eron bilan Parfiya o'rtasida keskin tus olgan.

Bu yo'l fanga "Ipak yo'li" nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofer tomonidan kiritildi. U o'zining "Xitoy" nomli asarida bu termini asoslab bergan. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy meridional yo'l" deb atalar edi. Fanda ipakning vatani Xitoy deb tan olingani bejiz emas. Ammo hind olimi Mukerji Hindistonda ipakni paydo bo'lganligini isbotlashga harakat qiladi.

O'rta Osiyo orqali Xitoydan G'arbg'a o'tgan savdo karvon yo'llari doimo sug'dlar nazoratida bo'lgan. Sug'd savdogarlari savdo yo'lidagi ustunlikni saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Enasoy (Yenisey) sohillariga qadarli hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shansi viloyatida, Dunxuan kabi karvon yo'li yoqalarida joylashgan qator shaharlarda o'z karvonsaroylari va qishloqlarini barpo etganlar. Masalan, Dunxuan shahrida III—IV asrlarda ming xo'jalik (5 ming aholi)ga ega Sug'd qishlog'i qad ko'targan.

Ipak yo'li orqali Xitoydan O'rta Osiyo va G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak va shoyi matolar, ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz olib chiqilgan bo'lsa, G'arb davlatlaridan Xitoyga shisha, jun matolar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlar: qizil yoqut, feruza, serdolik, shuningdek, dorivorlar, tulpor otlar olib borilgan. Savdo yo'li orqali Xitoyning jez ko'zgulari va o'rtasi kvadrat teshikli tangalari Farg'ona vodiysi va Choch (Toshkent) viloyatida keng tarqalgan. Shunday qilib, Ipak yo'li O'rta Osiyo

xalqlarining iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Biroq, bu ipak yo'li aftidan uzoq vaqt mavjud bo'lmagan, chunki VI asrning 2-yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo'yicha monopol huquqdan mahrum bo'lgan, asr oxirida esa Vizantiya shu qadar ko'p miqdorda ipak yetishtirar ediki, uni Xitoydan keltirishga hech qanday ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoatini barpo etilishi va uni asta-sekin Zakavkaze va O'rta dengiz mamlakatlariga tarqalishi bilan Buyuk ipak yo'lining tarixi tugaydi.

Miloddan avvalgi II asrda ochilgan va tarixda Buyuk Ipak yo'li deb atalgan yo'lining ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu yo'l faqat savdo yo'li emas edi. U ayni paytda, dunyo xalqlari o'rtasida madaniy hamda davlatlararo yo'li ham bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li haqidagi ilk yozma ma'lumotlar miloddan avvalgi 138 yilga to'g'ri keladi. Buyuk Ipak yo'li Xitoydagi Xuanxe daryosining o'rta oqimida joylashgan Sian shahridan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda yo'l ikkiga ayrilgan: birinchisi — Shimoli-g'arbiy Buyuk Ipak yo'li — Turfon, Torim vohasi, Qashqar, Farg'ona orqali o'tib, Samarqandgacha kelgan. Bu yerda Buyuk Ipak Yo'li yana ikkiga bo'linib, biri Marv, Nisa (Turkmanistonning janubida joylashgan shahar, hozir faqat xarobalari o'rganilmoqda), Hamadon, Bag'dod va Misr orqali O'rtaer dengizigacha yetib borgan. Ikkinchisi Buxoro va Xorazmga yo'nalgan va Xorazmda ikkiga bo'lingan: biri Orolning sharqidan Janubiy O'rol orqali Saqlab yurtiga (Rossiyaga) va Sabar (Sibir) turklari yurtiga borgan. Xorazmda davom etgan ikkinchi yo'l Mang'ishloq, Hazar (Kaspiy) dengizi sharqi-shimoli orqali Kavkaz, Itil (ruschasiga Volga), Bulg'oriya (Tataristonning eski nomi), Qrim, Qora dengiz yo'li bilan Yevropaga borgan.

Janubi-g'arbiy Buyuk Ipak yo'li — Xo'tan, Yorkent, Pomir-Tyan-Shan tizmalari orqali o'tib, Baqtriyaning poytaxti Zariaspa (Balx)ga borgan. Balxda janubiy yo'l ikkiga ajralib, biri Hindistonga, ikkinchisi g'arbg'a yo'nalgan va Marvda shimoliy yo'l bilan tutashgan. Marvdan Buyuk Ipak yo'li Parfiyaning poytaxti Nisa, Eronning Gekatompil, Apaliya va Ekbatana (Hamadon) shaharlari orqali Mesopotamiyaga chiqib, u yerdan Damashqqacha borgan, Quddus va Misrga yo'nalgan.

Shimoli-g'arbiy ipak yo'li fakat iqtisodiy jihatdangina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni paytda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l



ham edi. Budda dini xuddi mana shu yo'l bilan Xitoyga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan. IV—VIII asrlarda Xitoyning tashqi olam bilan har sohada aloqalari kengayadi, buddizm keng yoyiladi, Markaziy Osiyoning moddiy va ma'naviy qadriyatlariga keng ko'lamda Xitoyga tarqaladi. Xitoyda ipakchilik yuksak darajada rivojlandi. Xitoy xukmdorlari yollagan turkiy suvo-riylariga ipak parchalaridan xom ashyo tarzida maosh to'laganlar. Ipaklar Xitoydan arzon narxlarda Markaziy Osiyoga Sug'd savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan samarqandlik sug'dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo'lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro'li, mo'tabar insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatning boy qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar-elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg'or xo'jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo'lganlar. Ayni vaqtda ular o'zga mamlakatlarning urf-odatlarini, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o'ta xushyor davlat ayg'oqchilari ham bo'lganlar.

«Ipak yuli» savdosida Xitoy manbalariga qaraganda otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Otlarning bahosi ipakning bahosi singari juda yuqori bo'lgan. VIII asr boshida bitta otning bahosi 40 taxlam ipakka teng bo'lganligi ta'kidlanadi. IX asrning birinchi yarmida esa 100 ming otga bir million taxlam ipak bergan. Ayniqsa, Oltoy, Farg'ona vodiysi va Yettisuv viloyatlarida yetishtirilgan otlar zotdor va bebaho bo'lgan.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III—VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati sug'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, «Ipak yo'li»ning g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tadi. XIII asrda esa ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'ylab nazoratni Chingizxon o'z qo'lga oladi. Bu xolat to' XIV asr o'rtalarigacha davom etdi. So'ng «Ipak yo'li» Temur va Temuriylar nazorati ostiga o'tdi. «Ipak yo'li» orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak, ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz chiqarilgai bo'lsa, g'arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zebo ziynat bezaklari, qimmatbaho toshlar: lazurit, biryuza, serdalik, xar xil dorivorlar, arg'umoq otlar olib borilgan.

Buyuk ipak yo'lining shuhrati, ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida yanada ortdi. Sohibqiron mamlakatning yuksak rivojida xalqaro savdoning ulkan ahamiyat kasb etishini bilganligi bois, ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor bergan. Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shaharlarida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etilgan. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi, miqdoriga qarab boj to'lovlari undirilgan. Bu davrda poytaxt Samarqand dunyo savdogarlarining yirik markaziga aylandi. Ushbu aloqalar bir tomondan, yurtimizning iqtisodiy-ma'naviy, madaniy yuksalishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning xorijiy ellar, xalqlar bilan yaqinlashuvi, hamkorligiga yordam berdi.

Buyuk Ipak yo'li XV—XVI asrlardagi buyuk geografik kashfiyotlar davri boshlangandan so'ng o'z-o'zidan so'na boshladi, chunki tuya va otga suyangan karvon G'arbiy Yevropaning yelkanli kema va karavellalari bilan tenglasha olmas edi. Ammo uning insoniyat taraqqiyotidagi ijobiy roli shubhasizdir. Shu jumladan, Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyoning va, birinchi navbatda, Vatanimiz Movarounnahrning iqtisodiy va madaniy ko'tarilishida jiddiy o'rin tutgan.

#### Nazorat uchun savollar va vazifalar:

##### Savollar:

1. Buyuk ipak yo'lining shakllanishida qaysi davlatlar, sulolalar hissasi katta bo'ldi?
2. Savdo yo'llarining rivojlanishida siyosiy omillar to'g'risida gapiring
3. Buyuk ipak yo'lining shakllanishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar?
4. Madaniy, ma'naviy qadriyatlar Buyuk ipak yo'li tarmoqlarida qanday rivoj topdi?

##### Vazifalar:

1. BIY -davlatlararo va mintaqalararo siyosiy munosa-batlarning dastlabki qadami masalasida fikrlarni daftarda bayon etish

##### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. Rtveladze E.V.ning "Velikiy Shelkoviy put. Ensiklopedicheskiy spravochnik" kitobi bilan tanishib chiqish

### **Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G`G` Vo`stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdennii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublikе» ot 31 maya 1995 goda.
3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto`kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo`y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo`y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo`y put: vchera, segodnya, zavtra. G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O`zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo`y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitiu globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G`G` Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo`jaev A. Buyuk ipak yo`li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano`v S. BIY – ko`xna madaniyat.// Ma`rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo`li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo`li- buyuk muloqot yo`li. Metodik-didaktik qo`llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo`jaev A. Buyuk ipak yo`li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo`y put. G`G`Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo`y put. G`G`Vostochno`y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekovе. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo`y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo`y put i Severno`y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo`y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo`y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto`e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno`e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekovе) //Vostochno`y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo`y put.G`G` Mejdunarodno`y e`jogodnik. – Sankt Peterburg: 1997

## **2-BO`LIM. BUYuK IPAK YO`LINING ASOSIY YO`NALISHLARI**

### **2.1. BUYUK IPAK YO`LINING ILK BOSQICH TARMOQLARI**

**O`quv maqsadi:** Buyuk ipak yo`lining qadimgi davriga oid tarmoqlari va yo`nalishlari bilan tanishtirish

**Tayanch iboralar:** ipak, shoyi mato, O`rta Osiyo, Buyuk xitoy devori, Vu-di, Parfiya, Xo`ton, Oks, Yaksart, Sug`d, Paykend, savdogarlar, Kushonlar, Baqtriya, Marv, davlatlar,

sulolalar, Ahmoniyalar, Kushonlar, g'arbiy o'lka, sug'diylar, Xitoy, Chjan Szyan, Rixtgofen, La'l yo'li, Shoh yo'li, lojuvard, savdo-ayrboshlash, Sharq, G'arb, karvon, Dunxuan, Turfon, Dovon

Xitoy uzoq yillar davomida xunlarning hujumidan aziyat chekib kelganlar. Buning yaqqol misoli tariqasida TSin Shi Xundi tomonidan Buyuk Xitoy devorini barpo etilishini ko'rishimiz mumkin. Asirga olingan xunlarni so'roq qilish natijasida, ular tomonidan yueji qabilalarini engilganligini eshitgan, imperator Vu Di ular bilan aloqa bog'lash va ittifoq tuzib xunlarga qarshi kurashishda foydalanmoqsi bo'ladi. Ularga elchi sifatida o'g'li Chjan TSzyanni jo'natadi. Ketayotib yo'lda asirga tushgan elchi 10 yildan so'ng qochishga va Kushon podsholari xuzuriga etib borishga musharraf biladi. Biroq qaytishda u yana xunlarga asir tushadi va 13 yil davomida tutqunlikda kun kechiradi. Oxir oqibat u yana asirlikdan qochishga musharraf bo'ladi va otasi saroyiga borib ko'rganlarini hikoya qilib qilib beradi. Imperatorni ko'proq samoviy otlar qiziqtirib qoladi.

Farg'ona vodiysining samoviy otlari tabiiy ravishda Xitoy imperatorini o'zga jalb qiladi. Xitoyliklarni ot sotib olish niyati amalga oshmagach imperator Vu Di katta qo'shin bilan yo'lga chiqadi. Qo'qon shahrini qamal qilib, otlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgach, o'z davlati xududini yanada kengaytirishga xarakat qiladi.

Uning harbiy xarakatlarining samarasi o'laroq ipak yo'lining asosiy xo'jayinlaridan biriga aylandi. Chunki, buyuk ipak yo'li nafaqat ipak shu bilan bir qatorda qurol sotish orqali ham katta daromad keltirardi. Bu yo'lga e'tiborning katta bo'lganligini shundan ko'rish mumkinki, Xitoydan boshlanadigan ikki tarmoqqa ham komendantlar tayinlanib, ular doimo qo'ni mamlakatlardagi ahvol haqida imperatorni habardor qilib turishgan.

Buyuk ipak yo'li orqali savdo aloqalari I-II asrlarda ya'ni imperator Vu Di va Parfiya shohi o'rtasidagi do'stona munosabatlar natijasida rivojlandi. Parfiyaliklar Xitoy ipagini katta miqdorda olishar va uni Evropaga sotish orqali katta foyda ko'rishardi. Aynan rimliklar ham Xitoy ipagini parfiyaliklardan bilishgan. Bu voqiea ya'ni ipak bilan tanishuv rimliklarga juda qimmatga tushgan, bir so'z bilan aytganda Mark Krassning mag'lubiyatga uchrashiga olib kelgan omillardan biri bo'lgan.

Xitoylik budda monaxlarining Xindistonga va qayta Xitoyga

safarlar III-IV asrlarda bu yo'lni "ziyoratchilar" yo'liga aylantirdi. Aynan shu davrlarda Buyuk ipak yo'li xalqaro tranzit savdo yo'liga aylandi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra mil.av. IV-III asrlarda savdo yo'lari bo'ylarida so'g'diylarning manzilgohlari paydo bo'la boshlaydi. Ularning manzilgoxlari asosan Sharqiy Turkiston, Ettisuv va Mo'g'iliston xududlarida joylashgan edi. Bu manzilgohlarda yirik savdo operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lib, uning gullab yashnagan davri VI-IX asrlarga to'g'ri keladi. Bu manzilgoxlar mustaqil bo'lib, mustahkam qo'rg'on va qurollangan harbiy guruhlariga ega bo'lganlar. Bu xolatni ular tomonidan zarb etilgan kumush tangalar ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari Buyuk Ipak yo'lining ikki asosiy tarmog'i ham so'g'd erlaridan o'tganligi ularning savdo aloqalarida muhim o'rin tutishlariga imkoniyat yaratib bergan.

Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlari va undagi faol savdo tarixiy vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Aleksandr Makedonskiy tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishi xalqaro savdoni o'sishiga xizmat qilgan. To'g'ri bu paytda hali Buyuk Ipak yo'li xali faoliyat ko'rsatmas edi. Lekin g'arb bilan savdoning Salavkiylar davrida rivojlanishi keyinchalik qayta tiklanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Savdoning rivojlanishida suv yo'li sifatida Sirdaryo va Amudaryodan ham keng foydalanilgan. Savdoning taraqqiy etishi o'z navbatida yangi va boy shaharlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bunday shaharlar sirasiga Poykend, Varaxsha, Ramish kabilarni kiritib o'tish mumkin. Sug'diyona orqali karvon yo'laridagi savdo Parfiya podsholigi davrida ancha taraqqiy etadi. eronda Sosoniylar xukmronligining boshlanishi va ularning savdo yo'larini nazorat qilishga intilishlari, ya'ni, o'zlari xoxlagan karvonni mamlakatga kiritishlari yoki kiritmaslikka intilishlari natijasida bu davlat hududini aylanib o'tuvchi yangi yangi tarmoqlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Aksari savdogarlar butun karvon yo'lini bosib o'tishni istamaganlar shu boisdan ular yirik shaharlarda asosan, Choch, Samarqand, Buxoroda mol ayriboshlashni amalga oshirishni ma'kul ko'rganlar. Bu xolat bilan asosan Xitoy savdogarlari shug'ullanishgan. Ular yuqorida nomlari eslatib o'tilgan shaharlarda o'z mahsulotlarini ayriboshlab o'zlari uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni olib yurtlariga qaytishgan. Xitoy savdogarlari O'rta Osiyoning boshqa ichki

shaharlariga borishmagan. Ular uchun o'rtakashlik vazifasini erlik savdogarlar bajarishgan.

Mil.av. I asrda har yo'lida bir marotaba savdogarlar uchrashuvi bo'lib o'tgan. Bundan maqsad, Parfiya hukmdorlari imkon darajasida katta daromad keladigan savdoni o'z nazoratlari ostida ushlab turishga xarakat qilishgan, ya'ni, chet ellik savdogarlarni iloji boricha mamlakat ichkarisiga kiritmaslikka urinishgan. Chunki, savdo yo'lini nazorat ostida ushlab turish hukmdorlarga doimiy daromad manbai bo'lib xizmat qilgan.

Buyuk ipak yo'li nafaqat ijtimoiy hayotgagina emas joy nomlariga ham o'z tasirini ko'rsatgan. M: Xozirda ham Hindistonda rus tilida so'zlashuvchi savdo shahobchalari faoliyat ko'rsatadi. Moskadagi Arbat ko'chasi rabot ya'ni, sharqdan kelgan sadogarlarning manzilgohi nomidan kelib chiqqan.

#### Nazorat uchun savollar va vazifalar:

##### Savollar:

1. Vu Di nima uchun Farg'onaga yurish qilgan?
2. Chjan Szyanning ma'lumotlari qanday tarixiy ahamiyatga ega?
3. Kushonlar davrida BIY qanday rivoj topdi?
4. Parfiyada nima sababdan har yo'li savdogarlar uchrashuvi o'tkazilgan?
5. Nima sababdan Sosoniylar davlatini chetlab o'tuvchi yo'nalishlar paydo bo'ldi?
6. Buyuk Ipak yo'li qachon "ziyoratchilar yo'li"ga aylandi?

##### Vazifalar:

1. BIY qadimgi tarmoqlarini harita-taqdimot shaklida aks etish va taqdimot qilish

##### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. BIY bo'ylab qadi-miy shaharlar va shaharsozlik (urbanistik madaniyat) mavzusida mustaqil ish bajarish

##### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdenii

Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.

3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G` Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G` Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitii globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G'G` Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjanov S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G` Voproso` istorii 1985 №9

19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G'Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekovye. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto'e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskije i kulturno'e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekovye) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put. G'G' Mejdunarodno'y elegendnik. – Sankt Peterburg: 1997

## 2.2. BUYUK IPAK YO'LINING O'RTA ASRLARLARDAGI ASOSIY YO'NA-LISHLARI

**O'quv maqsadi:** Buyuk ipak yo'lining o'rta asrlarga oid asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish va bilimlarni mustahkamlash

**Tayanch iboralar:** ipak, shoyi mato, O'rta Osiyo, Buyuk xitoy devori, Vu-di, Parfiya, Xo'ton, Oks, Yaksart, Sug'd, Paykend, savdogarlar, Kushonlar, Baqtriya, Marv, davlatlar, sulolalar, Ahmoniylar, Kushonlar, g'arbiy o'lka, sug'diylar, Xitoy, Chjan Szyan, Rixtgofen, La'l yo'li, Shoh yo'li, lojuvard, savdo-ayrbo'shlash, Sharq, G'arb, karvon, Dunxuan, Turfon, Dovon, Turk xoqonligi, Amir Temur, karvon-saroylar.

Arab tarixchilarining asarlarida Sharq "shaharlar onasi" deb atalgan Marvda ikki tarmoq, shimoliy va janubiy biri biriga

qo'shilgan. Bu erdan katta magistral yo'l dastlab Bobilga undan Bog'dodga, so'ngra Suriyaga borgan va u erdan kemmalarga yuklar ortilib, Misr, Vizantiya, Italiya va boshqa O'rta er dengizi shahar va davlatlariga tarqalgan. Bu mahsulotlar orasida asosan Xitoy ipagi, hind va indoneziya zirovorlari, zargarlik buyumlari, paxta matolar, fil suyaklari, olmos kabilar asosiy o'rin egallashgan.

Buyuk Ipak yo'lidagi savdo haqida so'z yuritilgan ekan tabiiy ravishda pul to'lov masalasiga to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Dastlabki vaqtlarda ya'ni ilk o'rta asrlarda to'lov birligi vazifasini ipak mato bajargan. Ipak mato aynan tillaning qiymatini belgilab bergan, unga Xitoyning o'zida ham dori – darmon, kitoblar, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ayriboshlash mumkin bo'lgan. Xatto, ipak mato orqali turli soliq va majburiyatlardan ozod bo'lish ham mumkin edi. Uning yordamida qilgan jinoyati uchun jazolardan qutulish uchun tavon sifatida ham foydalanilgan. M: 20 o'ram ipak mato berib o'lim jazosidan qutulish mumkin edi. Bu kabi xolatni So'g'dda ham kuzatishimiz mumkin. Bir o'ram ipak mato 20-25 dirxam turgan. Aynan shu erda bir juft xachir 12 dirxam, bo'rdoqi buqa 11 dirxam, oddiy qalqon 12 dirxam, dubulg'a 2 dirxam turgan. Bulardan tashqari yolanma qo'shin to'lovi ham ipak mato tarzida amalga oshirilgan, ya'ni, kiyimlik tarzida. Mug' arxivi ma'lumotlariga ko'ra 10 kiyimlik ipak matoga bitta ot sotib olish mumkin bo'lgan. 607 yilda uyg'ur savdogarlari 3000 bosh otini 13 ming o'ram ipak matoga sotishadi. Unda har bir otning bahosi 4,5 kiyimlikka to'g'ri kelgan. 763-779 yillarda 10 ming ot sotiladi. Uning bahosi bir million o'ramni tashkil qiladi. Bu vaqtda otlarning bahosi ortib har bir ot 10 kiyimlikka almashtiriladi. Ko'chmanchi xalqlarning ayriboshlash mahsulotlari asosan ot, qo'y, mol, teri, baliq moyidan tayyorlangan kley, bug'i va oxularning eritilgan yog'laridan iborat bo'lgan.

Xitoyga olib boriladigan mahsulotlar orasida Samarqand shaftolisi alohida o'rin tutgan. Uni Afrosiyobning oltin shaftolisi deb atashgan. Uning nafaqat mevasi, balki ko'chati ham anchagina haridorgir bo'lgan. VIII asrning o'rtalariga kelib, savdo muhim o'rinlaridan birini choy egallay boshladi. Xuddi shu vaqtga kelib Xitoyda O'rta Osiyoning mashshoq va raqqosalari mashxur bo'lib ketadi. Xitoyda asosan Mo'g'iliston otlari keng tarqalgan bo'lib ular past bo'ylari bilan O'rta Osiyo otlaridan farq qilishgan. Bundan tashqari xitoyliklarni Buxoro, Samarqand va Qozoq cho'llaridan

keltirilgan dumli qo'ylar ham ajablantirgan. Xitoyga olib borilgan mahsulotlar orasida ot terilari anchagina xaridorgir bo'lib, xitoyliklar ulardan asosan harbiylar uchun kiyim-bosh va ximoya vositalarini tayyorlashgan. Turli mo'nalar shular jumlasidan oq otning dumi, tulki dumi sexrli kuchga ega deb hisoblangan va katta miqdorda eksport qilingan. IX asrda Xorazmdan Xitoyga ichiga qor to'ldirilgan qo'rg'oshin yashiqalarda tarvuz olib borilgan. Pista dorivor hisoblanib, inson kayfiyatini yaxshilovchi vosita sifatida shuhrat qozongan. Buxoro va Samarqandda tayyorlangan oq qandlar juda mashhur bo'lib, turli davlatlarga sotilgan.

Asta sekinlik bilan savdoda pul birliklari paydo bo'la boshladi. Dastlabki pul birligi sifatida So'g'd tangalaridan foydalanilib, u to'rt burchak o'rtasida teshigi bo'lgan. Keyinchalik undagi so'g'd yozuvi o'rniga xitoy ierogliflari yoziladigan bo'ldi. Bu tanga pullar tashqi savdo bilan birgalikda ichki savdoda ham keng qo'lanilgan. Buni arxeologik izlanishlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy va sug'diylarning Sharqiy Turkiston vohalari va Xitoy bilan munosabati. Ipak yo'li xitoyliklarni na faqat Davan (Farg'ona)ga, balki butun O'rta Osiyoga qiziqishini kuchaytirgan. Shu bois Xitoy imperatorlari o'z sayyohlari (Son Yun, Syuan Szyan, Xoy Chao kabilar)ni O'rta Osiyoga yo'llab, ular orqali ma'lumotlar to'plagan.

Xitoy - Sug'd savdo munosabatlari mil. avv. IV - III asrdan o'rnatilgan edi. Ayni shu davrdan Sharqiy Turkistonda tijoratchi muhojir sug'diylarning koloniyalari paydo bo'ldi. Bu jarayon keyingi asrlarda yana tezlashdi. 197 yilga oid sug'diy maktublar to'plami "Ko'xna xatlar"da (2-xat) Xitoyning Loyan (sug'dcha s'rg - Sarag') va Chan'an (sug'dcha 'gwmtn - Axumtan)dan to Szyusyuan (sug'dcha cwc'n - Chuchan)gacha bog'lagan hududda joylashgan sug'diylarning koloniyalari haqida ma'lumotlar uchraydi

Ilk o'rta asrlar, 350 yillargacha sug'diy savdo manzilgohlari asosan tijorat maqsadlarida barpo etilgan bo'lsa, 350-750 yillarda bu manzilgohlar ahamiyati siyosiy, iqtisodiy va madaniy darajaga ko'tarildi. E.G. Puleyblenk: "Ular (sug'diylar) nafaqat mohir savdogar, balki musavvir, hunarmand va yangi din targ'ibotchisi edi. Sug'diylar Markaziy Osiyoga tarqalib, Ipak yo'li bo'ylab joylashib, Xitoyning ichki viloyatlari hamda ko'chmanchilari orasiga kirib

bordilar. Shulardan biri sug'diylarning turkiylarga sivilizasion ta'siri edi" deb, ta'riflaydi

V asr 20-50 yillarida Shimoliy Vey (386-550) sulolasi hukmdorlari O'rta Osiyoga - Eftallar huzuriga uch bor elchilar yuborgan. 425 yildagi missiyaga Van Enshen va Xey Van, 437-438 yillarda Tue Yuan va Shao Min, 444-453 yildagi missiyaga Chjehjiba boshchilik qilgan. Bu elchilar Sug'd poytaxti Samarqand va ixshidlar qarorgohi Maymurg'ga tashrif buyurishgan. Elchilarning hisobati esa keyingi aloqalar uchun muhim hisoblangan. Xususan, sug'diylarda tujjorlik mahorati erta shakllanishi haqida Xitoy imperatori Yan-di (605-617)ning elchisi Vey Sze o'z hisobotida: Samarqandning "barcha aholisi asl savdogar, o'g'illarini besh yoshga to'lgandan savdoga o'rgatadilar. Bola o'qishni boshlagach, uni savdo ishlaridan ta'lim olishga soladilar. Naf' ko'rish aholisining ko'pchiligi tomonidan qadrlanadi" deb, yozgan edi. Shu xislat sug'diylardan turkiylarga va ayniqsa, uyg'urlarga o'tdi. Bunda asrlar davomida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston aholisi orasidagi yagona etnomadaniy makon[, o'z ta'sirini ko'osatgan edi.

Turk xoqonligi qaror topishiga Gansudagi sug'diy manzilgohlarning vakillari astoydil harakat qilganlar. Ular janub, sharq va shimolga yo'nalgan savdoni o'z qo'llariga olgan edilar[8]. Turk xoqonligi Xitoyning Suy sulolasini mag'lub etishi, sug'diylarning Kumul shahri yaqinidagi Xami viloyatini nazoratga olishga va u yerda xoqonlik boshqaruvini joriy etishga imkon bergan. Samarqandlik Kan Sumi Ordosdagi Beyan okrugi gubernatori- duxufu lavozimiga tayinlangan. Bu hududlarga Sug'ddan muhojirlarning kelishi davom etgan. 630 yilda "ulug' sardor" buxorolik An Tuxan 5 ming sug'diyni shimoliy Xitoyga olib kelib joylashtirdi. VII asrning 2-yarmida samarqandlik Kan Yan-tyan guruhi Tarim soyi sharqdagi Lob Nor ko'li atrofidagi tashlandiq shaharga o'rtnashib, bu yerda uchta qishloqni bunyod etdi. Ulardan biri Putaochen - Uzumzor deb atalgan. Uzum va may p'u-tao xitoy va yapon tillariga sug'diy bu-dav (aniqrog'i bwdw) orqali kirib bordi[10]. VII asrdan so'ng sug'diylar nufusini yanada oshirdi. Dunxuandan topilgan hujjatlarda VII -VIII asrlarda Lob Nor ko'li janubida to'rtta sug'diylar shahri bo'lganligi aytiladi. Sug'diylar karvon yo'llari bo'ylab yana o'nlab shahar va qishloqlarni bunyod etdilar. Asosiy manzilgohlari strategik ahamiyatga ega Ordos va Shansi o'lkalari oralig'idagi Luchjou,

Lichjou, Xanchjou, Saychjou va Ichjouda joylashdi. Jumladan, Kultegin bitiktoshining 24 qatorida : sekiz jегirmi jashima alti chub \ sogdaq... tapa suladim – “o‘n sakkizinchi yilda men olti sug‘d o‘lkasiga yurdim”,[ deb yozilgan. Bu “olti sug‘diylarga qarashli viloyat”lar garchi Turk xoqonligi tarkibida bo‘lsa ham, ularning havfsizligi maqsadida Turk xoqonlari u yerga o‘z harbiy kuchlarini yuborib turgan. Bu shaharlardagi sug‘diy savdogarlar xitoy savdogarlari bilan raqobat qilib, ularning savdo ishiga ham ijobiy ta‘sir etishgn

603 yilda Turk xoqonligi Sharqiy va G‘arbiy qismlarga bo‘lingach ham muhojir sug‘diylar Sharqiy Turk xoqonlariga xizmat qildi. Jumladan, An (buxorolik) Suy-sze Dulan-xoqonning saroy maslahatchisi bo‘lgan edi Bu davrda sug‘diylar turkiylarning na faqat ittifoqchisi, balki tarkibiy qismiga aylandi[15]. 607 yilda Xitoy josusi Li Pen o‘z saroyiga jo‘natgan nomasida: “ Turkklar soddadil bo‘lganliklari uchun uzoqni ko‘rolmaydilar va ular orasiga nifoq solish mumkin. Ammo ular ichidagi ko‘plab sug‘diylar o‘ta ayyor va mug‘ombirdirlar. O‘shalar turklarga o‘rgatib, yo‘naltirib turadi” deb, yozgan edi Chunki sug‘diylar Turk xoqonligining mustaqil siyosat yuritishi va mintaqada yetakchi bo‘lib turishidan manfaatdor edi.

Sug‘diylar uchun Xitoy bilan savdo qilish oson kechmagan. Xou Jen-chjining yozishicha Xitoy ma‘murlari tujjorlarga nisbatan: “to‘lov yo‘q, savdo yo‘q, to‘lov bor-savdo bor” siyosatini olib borgan[ 630 yilda xoqonlik tanazulga uchrab, minglab sug‘diy hunarmand, savdogar va dehqonlar xitoyliklar tomonidan asir olib ketilgan. Joylardagi sug‘diylar esa Xitoyga soliq to‘lashga majbur etilgan. 691 yilda Sharqiy Turk xoqoni Qapog‘on (Mochjo) xoqon Xitoy devori narigi tomonidagi sug‘diylarni qaytarish maqsadida harbiy kuch ishlatib, asirlarning avlodlarini oltmish yillik (631-691yy.) tutqinlikdan so‘ng ortga qaytardi[18]. Bu turkiy va sug‘diy birodarlik namunasi edi. Ammo keyinchalik Tan imperatori Tay-szun (Li Shimin) (726-749) sug‘diy muhojirlar yashaydigan ayrim hududlarni yana egalladi Sug‘diylar esa barcha vaziyatlarnida o‘z faoliyatlarini davom ettirishga harakat qilaverganlar.

Uyg‘ur xoqonligi davridagi aks aksariyat poytaxt shaharlar O‘rta Osiyo shaharsozlik madaniyati uslubida bunyod etilishida sug‘diylarning katta xizmatlari bo‘lgan. Jumladan, poytaxt O‘rdo‘baliq, Bayoncho‘r xoqon(747-759) Selenga bo‘yiga qurdirgan

Boybaliq, Bug‘u xoqon (759-779) ning Urxun daryosi bo‘yidagi Baliq, Uyg‘urbaliq, Qorabolg‘asun shaharlar, Xangay qarorgohi va Tuvadagi shahar qal‘alari qad rostladiXemchik va Ulug‘ Xem (Yenesey) vodiylarida Eltutmish Bilga xoqon buyrug‘i bilan 750-751 yillarda xakaslardan himoyalaniş maqsadida sug‘dlik me‘morlar va quruvchilar tomonidan O‘rta Osiyo an‘anasida mudofaa devori tiklanib, bu shahar Kemijket deb nomlandi]. Barcha shahar - qo‘rg‘onlar keng mudofaa devorlari bilan o‘ralib, qo‘rg‘onlari ichidagi qal‘asi uchun alohida devor tortilgan. Shaharlar atrofida esa O‘rta Osiyo shaharsozlik uslubiga xos bog‘lar bunyod etilgan. Jumladan, Qorabolg‘asun “shahar aholisi turklar va olovga topinuvchilar (zardushtiyalar – A.O.) hamda zindiq (monuviy)lardan iborat” bo‘lgan. Dungxuandagi 13 ta sug‘diylar qishlog‘ida ham olovga sig‘inish ibdatxonalari bo‘lgan. X asrda ham Turfondagi beshta “bektegin” qishlog‘i sug‘diylarga tegishli bo‘lib, aholisi xristian, zardushtiy va sabiy (moniy yoki buddaviy) diniga e‘tiqod qilgan]. Bu mintaqadagi diniy murosa va bag‘rikenglikdan dalolat berardi.

VI asrda yozilgan “Vey shu” solnomasiga ko‘ra, sug‘diylar yerli ruzie (yuechji)lar, saklar va turklar bilan etnik qarindosh bo‘lib, ularning azaliy vatanlari Orol va Kaspiyning shimoliy sohillari bo‘lgan. Bunday yaqinlik turk-sug‘d simbiozi uchun muhim omil hisoblangan. Xitoy imperatorlarining turkiylarni qaram qilishga qaratilgan siyosatini barbod bo‘lishida va xoqonliklarining mustaqil siyosat yuritishida sug‘diy maslahatchilar katta o‘rin tutgan deyish mumkin.

Xitoy ichkarisida muqim qolgan sug‘diylar Xitoy iqtisodi va madaniyati rivojiga ham ta‘sir o‘tkazdi. Xitoy poytaxti Chan‘an (Sian)ga o‘tiladigan yo‘l - Xesi koridori Gansu o‘lkasidagi eng qulay joy bo‘lib, bu yerdagi savdo daromadi asosn hudud xavfsizligiga sarflangan. Xesini Xitoy tarixchisi Li Minvey: “o‘ziga xos mustaqil yoki yarim mustaqil, barqaror hudud” deb, ta‘riflaydi. Bu yerdagi Guochjou (Ansi), Suchjou (Jyuchyuan), Shachjou (Dungxuan), Ganchjou (Chjang‘e), Lyangjou (Uvey) va Lanchjou (Gansuning markazi) kabi tumanlarda aksariyat sug‘diylar yashagan[. Bu hudud urushlardan holi etilib, savdo qilishga imkoniyat yaratilgan. Xitoy tarixchilari Vang Chjeng‘ya, Guan Lyanji, Li Minvey, Chen Aychju, Jin Yue kabilar: “Xitoy va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarda sak, xun, sug‘diy, ruzei (yuechji), turk va uyg‘urlar nihoyatda katta hissa

qo'shganlar. Saklar Yevroosiyo shimoliy savdo yo'lini ilk bor ochgan xalq hisoblansa, sug'diylar mil. avv. V asrdan to mil. X asrgacha, taxminan 1500 yilda Ipak yo'li orqali olib borilgan aloqalarning rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shganlar" deb, yozadilar. Sug'diylar va turkiylarning Xitoy tarixidagi ishtiroki mintaqaning keyingi taqdirini belgilagan.

Sug'diylar yashagan yirik markaz Dungxuan - Druan haqida Li Minvey "Suytan sichou chjilu" asarida : "Dungxuan viloyatidagi 13 ta qishloqdan biri Sungxua deb ataladi". Vey (220-265) va Szin (317-425) sulolalari davridan to 534 yilgacha Uvey shahrida sug'diylar soni bir necha barobar ko'payishiga Vey sulolasining ularga yaratgan imtiyozlari sabab bo'lgan. Dunxuandan O'rta yer dengizigacha uchta savdo yo'nalish bo'lib, bularning shimoli Xamidan, markaziy Turfondan va janubiy Dunxuandan boshlangan

Xitoy hududidagi muhojir sug'diylar savdodan tashqari ma'muriy va harbiy sohalarga ham jalb etilgan. Xitoy imperatoriniga xizmat qilgan samarqandlik otliq qo'shin boshlig'i Fadaning o'g'li Kang Mojaning Loyangdagi qabr ustidagi yozuvda, u harbiy jasorati uchun mukofatlangani yozilgan bo'lsa, "Suysu" solnomasiga ko'ra, bir millionlik Chan'an aholisining 50 mingga yaqini muhojirlar, jumladan, sug'diylar edi. Ular "Chjaou jyu shin xu" - "to'qqiz o'lka xulari" deb nomlangan. Bu ma'lumotlar sug'diylarning nafaqat Turk xoqonligi, balki Xitoy tarixida ham o'rinlari bo'ganligini isbotlaydi.

Tan davri Xitoy tarixida asli buxorolik An Lushao'axsi alohida o'rin tutadi. Kidanlar bilan kurashayotgan An Lu-shan va uning safdoshi Shi Chao-ilar 755 yilda imperatorga qarshi o'z qo'shinini tashlab, Kayfin, Loyan va Chan'an shaharlarini egallaydi. Imperator Sichuan "varvarlarini varvarlar qo'li bilan yengish" usulida bu isyonni ko'manchilar va Uyg'ur xoqonligi yordamida 762 yilda bostirishga erishdi. Bu xizmatlari uchun Tan ma'murlari uyg'urlarga savdo sohasida imtiyozlar bergan. Shu bahonada sug'diylar o'zlarini uyg'ur deb atab, bu imtiyozlardan unumli foydalanishgan. Bu esa sug'diylarning uyg'urlashuviga va mintaqa etnomadaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xitoy bozorlarida turkiylarning chorva mahsulotlariga, sug'diylarning otlariga, Xo'tan yashmasiga talab kuchli edi. 607 yilda 3000 (uch ming) otga 13000 (o'n uch ming) o'ram ipak to'langan. 763-779 yillarda uyg'urlar Xitoyga 100 ming ot yetkazib, o'rniga 1

mln o'ram ipak olib, har bir ot bahosini 10 o'ramga baholagan. VII asr oxiri - VIII asr boshlarida esa bitta otga 50 o'ram ipak mato to'langan[32]. Bir o'ram ipak mato 20 sug'diy drahm baholangan[33]. Samarqandda esa bir o'ram ipak mato 28 drahmga sotilgan. Bu esa Sug'dning o'zida ipak ishlab chiqarishni ko'paytirishga sabab bo'lgan. Sug'd ipagini esa asosan ko'chmnchi turkiylar xarid qilgan. Sug'd o'zining chit, jun va shoyidan tikilgan kiyim-boshlarini, charm va yog'och mahsulotlari, metall va suyakdan yasalgan buyumlarini ham turkiylarga arzonga sotgan. Xorijga esa qimmatbaholarga oltin zebu ziynati va taqinchoqlar, oq marvarid, novshodil, gilam va so'zanalarda chiqarilgan. O'ziga xos Sug'd ipak bezaklari Tan sulolasi davrida (618-906) "O'rta Osiyo usulli" xitoy matolarida o'z aksini topgan. Bu ham sug'diylarning sohadagi yutug'i edi.

Muhojir sug'diylar Sug'ddagi qavmdoshlari bilan aloqada bo'lganligi II-IV asrlarga oid "Ko'hna xatlar"da o'z aksini topgan. Bu maktublar N. Sims-Vilyams fikricha, 313 (314) yillarda yozilib, Samarqandga jo'natilgan, ammo manzilga yetib kelmagan. Maktublarning 1-sida Minay onasi Chatisga o'z ahvoli haqida, 2-si Nanay Kanakning Varzakka nomasi, 3-si Nanaydotga Shayon ismli qizdan noma va 5-si savdogar Aspandotning Frixvatavga nomalaridir. Boshqa bir 639 yilga oid hujjat Turfondagi Chinonchkand bozorida samarqandlik savdogar Vaxshubirt To'dak o'g'li va xitoylik rohib Yon-Siyon Uta o'g'liga Upachah ismli cho'rining sotilishiga bag'ishlangan. Maktubda Upachahning Turkistondan ekanligi ta'kidlanagan[38]. Turkiston esa Turk xoqonligi tassarrufidagi O'rta Osiyo edi.

VII-VIII asrlarda Sug'dda Turk xoqonligi davrida o'zlashtirilgan Xitoy namunasidagi tangalar zarb qilindi. Bu V-VII asrlardagi O'rta Osiyo hududida efaliylarga harbiy o'lja sifatida keltirilgan sosoniy tangalari o'rnini egalay boshladi. VII asr ikkinchi yarmidan Sug'd va Chochda tanga zarb qilish markazlari shakllandi. Bu tangalar Tan sulolasi tangalari standartidagi bronza tangalar bo'lib, mintaqada asosiy muomala vositasiga aylandi. Sug'diylar ularni xitoycha fen-piuen - "fen" - pn (y) - "pan(i)" va turkiylar pun - "pung" deb atashgan[39]. Bu pul birligi Mug' tog'i arxivining B 27 raqamli hujjatida: (1)... sgy 20+4+3 pny (2)... |n|w' sgty| 20+20 pny ds' sgt-... - "(1)... o'tgan (oy), 27 pani- (2)... to'qqizinchi o'tgan (oy), 40 pani - o'ninchi o'tgan (oy)" [40] kabi jumalalarda uchraydi.



VIII asr boshlariga oid Mug' arxivining V-17 hujjati - Panch viloyati hokimi Devashtichning Xoxsar hokimi Afarunga maktubining 12-13 qatorlarida: " (12) rtenn 'sky-s'r tym g-rb 'sp'd w'gz wbyw gwn ZY (13) cy-n...- yuqori tomondan ko'plab turk (xun) va xitoy (chin) qo'shinlari yetib keldi" deyilsa, V-18 hujjatining 8-11 qatorlarida: "tgm mrts'r 'z-w'rt (9) yw'r ZY MN w'nkW 'sgnt L' kwny-' ZY ZKw cy-n 'stkw cntn (10) kyZY w'nkW prstyw MN 'g-tywy pyrnmsr 'tsw 'kw g'g-'nw s'r 'z-gnt (11) w'c - Hech qanday o'zboshimchalik qilmagin. O'zim avval senga yuborgan Xitoy choparini xoqon oldiga elchi qilib yuborishni buyurgan edim. Endi yuborma"[41] kabi Panch viloyati hokimi Devashtichning Afarunga ko'rsatmalari keltirilgan. Maktublar Sug'dga Xitoyning amaliy yordam bo'lganga emas, balki Xitoy tomonidan hayrixohlik maqsadida vakillar yuborilganiga ishora qiladi. Xitoyning arab istilosi davrida O'rta Osiyo siyosatiga deyarli kuzilmaydi. Devashtich bu maktubni Gurakning ukasi[ Afarunni tinchlantirish uchungina yuborgan xolos. Shu bois yo'llangan maktub mazmunidan yakuniy xulosa chiqarish murakkab.

Xulosa qilib ayganda, turkiylar hamda sug'diylarning yaqin qo'shni Xitoy bilan aloqalari serqirra bo'lib, o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan kechgan. Bu esa Markaziy Osiyo mintaqasining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Mintaqa xalqlarining ko'p asrlar taqdiriga o'z ta'sirini ko'rsatgan

O'rta Osiyoda turk xoqonligi davrida amalga oshirilgan islohatlar harbiy boshqaruv ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga o'zining ijobiy hissasini qo'shdi. Arablar tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi tashqi savdoning rivojlanishida yangi qirralarning ochilishiga, kengroq savdo qilish imkoniyatlarini ochib berdi. Somoniylar davridagi savdo karvonlarining xavfsizligiga berilgan e'tibor savdoning erkin taraqqiy etishiga imkoniyatlar ochib berdi. Buyuk Ipak yo'li o'z faoliyatini mo'g'illar bosqinidan so'ng ham davom ettirdi. Mo'g'il hukmdorlari savdodan katta foyda olish maqsadida unga iloji boricha katta mablag'lar sarflashdi. Chet ellik savdogarlar esa, alohida imtiyozlarga ega bo'lib, mamlakat xududida erkin xarakat qilishlari uchun barcha imkoniyatlari yaratib berilgan edi. Bu davrda karvon yo'llari ancha yaxshilandi, daryolarga ko'priklar qurildi, tog'larda o'tish qiyin bo'lgan joylarda kengaytirish ishlari olib borildi. Astraxandan pekingacha bo'lgan masofa oralig'ida

xar 30-40 kmga manzilgohlar barpo etilib, u erda oziq - ovqatlar tashkil qilindi. Mo'g'illar davridagi savdo yo'lining o'ziga xosligi unda Qozoq cho'llaridan o'tgan shimoliy tarmoq anchagina taraqqiy etdi.

O'rta Osiyoning Buyuk Ipak yo'lida olib boriladigan savdodagi o'rni oshirishga Amir Temur katta xissa qo'shadi. U iloji boricha savdo tarmoqlarini umumlashtirishga, ularning havfsizligiga katta e'tibor berdi. Amir Temurning o'limidan so'ng O'rta Osiyodagi o'zaro urush va tartibsizliklar ipak yo'lidagi O'rta Osiyodagi savdogarlarning o'rni pasaytirib yubordi.

1424 yilda Min sulolasining imperatori YUn Le shimoliy - g'arbiy chegaralarini yopishni buyurdi. Va nihoyat, Buyuk geografik kashfiyotlar savdo tarmog'ini dengizga ko'chirdi. Shayboniylar bilan kirib kelgan o'zbek qabilalari Movarounnahrning turli viloyatlariga borib joylashdilar. Shayboniyxon olib borgan udel tizimi (viloyatlar, bekliklarga bo'lib boshqarish) davlatning markazlashuviga emas, aksincha hokimlarning mustaqil siyosat yuritish uchun qulay imkoniyat tug'dirdi. Shayboniyxon qarindoshlari o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash davrida ayrim bekliklar markazga bo'ysunmay qo'ydi. Yuz yillik shayboniylar hukmronligi davrida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati pasaya boshladi. Savdo karvonlari Movarounnahrni chetlab o'ta boshladilar XVII asrdan boshlab yurtimizda Ashtarxoniylar hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida esa Movarounnahr uzil-kesil uchta davlatga bo'linib ketdi. Bu uch davlat o'rtasida kelishmovchiliklar, urushlar, xonliklar ichidagi nizolarning kuchayishi savdo sotiqning rivojlanishiga emas, aksincha xonliklarning jahon savdosidan ajralib qolishiga sabab bo'ldi Bu esa xonliklarning Movarounnahrning XIV-XV asrlardagi taraqqiyot darajasiga nisbatan qoloqlikda qolishiga sabab bo'ldi Bundan tashqari XV asr oxirlarida O'rta Yer dengizi bandargohlariga olib boradigan Buyuk ipak yo'li Usmonli turklar davlati tomonidan yopib quyildi Turklarning istilosi Yevropadan Osiyoga boradigan yangi yo'llar qidirib topishni tezlashtirdi. Yevropaliklar bu davrda faqat uch qit'ani — Yevropa, Osiyo va Afrikani bilardilar. (Vatandoshimiz: Abu Rayxon Beruni 5 asr muqaddam Amerika qit'asi mavjudligini bashorat qilgan edi). Portugaliya savdogarlari Afrikaning g'arbiy sohillari buylab suzishdi. 1498 yilda esa ular dengiz orqali

Hindistonga yo'l ochishdi. Ispan sayyohlari 1492 yili Amerika qit'asini kashf etdi. Dunyo bo'ylab sayohatlar boshlandi. 1706 yilda Avstraliya qit'asi kashf etildi. Yevropaliklar uchun buyuk geografik kashfiyotlar katta ijobiy natijalar berdi. Jahon savdosini vujudga keltirdi, ularga dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, bilimlarini oshirishga yordam berdi, ilmiy bilimlar rivojlandi.

Gergrafik kashfiyotlar va mustamlakalarni bosib olish Yevropa mamlakatlarida mahsulot ishlab chiqarishning o'sishiga yordam berdi. Lekin bu narsa Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomida qulligi, tahqirlanishi, og'ir mehnatlari evaziga bo'ldi.

Bu davrda o'zbek xonliklarining tashqi savdosi butunlay to'xtab qolgani yuq, ular Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, qozon xonligi kabi davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borganlar.

XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklarining Sharq mamlakatlari bilan aloqalari birmuncha pasaydi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

- Eron va Afg'oniston bilan muttasil davom etib kelayotgan dushmanlik, bu yerdagi, siyosii vaziyatning beqarorligi oqibatida karvon yo'llarining nihoyatda xatarli bo'lib qolganligi;

- Xonliklar savdo-sotiq olib borayotgan yaqin qo'shni davlatlarning ham qoloq bo'lganligi.

Binobarin, ular ham sanoat buyumlarini, taklif eta olmasdilar. Oqibatda xonliklar hayotida hech vaqt iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmagan. Bu hol o'z navbatida yuqori mehnat, unumdorligini ta'minlovchi mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmagan. Natijada xonliklar oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi va dehqonchilik iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib qoldi.

XIX asrning, boshlarida bug' bilan ishlaydigan paravozlar ixtiro qilindi, Temur yo'llar qurildi. Yevropa, Osiyo, Amerika qit'alarida transportning bu turidan foydalanish katta foyda keltira boshladi. 1885 yilda birinchi avtomobil ixtiro qilindi. XX asr boshida samolyot ixtiro qilindi. Temur yo'llar, avtomobil yo'llari, havo yo'llarining ishga tushishi Buyuk ipak yo'lining inqiroziga sabab bo'ldi.

#### Nazorat uchun savollar va vazifalar:

##### Savollar:

1. Arab tarixchilari qaysi shaharni "shaxarlar onasi" deb atashgan?

2. Mug'ullar hukmronligi davrida BIY tarmoqlari qanday rivojlandi?

3. Temuriylar davrida BIY qanday rivoj topdi?

4. Qaysi voqeadan so'ng O'rta Osiyoning savdodagi ahamiyati pasayib ketdi?

5. O'rta Osiyodan qanday mahsulotlar boshqa mamlakatlarga olib chiqilgan?

6. O'rta Osiyoga boshqa mamlakatlardan qanday mahsulotlar olib kirilgan?

7. Qaysi Xitoy imperatori shimoliy - g'arbiy chegaralarni yopishni buyurdi?

##### Vazifalar:

1. BIY o'rta asrlar davriga oid yo'nalishlarini harita-taqdimot shaklida aks etish va taqdimot qilish

##### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. BIY o'rta asrlar davriga oid savdo-sotiq markaz-shaharlari to'g'risida taqdimot tayyorlash

2. "Xitoy manbalarida Buyuk ipak yo'li" mavzusida mustaqil ish bajarish

##### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. - T.: Uzbekistan. 1996. t.4

2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.

3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. - T.: Sharq. 1996.

4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2

5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.

6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999

7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002

8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitii globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G'G' Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G'Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G'Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekove. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I.Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955

26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto`e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno`e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekove) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put.G'G' Mejdunarodno`y ejegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

### 3-BO'LIM. BUYuK IPAK YO'LINING SIVILIZATSIYALARARO MULOQOT VOSITASI SIFATIDA O'RGANILISHI VA AN'ANALARINING TIKLANISHI

#### 3.1. BUYUK IPAK YO'LI – SIVILIZATSIYALARARO MU- LOQOT VOSITASI

**O'quv maqsadi:** BIYning Sharq va g'arb sivilizatsiyalari o'rtasida tarixiy-madaniy ko'prik sifatida o'rnini ko'rsatib berish va mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish

**Tayanch iboralar:** ipak, shoyi mato, O'rta Osiyo, Buyuk xitoy devori, Sug'd, Paykend, savdogarlar, Baqtriya, Marv, davlatlar, sulolalar, Ahmoniylar, Kushonlar, g'arbiy o'lka, sug'diylar, Xitoy, Rixtgofen, La'l yo'li, Shoh yo'li, savdo-ayrboshlash, Sharq, G'arb, karvon, Dunxuan, Turfon, Dovon, buddizm, moniylik, xristianlik.

Buyuk ipak yo'lining xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida qanday o'rni bor? Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo orqali Sharq, va /arabni bog'ladi. Bu yo'l orqali xalqlarning nafaqat iqtisodiy hayotiga, balki, ijtimoiy, ma'naviy hayotiga ham katta ta'sir o'tkazdi.

Kushonlar davrida budda dini Markaziy Osiyo orqali Xitoyga, undan sharqqa tarqaldi va davlat dini darajasiga ko'tarildi. /arbdan xristianlik dini kirib keldi, moniylik e'tiqodi Eron va Markaziy Osiyoning janubida tarqaldi.

Xitoydan O'rta Yer dengizining shimoliy qirg'oqlariga qadar cho'zilgan bu yo'l orqali ko'pgina xalqlar va elatlar diplomatik va

savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatdilar. Podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga sovg'a-salom in'om etishlari an'anaga aylandi. Sharq va g'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. O'sha davrdagi ko'plab madaniy-o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Agar geografik xaritaga e'tibor beradigan bo'lsak, O'rta Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalari o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli O'rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar hind-evropa, hind-eroniy va turklarning ko'chishi kuzatiladi. Bu davrda madaniyatlarning o'zaro ta'sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. O'rta Osiyoda jumladan, Vatanimizda shaharlarning ko'payishi, hunarmandchilik va ilm-fanning taraqqiy etishiga olib keldi.

Buyuk ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'lib qolmasdan, Yevroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin tutgan, o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qildi.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda III-VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'diylarning qo'lida bo'lgan. VIII asrning o'rtalariga kelib ipak yo'lining g'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tdi. Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo xalqlarini iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarida bog'labgina qolmasdan, balki ayni zamonda bu yo'l dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, qo'shnichilik, do'stlik rishtalarini bog'lagan yo'l ham bo'lgan. Zero, Buyuk ipak yo'li sivilizatsiya tarixida ilk bor Sharq va Farb mamlakatlarini yaqinlashtirgan, birlashtirgan qit'alararo ko'prik bo'lib, insoniyat hayotida juda katta ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob ulkan karvon yo'li bo'lgan

Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishiga xristian cherkovi o'zining katta xissasini qo'shdi. eramizning birinchi asrlaridanoq, xristian dinidagi ayrim oqimlarining biri birlari bilan kelisha olmasliklari natijasida xristianlik O'rta Osiyo, eron, Suriya va ipak yo'li orqali Sharqiy Turkiston va Xitoyga yoyila boshladi. Ular orasida pravoslav oqimining Melkit, YAkovit, Nestorianlik kabilarni keltirib o'tish mumkin. IV asrning oxirlari V asrning boshlariga kelib Vizantiya va uni qo'llab quvvatlovchi hukmdorlar eritiklarga qarshi

kurashni avj oldirishdi. Eritiklar yo'nalishlari qatoriga nestorianlik ham kiritildi. Iso haqidagi ta'limot, muqaddas kitob, udumlar xususidagi turli fikrlar oxir oqibat xristian olamida bir necha oqim va yo'nalishlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Nestorianlik – oqimining tarafdorlari isoni inson qiyofasini va uning elchilik vazifalarini tan olgan xolda, Bibi Mariyamni xudoning onasi sifatida tan olishmaydi. Shu bois, 431 yilda efes shaxridagi yig'ilishda bu oqim tarafdorlari eritik sifatida taqib qilinishga qaror chiqariladi. Buning natijasida ular eronga qochib kelib o'mashadilar va uning xayotida muhim rol o'ynashadi. Nestorianlik oqimining tarafdorlari eronda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan mansablarni qo'lga kiritadilar va tashqi savdoda faol ishtirok etadilar. Bu oqim vakillari orasida moxir tabiblar, o'qituvchilar, xunarmandlar bo'lib, xalq orasida katta e'tiborga ega edilar. Ularning O'rta Osiyo tomon tarqalishining asosiy sabablaridan biri zardushtiylik dinning ruxoniylari tomonidan taqib qilinganliklaridadir. O'rta Osiyoning Marv, Samarqand, Xorazm, Taroz, Merka, Ettisuv kabi shaxarlarida xristian ibodatxonalari mavjud bo'lgan. Arablar istilosidan so'ng ularning ayrimlari buzib tashlangan, ayrimlari esa masjidlarga aylantirilgan. Bu haqda Narshaxiy shunday yozadi: "Buxoro shaxriga kirib chap tomonga burilsang, Rindon ko'chasiga kirasan. U erda xristianlar cherkovi joylashgan, xozirda masjidga aylantirilgan". O'rta Osiyoda xristian dinining tarqalganligi xususida arxeologik izlanishlar natijasida topilgan tangalar xam dalolat beradi. Jumladan, Usturshona xokimi Roxan tomonidan zarb qilingan bronza tangalarda nestarianlik oqimining xochi tasvirlangan. Afrosiyobdan topilgan VII asrga oid tangalarda hukmdorning bosh tomonidan xoch tasviri tushirilgan. Topilmalarda turli davrlarga oid xristian dinning belgilari uchraydi. 691-692 yildan boshlab Isoni odam qiyofasi, undan oldinroq, feniks qushi tasviri uchraydi. Feniks qushi dastlabki paytlarda xristianlarda manguilik va qayta tirilish ramzi sifatida berilgan. Xitoyga xristian dinning yoyo'lishida suriyalik xristian missonerlari bilan bir qatorda ushbu dinga e'tiqod qilgan toxariston va so'g'd savdogarlarining o'rni katta bo'lgan. Xitoyda bu dinga e'tiqod qiluvchilarga erikinlik Tan sulolasi davrida beriladi. Bu sulola vakillari savdo munosabatlarini yaxshilash maqsadida ularga e'tiqod erkinligini berishadi. Lekin, 10 asrga kelib xristian, budda, moniylik dinlari Xitoyda taqiqlanadi va ular quvg'inga uchraydi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish

lozimki nestorianlik oqimining vakillari Buyuk Ipak yo'lining barcha tarmoqlari bo'lab o'z jonlarini xavf ostiga qo'yib bo'lsada diniy ta'limotlarini targ'ib qilganlar.

Moniylik dini Buyuk Ipak yo'lida joylashgan shaxar va xalqlar tarixida muhim rol o'ynagan dinlardan biridir. U o'z xarakatini eronning shaxarlaridan boshlab, O'rta Osiyoning saxrolarigacha etib keldi. Moniylik dini dualistik dunyoqarashlar zamirida shakllangan bo'lib, unda asosiy kurash doimiy raqiblar yorug'lik va qorong'ulik o'rtasida bo'lib o'tadi. Moniylik ta'limoti rivoyatlariga ko'ra samoda doimo ikki kuch yorug'lik va qorong'ulik o'rtasida kurash bo'lib, qorong'ulik xudosa qarshi kurash uchun birinchi odam Xormizd jo'natiladi. Unga yordamchi qilib, toza xavo, iliq shamol, yorug'lik, xavo va tozalovchi olov jo'natildi. Bu ta'limotga ko'ra barcha avvaliga qorong'ulik xudosa bo'ysinadi, asta sekinlik bilan komillik sari xarakat qiladi va uning changalidan xalos bo'ladi. Buning uchun u o'zi kabilar, xayvonlarni o'ldirmasliklari ularning go'shtini emasliklar kerak. eng qattiy taqiqlar ularning "saralanganlar"ga tegishli bo'lib bundaylar, oila qurmasliklar va xatto xayvon uchun beriladigan o'tni ham yulmasliklari lozim. Vazifalari esa, doimo ibodatda bo'lish, moniylik dinini targ'ib qilishdan iborat. Saralangan o'lgan zaxotlari jannatga tushishadi. Qolgan oddiy odamlar bir necha marotaba xar hil qiyofada qayta tug'ilishlari lozim bo'ladi. Moniylik ta'limotining shiori "Kimki boy bo'lsa, kambag'al bo'ladi. ertaga sadaqa so'raydi." Shu bosidan ham bu din kambag'al aholi orasida keng tarqala boshlaydi. Moniy hayotlik chog'idayoq bu din eron, Ikki daryo oralig'i, Kichik Osiyo, Rim, O'rta Osiyo va Sharqda keng tarqaladi. Uning o'zi "mening dinim barcha xalqlarga barcha tillarda tushunarlidir" degan edi. Moniylik dini qanday bo'lmasin, u baribir hukmron din hisoblangan zardushtiylik manfaatlariga zid kelardi. Shu boisdan sosoniylar xukmdori Varaxran I tomonidan qamoqqa olinadi va qatl etiladi. Moniylik dinning O'rta Osiyodagi targ'ibotchilaridan biri bu Mar Amo bqlib, bu dinning yoyo'lishida u ipak yo'lidan keng foydalanadi. Xitoyga moniylik dini Sharqiy Turkiston orqali kirib boradi.

O'rta Osiyoda evriylar xayotiga oid ilk ma'lumotlar IV asrga ta'luqli bo'lib, Marvda istiqomat qilishgan. Ularning bu erlarda yashaganliklarini arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi. Topilmalarning birida shunday satirlar bitilgan: "Bu Iosifning o'g'li

Pakorning shaxsiy mulkidir". Bu kabi topilmalar yaxudiylar Marg'iyona va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida istiqomat qilishganida dalolat beradi. YAxudiylarning bu erga kelib o'rtnashishlarini ko'plab olimlar Buyuk Ipak yo'li bilan bog'laydilar. Asosiy sabablardan biri bu Bar Koxbaning (132-135) rimliklarga qarshi qo'zg'oloni va uni shafqatsizlarcha bostirilishi hamda ommaviy qirg'in ularning ko'chishiga olib kelgan. Xorazmda yaxudiylar arablar bosqinidan bir oz ilgariroq kelib joylashadilar.

Ilk o'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'li o'tgan shaharlar aholisining madaniyatiga va turmush tarziga buddizm o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi. Din asoschisi Sidxarta o'z izdoshlariga Dxarma deb nomlanuvchi buddizmning asoslarini yozib qoldiradi. Keyinchalik bu asoslar budaviylik nomi bilan dunyoga taniladi. Budizmning ikki oqimi bo'lib birinchisi-Xinyana (kichik g'ildirak), ikkinchisi-Maxayana (katta g'ildirak) deb nomlanadi. Birinchi oqim "xalos bo'lishning qisqa yo'li" bo'lib, unda dunyoviy hayotning barcha unsurlaridan to'la voz kechiladi. Asosan magadxa podsholigida keng tarqaladi. Ikkinchi oqim Kushon podsholigida Kanishkaning hukmronlik yillarida keng tarqaladi. Xitoyliklar buddaviylik dini xaqidagi ilk tasavvurlarni shimoliy Baqtriyada yashagan yuechjilar bilan bog'lashadi. Baqtriyada budizmning keng yoyilganligini Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa manzilgoxlaridan topilgan ashyoviy dalillar ham isbotlaydi.

O'rta Osiyo xalqlari hisoblanmish parviyaliklar, toxaristonliklar, farg'onaliklar, so'g'dlar Buyuk Ipak yo'lida asosiy savdo va turli madaniy qadriyatlarini tarqatuvchilari sifatida ishtirok etishgan.

#### **Nazorat uchun savollar va vazifalar:**

##### **Savollar:**

1. BIY Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida qanday bog'lovchi funksiyalarni bajargan?
2. Nima sababdan nestorianlik sharqda keng tarqaldi?
3. YAxudiylarning avlodlari qachon Xorazmga kelib o'rtnashadi?
4. Xitoyliklar buddizm to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni kimlardan bilishgan?

##### **Vazifalar:**

1. Xodjaev A.ning "Sinskaya imperiya i Vostochniy Turkestan v XVIIIv. (Iz istorii mejdunarodnix otnosheniy v Sentralnoy Azii). Toshkent, 1991. kitobi bilan tanishib chiqish

### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Tan-shu" va "Bey-shi" da BIYga oid ma'lumotlar" mavzusida mustaqil ish bajarish

### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G`G` Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskij spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitiu globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G`G` Ekonomicheskij Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.

15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekove. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I.Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto`e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno`e svyazi mejdou Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Kristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekove) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put.G`G` Mejdunarodno'y ejegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

### 3.2.BUYUK IPAK YO'LI TARIXINI O'RGANISH TARIXShU-NOSLIGI

O'quv maqsadi: BIYning rivojlanishi tarixini o'rganilishi jarayoni bilan bog'liq bilimlarni berish va masalaga oid ma'lumotlarni mustahkamlash

**Tayanch iboralar:** Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, savdo yo'nalishlari, Marko Polo, K.F.Rixtgofen, A.Steyn, dunxuan, P.Pelo, Muhammad ibn Hamid, Frantsuz ekspiditsiyasi, nemis ekspiditsiyasi, yapon ekspiditsiyasi, rus ekspiditsiyasi. S.F.Oldenburch, O.Kobzeva, E.Rtveladze, A.Xo'jaev.

Buyuk ipak yo'li bir necha asrlar davomida Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarib keldi. Aynan shu yo'l orqali xalqlarning madaniy aloqalari, do'stona munosabatlari o'rnatildi. Aynan shu yo'lda birinchilardan bo'lib xalqaro cheklar ishlatildi. Lekin, vaqt o'tishi va bu yo'l o'tgan erlardagi o'zaro ichki urush va janglar, XV asrga kelib dengiz yo'lining ochilishi, asta sekin bir necha asrlar davomida asosiy savdo va diplomatiya yo'li vazifasini bajarib kelayotgan Buyuk Ipak yo'lining unutilishiga va yo'q bo'lib ketishiga olib keldi.

XIX asrga kelib, bir necha yirik Evropa davlatlarining Turkiston o'lkasiga qiziqishi, unga sari yangi yo'l topish uchun xarakterning boshlanishiga sabab bo'ldi. Qoraqurumning qorli dovonlari orqali yangi yo'l qidirib topish va maxfiy missiyani amalga oshirish uchun hind millatiga mansub bo'lgan Muhammad ibn Xamid yo'lga chiqadi. Lekin, u 1860 yilda yo'lda kasallikka chalinadi va vafot etadi. Uning sirli o'limi sabablarini aniqlash fuqorolik ishlari bo'yicha xodim Ul'yam Djonsonga topshiriladi. U Muhammad ibn Xamidning o'ldirilganligi haqidagi fikrlarni inkor qiluvchi asosiy hujjat uning kundaligini topadi va kartografiya bo'limining kapitani T.G. Montgomeriga topshiradi. Ushbu kundalikda qimmatli ma'lumotlar bo'lib, Buyuk ipak yo'lida joylashgan oltin konlariga boy manzilgoxlar va qum ostida qolib ketgan shaharlar bilan bir qatorda, Takla Makon orqali o'tgan muhim savdo tarmog'i haqida yozib qoldiradi. Shunday qilib bir necha asrlar davomida tuproq ostida yotgan Buyuk ipak yo'li tarixi yuzaga chiqadi.

1877 yil D.Raynerning Berlin boshxonasida Ferdinand Frayxern fon Rixtgofenning(1833-1905) «Xitoy. Sayoxatlar va ulardagi izlanishlar» nomli ko'p tomli monografiyasi chop etildi. U Berlin geografiya jamiyatining a'zosi bo'lib, o'zining asarini 4 qismga ajratadi. Unda asosan Xitoy geografiyasi. Fauna va florasini o'rganish bilan bir qatorda, undagi davlat tuzilishi, urf-odatlariga ham alohida o'rin ajratadi. Qadmiy manbalarga asoslangan holda ilk marotaba

muomalaga Buyuk ipak yo'li terminini kiritadi.

Muhammad ibn Xamidning kashfiyotidan 30 yil qitgach Evropa mamlakatlari Turkistonga endi josuslarni emas balki, olimlarni jo'nata boshladilar.

1895 yilning oxirida shved geografi Sven Gedin er ostida qolgan Takla Makon shahrini o'rganish uchun yo'lga chiqadi. Unga hamrox bo'lib, ser M.Aurel Steyn boradi va u Buyuk Ipak yo'lini o'rgangan arxeolog sifatida tarixga kiradi. Kelib chiqishi venger bo'lgan Steyn Afg'oniston, eron, Sharqiy Xitoy, Iroq va Takla Makonda ilmiy izlanishlar olib boradi, hamda birinchi bo'lib Buyuk Ipak yo'lida arxeologik izlanishlar olib borish uchun mablag' topishga muvafaq bo'ladi. 1900 yilning bahorida Kashmir tog'laridagi qorning erishi bilan qadimiy karvon yo'llari bo'lab yo'lga chiqqan Steynni Xo'ton, Turfon, Loulandagi kashfiyotlar dunyoga mashhur qiladi. Lekin uning nomini butun dunyoga mashhur qilgan kashfiyot Dun'xundan topilgan "TSin'fodun" (mingta budda g'ori) bo'ldi. Bu erda Xitoy, Hindiston va O'rta Osiyoning IV-VI asrlarga aloqalariga oid ashyoviy dalillar topildi. 1907 yilda bu erdan topilgan ashyolarni Steyn Britaniyaga olib ketadi va muzeyga topshiradi.

Uning kashfiyotidan so'ng Buyuk Ipak yo'lini o'rganuvchilar soni keskin oshib ketadi. 1906-1908 yillarda Sarbona Universitetining bitiruvchilariga rahbarlik qilib, arxeologik izlanishlar olib borish maqsadida bu erga Polem Pellio (1878-1945) keladi. Uning topgan ashyolar va qo'lyozma asarlari Parij milliy kutubxonasiga topshiriladi.

Buyuk Ipak yo'lini o'rganish maqsadida 1898 yilda D.A.Klements rahbarligida rus ekspiditsiyasi ish boshlaydi. Ular Turfonni o'rganib, qimmatli tarixiy boyliklar topishadi. Bu holat Peterburg Akademiyasini 3 yil muddatga ko'p sonli kishilar bilan ekspiditsiya uyushtirilishiga sabab bo'ladi. Ular Xo'tan, Kuchu, Turfon va janubiy Tyan'-Shan xududlarida ilmiy izlanishlar olib borishadi. Biroq, oz fursat o'tgach Moliya vazirligi ekspiditsiyani qo'llab quvatlashdan bosh tortadi. Oqibatda bu xududlarni ilmiy o'rgangish nemis, ingliz, frantsuz, shved, yapon, xitoy olimlarining qo'lga o'tib ketadi.

Nemislar A.fon Le Koka va A.Gryunveld rahbarligida 4 marotba Turfonga ekspiditsiya jo'natishadi. YApon olimi graf Sesmn Otani va amerikalik olim G.Uonerlar ham qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lishadi.

Bu holatlarni ko'rgan rus xukumati rahbarlari 1905 yilda M.M.Berezovskiy (1848-1912) rahbarligidagi ekspeditsiyani jo'natiga qaror qiladi. U Kuchuda 1907 yilgacha ilmiy izlanishlar olib boradi va katta yutuqlarga erishadi. 1908 yil TSarskoseloda uning topilmalariga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil qilinadi. Shundan so'ng xukumat yangi ekspiditsiya uchun mablah ajratishga qaror qiladi.

Bu ekspiditsiyaga akademik S.F.Oldenburger rahbarlik qilib unga, hamrox bo'lib S.M.Dudin yo'lga chiqadi. Ularning yo'nalishi Sharqiy Turkistonning Qarashar – Turfon – Kurla – Ko'cha – Oqsuv – Uch – Turfon – Qolpin – Maralboshi - Qarashar orqali amalga oshiriladi va bu izlanishlar orqali ular budda qo'lyozmalari, freskalar, xaykallar kabi ko'plab nodir ashyoviy dalillarni topishga muvaffaq bo'ladilar. Evropa olimlarining ilmiy izlanishlarining to'xtab qolishiga birinchi jaxon urushi sabab bo'ladi.

#### Nazorat uchun savollar va vazifalar:

##### Savollar:

1. Buyuk ipak yo'li dastlab kim tomonidan kashf etildi?
2. Buyuk ipak yo'li terminini kim fanga kiritdi?
3. Kim birinchi bo'lib arxeologik qazishmalar uchun pul topishga musharraf bo'ldi?
4. Steynni nima mashhur qilib yubordi?
5. Nima sababdan rus ma'muriyati ekspiditsiya uchun mablag' ajratishga qaror qildi?
6. Bugun jahon hamjamiyati va O'zbekistonda BIY traixini o'rganishga qanday e'tibor qaratilmoqda?
7. O.Kobzevaning BIYni o'rganishga qo'shib kelayotgan hissasi to'g'risida nimalar bilasiz?
8. E.Rtveladzening qanday ilmiy nashrlari BIY tarixini o'rganishda muhim hisoblanadi?
9. A.Xo'jaevning BIY ning rivojlanish tarixini o'rganishda hissasi qanday?

##### Vazifalar:

1. A.Xo'jaevning "Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar" kitobining referativ tahlili

##### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. O.Kobzevaning "Velikiy shjol-kovo'y put: istoriya i sovremennost" kitobining tarjimasi va tahlili

2. Markaziy Osiyo sharqona ishlab chi-qarish usulining asosiy bo'g'ini sifa-tida

##### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo' razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitiu globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G'G' Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbanov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.



15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirilar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekovye. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto`e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno`e svyazi mejdu Kitaem i Indiyey v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekovye) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put. G`G` Mejdunarodno'y ejegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

### 3.3 BUYUK IPAK YO'LI DA TARIXIY DIPLOMATIYA

**O'quv maqsadi:** BIYning rivojlanish bosqichlarida ro'y bergan o'zgarishlar va ularning davlatlararo diplomatik munosabatlarga ta'sirini ko'rsatib berish va tahlil etish

**Tayanch iboralar:** davlatlar, tashqi munosabatlar, Amir Temur, diplomatik munosabatlar, qit'alararo savdo, Yevropa, Rim, Ispaniya, Sharq, G'arb, Eron, Suriya, sayohatchilar.

Buyuk ipak yo'li 12 ming chaqirimcha uzunlikda bo'lib, u Sariq dengiz sohilidan boshlanib Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizi sohillarigacha borgan. Ikkinchi yo'nalish O'rta Osiyo orqali Hindistonga olib borgan. Bu yo'lda Sian, Dunxidan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv va boshqa qator qadimiy shaharlar joylashgan. Savdogarlar moldan tashqari turli fan va madaniyat sohalari yangiliklarini hamda So'g'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, bezak buyumlari va qimmatbaho toshlarni keltirganlar. Masalan, Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasldor otlar, Badaxshondan Xitoyga kumush va fil suyagidan ishlangan buyumlar, ziravorlar va boshqa mahsulotlar olib borilgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan me'morchilik yodgorliklarini o'rganishda turli hunarmandchilik buyumlari, tangalar topilgan. Chunonchi, Termizdan Rim tangalari, Afrosiyobdan sopol, Rim shamdonlari, Misr muhrlari, Kushon tangalari O'rta Yer dengizi atrofi hududlaridan topilgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Buyuk Ipak yo'li – insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlarini bilan almashishga, hayotiy zarur mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishning o'ziga xos bo'lgan hodisasidir. Sharqda aytilganidek, «O'tirgan – bo'yra, yurgan – daryo». Haqiqatan, harakatlanish – bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan.

Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lab, o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi. Albatta, Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo o'tmish qa'riga cho'kkan qadim-qadim zamonlardan

beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan Buyuk Ipak yo'lining alohidagi qismlari edi. Markaziy Osiyo tog'laridagi yarim qimmatbaho toshlar – Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan savdo aloqalari hosil bo'lishiga ko'maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan

«lazurit yo'li» mavjud edi. U bilan bir paytda «nefrit yo'li» ham tarkib topgan, bu yo'l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo

mamlakatlariga So'g'diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar, Xorazmdan esa feruza keltiriladi edi. Bu yo'nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'liga kirib mujassamlashgan. Tarix solnomalarida yozilishicha, Markaziy Osiyodan G'arbgga va Janubga cho'zilgan karvon yo'llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo'llarni o'zaro bog'lab bergan ezgu yo'ning haqiqiy boshlanishi so'z boshimizda ta'kidlab o'tilganidek, eramiz

dan avvalgi ikkinchi asrning o'rtalarida ro'y bergan ekan. O'sha davrda xitoyliklar uchun ilk bora G'arb o'lkalari – Markaziy Osiyo davlatlari kashf etilgan edi. Shuni aytib o'tish kerakki, bu yo'l hech qachon yagona bir yo'l bo'lmasdan, balki azim bir daraxt — sadaga o'xshash tarzda shoxlanib ketgan turli-tuman yo'nalishlarni o'z ichiga olgan. Masalan, Osiyoni Sharqdan G'arbgga qarab kesib o'tuvchi asosiy yo'llardan biri qadimiy Xitoyning poytaxti Chanan shahrida boshlanib, uning shimoli-g'arbiy chegarala rigacha Gobi sahrosining cheti bo'ylab ketgan, keyin sharqiy Turkiston orqali o'tgan. Tyan-Shan tizmasi dovonidan oshib o'tgan karvon-

larning bir qismi Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi orqali So'g'diyonaning poytaxti Samarqandga, Buxoroga, Xorazmgga olib borgan, keyin esa Kaspiy dengizi qirg'oqlariga yetib kelgan. Karvonlarning bir qismi Samarqanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysidan o'tib Termiz shahriga kelar edi, u yerdan Amudaryodan kechib o'tib, Janubga, Baqtra va Hindistonga qarab ketar edi. Yo'ning yana bir yo'nalishi Tarim shahridan chiqib, Takla-Makon sahrosining janub tarafidan aylanib o'tib, Xotan va Yorkent shaharlari orqali Baqtraga (shimoliy Afg'oniston) va Marvga kelgan. Bu yerdan karvonlar Eron, Suriya davlatlari orqali o'tib, O'rta Yer dengizi bo'yiga yetib kelar, mahsulotlarning bir qismi dengiz yo'li bilan Rim va Yunonistonga kelib tushar edi. Nomidan ham ma'lum bo'lishicha, karvon yo'llaridagi savdoning asosiy buyumi butun jahonda juda qimmatbaho bo'lgan ipak mahsulotlari edi. Masalan, o'rta asrlarning

dastlabki davrida ipak eng qadrlil hisobkitob birligi bo'lib, hatto tillani muomaladan chiqarish darajasiga yetgan edi. Masalan, So'g'diyonada bir otning narxi o'nta ipak kiyimliklariga tenglashtirilgan. Ipak bilan bajarilgan ishlar evaziga, navkarlarni yollash uchun to'lov qilinadi, ipak bilan hatto sodir etilgan jinoyat evaziga xun to'lash mumkin edi.

Ushbu karvon yo'llarini birinchi bo'lib venesiyalik savdogar Marko Polo «ipak yo'li» deb nomlagan edi, u yevropaliklardan birinchi bo'lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. «Buyuk Ipak yo'li» atamasini esa so'z bo-

shida ta'kidlaganimizdek, nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofer 1877 yilda o'zining «Xitoy» nomli fundamental asarida ilk bora ilmiy tarzda qayd etgan. Ipak qit'alararo yo'l orqali tashib o'tiladigan asosiy mol bo'lsa ham, lekin u yagona mol emas edi. Markaziy Osiyodan Xitoyda juda qadrlanadigan otlar, tuyalar, harbiy anjomlar va qurolyarog'lar, oltin va kumush, yarim qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va jun-mo'ynalar,

gilamlar-u ip-gazlama, zar tikilgan matolar, o'ziga xos antiqa mevalar – tarvuz, qovun va shaftoli, yirik dumbali qo'ylar va ovchi itlar, qoplon va arslonlar olib chiqib sotilgan. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlarni, laklangan buyumlar va pardozupalarni, choy va guruchni olib kelishardi. Savdogarlarning yo'l to'rvalaridan turli-tuman noyob buyum, filning qoziq tishlari, karkidon shoxlari, toshbaqa toshlari, ziravorlar va ko'pgina boshqa xil mollar topilardi. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma'naviy qadriyatlarini, diniy g'oyalari ham jahonga tarqalib borar edi. Buddizm Kushon davlatidagi boshqa dinlar bilan birga hukm surgan bo'lib, bu yerdan

to Xitoygacha tarqalgan. Eramizning birinchi asrlarida Kichik Osiyodan bu yerga xristianlik dini kirib kelgan. Arab xalifaligi tomonidan VII asrda islom ta'limoti olib kirilgan. Buyuk Ipak yo'lining qoq yuragi bo'lgan

Samarqand shahridan Sharqning buyuk sarkardasi Amir Temur o'z yurishlarini boshlab, zafarlar quchar edi. Bundan tashqari, karvon yo'llaridan asrlar bo'yi allomalar, tadqiqotchilar ham sayohat qilar edi. Xitoy ruhoniysi Syuan Tszyan va venesiyalik savdogar Marko Polo, arab sayyohi – savdogar Ahmad ibn Fadlan va bovariyalik sarkor Shiltberger, vengriyalik tadqiqotchi Arminiy Vamberi hamda shvesiyalik geograf Sven Xedin, rus olimi Aleksey Fedchenko va fransiyalik jurnalist ayol Ella Mayyar, amerikalik u1075 geolog olim Rafael Pampelli, fransiyalik sayohatchi Jozef Martenlarning yo'lda qayd etgan yozuvlari va ilmiy asarlaridan biz Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning tarixini, ularning urfodatlarini va an'analarini bilib olishimiz mumkin.

1370 yili Amir Temur Mavoraunnahrni yagona hukmdori bo'lib olgach, buyuk saltanat barpo etihni oldiga maqsad qilib qo'ydi. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga juda katta e'tibor berdi. Mavoraunnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vohasida sug'orish tarmoqlari vujudga keldi, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaytirildi, yangi obod qishloqlar, shaharlar barpo etildi. Amir Temur «Temur tuzuklari» asarida «Har bir shaharda. masjidlar, madrasalar, honaqolar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga ravotlar barpo qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim»,—deydi. Eski va qadimiy shaharlar, ayniqsa Temurning ona shahri Kesh, davlatning poytaxti Samarqand gullab yashnadi. Shu bilan birga bu davrda Mavoraunnahr shaharlarida, ayniqsa uning poytaxtida hunarmandchilik va savdo rivojlandi.

Xo'sh, Amir Temur davrida Buyuk ipak yo'li qanday rivojlandi? Amir Temur xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirishga nima uchun katta ahamiyat berdi?

Amir Temur mo'g'ullar bosqini davrida inqirozga uchragan savdo-karvon yo'llarini qayta tikladi, yangi yo'llar barpo etdi.

Amir Temur Osiyo va Yevropa mamlakatlari hukmdorlariga murojaat qilib, xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishga ahamiyat berdi. Chunki savdogarlardan olinadigan boj Amir Temur davlati xazinasini boyitar edi, Amir Temur davlatida soliq tizimi, boj tizimi shunday yo'lga qo'yilgan ediki, bu tizim savdogarlar uchun juda qulay bo'lgan. Shuning uchun Mavoraunnaxrga bir kunda o'n minglab savdogarlar kelib ketishgan.

Amir Temur Markaziy Osiyo orqali o'tadigan «Buyuk ipak yo'li» da karvonlarning xavfsizligini ta'minladi, yo'llarni qaroqchilardan tozaladi. qo'lga tushgan qaroqchilarni ayovsiz jazoladi. Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan yo'llarda savdo-sotiq ishlarini kuchaytirib, turli rabotlar karvonsaroilar, savdo rastalarini qurdirdi. «Tuzuklar»da Amir Temur o'z mamlakatiga kelib ketuvchi-musofirlar, savdogarlarga qilgan g'amxo'rliklarini shunday ifodalaydi: «Har mamlakat va diyoy sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, ular turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakat va diyoyga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qaerga borishmasin: Xitoy, Xutan, Chinu- Mochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston va boshqa davlatlardan nafis matolar va munosib tuhfaridan keltirishsin.

Bu hol mamlakatda barcha mahsulotlarning mo'l-ko'l bo'lishiga qulay sharoit yaratdi. Buni Ispaniyaning Samarqandda Temur saroyidagi elchisi Gonzales De Klavixoning kundalik daftarida yozib qoldirgan quyidagi so'zlaridan yaqqol ko'ramiz: «Bu yerning boyligi faqat yemaklariing mo'l-ko'lligida emas, balki o'zida ko'plab ishlab chiqariladigan ipak matolar, atlas, kimxob, har xil ip va jun to'qima mollari, mo'ynali va ipakli po'stinlar, attorlik mollari, ziravorlar va dorivorlar, zarhal va lojuvardlar hamda boshqa mollarning serobligidadir». Temurning amri bilan Damashqning mohir to'quvchilari, Xalabning mashhur paxta yigiruvchilari, Turkiya hamda Gurjistonning zargarlari va boshqa hunarmandlar, juda ko'p attorlik buyumlari va buyoq-tijorat mollari Samarqandga jo'natilgan. Xitoydan ipak gazlamalar, chinni kosalar qadahlar, qimmatbaho aqiq toshlar yuborilgan. Chet mamlakatlardan Samarqandga keltirilgan mollar miqdorining naqadar ko'p bo'lganligini Klavixoning bu shaharda bo'lgan chog'da Xitoy poytaxti Xonbaliqdan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini ta'kidlaganidan ham bilsa bo'ladi. Rusdan muyna, suvsar, noyob po'stinlar kelib turgan. Ushbu turli iqlimlarning mollari o'z navbatida toy-toy bog'lanib, «Buyuk ipak yo'li» orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlariga jo'natilgan. Bozorlarda tartib-intizom bo'lgan, narx-navolar ustidan qattiq nazorat o'rnatilgan. Raislar, nazoratchilar xaridor haqiga xiyonat qilganlarni, chayqovchilarni jazolaganlar.

Samarqand shahrida oldi-sotti ishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Temur shaharning Ohanin darvozasidan Chorraha darvozasigacha Registon maydoni orqali o'tadigan ko'cha ochishni buyurdi. Ushbu ko'chadagi savdo uchun qulay do'kon va rastalar haqida Klavixox bunday deb yozadi: «Samarqand shahriga har yili ko'plab turli tuman mollar olib kelinadi. Unda ana shu mollarni tartib bilan sotish uchun katta bir joy bo'lmaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab ikki tarafdan mol sotiladigan do'konlar, hamda hujralar joylashgan ko'cha o'tkazishni buyurdi. Kattakon ko'cha ochib, ikki tomonidan hujralar qurdilar, har bir hujra oldida oq tosh qoplangan baland supachalari bor edi. Barcha do'konlar juft-juft qilib bir-biriga tutashirildi. Ko'chani tepasi esa boshdan-oyoq tim qilib ravoqsimon shaklda yopildi. Yorug'lik tushishi uchun unga qator darchalar o'rnatildi. Do'konlar qurilib bitishi bilan ularga savdogarlar o'rnatish turli-tuman, mollarni, sotishga kirishar edilar, ko'chaniing

har birida hovuzlar kavlangan bo'lib, ular suvga to'ldirib qo'yilgandi. Bu yerda ishlayotganlar maoshni shahar hisobidan olar edi. Ana shu ishga boshliq bo'lgan kishi qancha odam talab qilinsa, o'shancha kishini ishlatishga haqqi bor edi. Kunduz kuni ishlagan kishilar kech kirishi bilan. uy-uylariga ketishar va ularning o'rniga kechasi ishlash uchun boshqalari kelishar edi. Ayrimlari uylarni buzar, boshqalari esa yer tekislar va uchinchilari qurilish bilan band edi. Ular kechayu-kunduz shunday shovqin-suron qilishar ediki, bu yerda xuddi jinlar uya qurgandek edi. Bunday katta qurilishning 20 kundan ozroq muddatda amalga oshirilgani, shubhasiz kishini hayratga soladi.»

Temurning avlodlari davrida ham Movarounnahr va Xuroson savdogarlari nafaqat Osiyo mamlakatlari, ayni zamonda «Buyuk ipak yo'li» orqali Yevropa mamlakatlari bilan ham savdo munosabatlari olib borganlar. Ayniqsa, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya, Tatariston, Fransiya, Ispaniya va boshqa davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari kuchaydi. Xitoydan asosan ipak, shoyi matolar, chinni, la'l, gavhar, mushk anbar, Hindistondan sifatli choylar, nafis oq rangli matolar, nil buyoqlar, xushbuy ziravorlar, Erondan marvarid va durlar, Rossiya va Tataristondan har zil mo'ynalar, terilar va mum keltirilgan. Samarqand bozorlarida Fransiya gazmollari, Angliya movutlari, Cherkes pichoqlari mashhur edi. O'z navbatida Markaziy Osiyo shaharlaridan chet mamlakatlarga arzon narxli ip matolar, buz, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta, kalava iplar, pichoq, kulolchilik va misgarlik buyumlari chiqarilgan. Savdo munosabatlarining rivojlanishida elchilik aloqalari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa Ulug'bek davrida Xitoy bilan Samarqand o'rtasida elchilik munosabatlari yaxshi yo'lga quyilgan. Savdo karvonlari va elchilar Osiyo va Yevropaning juda ko'plab mamlakatlariga borganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mo'g'ullar bosqini davrida inqirozga yuz tutgan Buyuk ipak yo'li Temur hukmronligi davrida qayta tiklandi, gullab yashnadi taraqqiyotiing yuksak cho'qqisiga chiqdi. Shu sababli Amir Temur davlati obod bo'ldi, xalqi farovon yashadi, yangi-yangi shaharlar barpo bo'ldi, hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlandi.

Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan bu beqiyos buyuk yo'lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O'zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent

shaharlari bo'lib, ularning me'morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo'lining ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etadi. Buyuk Ipak yo'li hududida joylashgan mamlakatlar tarixi, ularning an'analari, urf-odatlari, boy madaniy-ma'naviy merosi bilan tanishish, sayyohlik tarixini o'rganish bugungi

kunda g'oyatda muhim sanaladi.

#### **Nazorat uchun savollar va vazifalar:**

##### **Savollar:**

1. Qaysi sulolalar davrida O'rta Osiyoda savdo yo'llari bo'ylab tashqi diplomatik munosabatlar yaxshi rivojlandi?
2. Qadimda Sharq va G'arb o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishiga kimlar sababchi bo'lgan?
3. O'rta Osiyoga qanday sayohatchilar kelgan?
4. Temuriylar davrida diplomatik munosabatlar qaysi mamlakatlar bilan o'rnatilgan?

##### **Vazifalar:**

1. Temuriylar davrida diplomatik munosabatlar to'g'risida taqdimot tayyorlash

##### **Mustaqil ish uchun vazifalar:**

1. BIY bo'ylab yozuv madaniyatining ri-vojlaniish bosqichlari
2. E.V.Rtveladzening BIY tarixini o'r-ganishdagi roli
3. Buyuk ipak yo'li va diniy-ma'naviy munosabatlar

##### **Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.

6. Rtveldze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G`G` Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitii globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G`G` Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveldze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Voproso` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G`G`Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekove. M.: 1988
20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991

25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto'e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno'e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekove) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put. G`G` Mejdunarodno'y ejegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

#### 3.4. BUYUK IPAK YO'LI AN'ANALARINING TIKLANISHI

**O'quv maqsadi:** BIYning rivojlanish bosqichlarida ro'y bergan o'zgarishlar va ularning davlatlararo diplomatik munosabatlarga ta'sirini ko'rsatib berish va tahlil etish

**Tayanch iboralar:** davlatlar, tashqi munosabatlar, Amir Temur, diplomatik munosabatlar, qit'alararo savdo, Yevropa, Rim, Ispaniya, Sharq, G'arb, Eron, Suriya, sayohatchilar.

Mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning yangi iqtisodiy siyosati dunyo davlatlari bilan jahon savdosining ahamiyatini orttirdi. Yevropa, Osiyo va Afrika yo'nalishida qo'shimcha savdo yo'llarining tashkil etish borasida harakatlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda mavjud qatnov tranzit tashuvni samaradorligini yanada orttirish vazifa sifatida qo'yilgan. O'zbekistonning tranzit tashuv sohasida boshqa davlatlar bilan hamkorlikning chuqurlashuvi, rivoji va kadrlar tayyorlash tizimi, savdo me'yorlari, qoidalarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

1949-1994 yillar oralig'ida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Iqtisodiy Kengashi doirasida tayyorlangan transport qatnovi doirasidagi 50ta turli xalqaro bitmlar va konvensiyalar ko'rib chiqildi va imzolandi. Birinchi guruhdagi to'rt shartnomada transport infrastrukturasi doir masalalar ko'rib chiqilgan, masalan, 1975 yilda imzolangan bitm xalqaro magistrallar (XMB), 1985 yilda imzolangan shartnoma xalqaro temir yo'l yo'nalishidagi avtomagistrallar (XTYM) qaratilgan. Bitmlar taqdim etilgan

ikkinchi guruhda yo'l harakatidagi yo'l belgilari va signallar masalalariga qaratilib, masalan, Yo'l harakati haqidagi konvensiya (1968), Yo'l belgilari va signallar to'g'risidagi konvensiya shular jumlasidan. Uchinchi guruh avtotransport vositalari va uskunolari uchun yakdil sharoitlar haqida 1958 yilda imzolangan bitmdan iborat. To'rtinchi guruhni 9 bitmdan iborat avtomobil transportiga doir normativ hujjatlar tashkil etadi. Ulardan biri (1970) – avtomobil qatnovini tashkil etuvchi transport vositalari haqida bo'lib, haydovchilar mehnatlari sharoitlariga aniqlik kiritadi, uchasi transport vositalariga soliq solinishi; to'rttasi xalqaro yuk tashish haqidagi bitmlarga xususiy huquqlarning qo'llanilishi masalalariga qaratilgan; Biri avtomobil transportlarining iqtisodiy tartibga solish masalalariga qaratilgan. Beshinchi guruh ichki suv yo'llarida kemalar qatnoviga tegishli bo'lib, yettita bitmdan iborat. Oltinchi bitmlar guruhi soddalashtirilgan xalqaro tashuv masalalarini tartibga soladi va 14ta turli konvensiyalardan tashkil topgan va shuningdek bojxona tadbirlari (Xalqaro yuk tashish haqidagi konvensiya 1956), xususiy va tijorat transport vositalarining muvaqqat keltirilishi. Bitmlarning yettinchi guruhi havfli yuklar tashuvi hamda yetkazilgan zarar uchun fuqarolarning javobgarligi haqidagi konvensiyadan tashkil topgan. Sakkizinchi guruh tezbuziladigan mahsulotlar tashuviga qaratilgan (1970 y.).

Respublikamiz tomonidan xalqaro yuk tashuvi, yo'l harakati, yo'l belgilari va signallari, konteynerlar tashuvi va boshqa konvensiyalar imzolangan<sup>4</sup>.

Hozirgi kunda Ipak yo'lining qayta tiklanishi haqidagi fikrlar haqiqatga aylanmoqda. O'zbekistondan janubga yo'nalgan yangi temir yo'l va avtomobilmagistrallar savdo sohasida yangi imkoniyatlar yaratilishiga yo'l ochmoqda. Endilikda infrastrukturadagi investisiyalar munosabatlarida, texnik yordam, kadrlar tayyorlovi, boshqaruv tizimi va tariflarning takomillashuvi, Rossiya, Qohog'iston va boshqa alternativ marshrutlarda qo'llanayotgan sharoitlar bilan birgalikda, respublikamiz transport sohasida ustunlikni aniqlash xizmat qiluvchi turli alternativ marshrutlar bilan bog'liqlikdagi haqiqiy va potensial harajatlar haqidagi yetarli to'liq ma'lumotga ega.

Respublikalararodan (MDH mamlakatlari) boshqa xorijiy mamlakatlargacha savdo tizimidagi rivojlanish natijalaridan biri tovarlar nomenklaturasi ayniqsa, eksportdagi o'zgarishdir.

O'zbekiston eksportida xom ashyo yetakchi rol o'ynasada, amml, hozirda sanoat mahsulotlarining to'liq qatorlari aniq ravishda rivojlanmoqda.

Savdo tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq muxim aspekt MDH davlatlari chegaralari ortida joylashgan mamlakatlar bilan savdo operatsiyalarning amalga oshirishdagi tashuv masofalarining ortishini o'zida mujassam etadi. SSSR tarqalgunga qadar O'zbekiston savdo hajmining katta qismi Rossiya va qo'shni davlatlarga to'g'ri kelardi. Shuningdek, Rossiya bilan savdo 70 dan 80%ni tashkil qilardi.

O'zbekistonning jug'rofiy joylashuvini inobatga olib, MDH sarhadlari ortida joylashgan mamlakatlar bilan savdo 10 000 km va undan uzoqroq masofadan qulayroq portgacha yetkazishga bog'liq bo'lishi mumkin. Agar yuk tashish transport narxga nisbatan ulkan xarajatlarining bog'liqligini e'tiboriga oladigan bo'lsak, bu holat O'zbekiston yengib o'tishi lozim bo'lgan bu jihatlar uyg'unligi nechog'li jiddiyligidan dalolat beradi.

Transport infrastrukturasini, xizmatlarining sifati va samaradorligini tranzit tashuvi sohasida yangi xalqaro konvensiyalar yordamija amalga oshirishda ba'zi texnik hamkorliklar shuningdek, "Savdo punktlari" dasturi muhim rol o'ynaydi. Dastur ma'lumotga ega xalqaro hamjamiyat rivoji va savdoda informasion texnologiyalar qo'llanilishi unumdorligini oshirish vazifalariga mas'ul, shuningdek, xalqaro savdoda harajatlarni kamaytirish jarayonlarida ham qo'llaniladi. O'ziga hos jihatlari: "savdo punktlari" dasturi: A) xalqaro bitmlar amalga oshirishda xizmat turlari taklif etiladigan tashqi savdo ning barcha ishtirokchilari to'planadigan savdoda qulaylik yaratuvchi markaz.

B) savdo ma'lumotlari byurosi savdo tashkilotlarini bozor kon'yunkturasi, potensial mijoz va ta'minotchilar, savdo qoidalari va qaydlari haqida ma'lumot bilan ta'minlovchi tashkilot sanaladi.

II. "TREYN FOR TREYD"<sup>6</sup> Dasturi (savdo ta'limi) Dastur vazifasi:

A) rivojlanatgan mamlakatlarning eng muhim ehtiyojlariga mos qator o'quv ma'lumotlarini ishlab chiqish.

III. "Transport vositalarining barcha turlaridan foydalanish bo'yicha dastur". Uning oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

A) transportning turli xillari rivojining milliy va regional strategiyasini muvofiqlashtirish uchun savdo va yuklarni transportda

tashishni yengillashtirishga qaratilgan komitetlarning tashkil etilishi;

B) Transport bo'yicha milliy qonunlar majmuining zamonaviylashtirish va optimallashtirish;

B) Xalqaro savdo va transportlariga hujjatli ish tartibi talablarining soddalashtirish yuzasidan tadbirlarning bajarilishi;

G) mamlakatda va regionda turli xildagi transportlardan foydalanish bo'yicha tizimning joriy etilishidagi institutsional to'siqlarni aniqlash va ularga barxam berish;

D) xalqaro talablarni inobatga olgan holda investisiyalar jalb etish strategiyasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

IV. "Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan mamlakatlarning tranzit yuk tashish bo'yicha dastur" (1981 y.). O'zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi jarayonlarga yordam ko'rsatib:

A) tranzit hujjatlarini rasmiylashtirishni va jarayonni soddalashtirish;

B) tranzit transportining unumdor strategiyasini ishlablab chiqish va muvofiqlashtirish, tranzit tashuvi rivojiga qaratilgan ikkitomonlama va ko'ptomonlama tranzit shartnomalarining bajarilishi

B) institusion rivoj va kadrlar tayrlash.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi tranzit tashuvi sohasida hamkorlik tashkil etish yoki keyingi rivoji uchun imkoniyatlarga ega va ilg'or hamkorlik olib bormoqda. Bunga shuningdek, davlat va nodavlat darajadagi turli tashkilotlar, bank va fondlar bilan olib borilayotgan hamkorliklar ham keng imkon yaratmoqda:

1) davlat darajasidagi:

Dunyo miqyosidagi (Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Sanoat rivoji yo'lida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo va Tinch okeani uchun Iqtisodiy va Ijtimoiy komissiya, savdo va rivojlanish yo'lidagi BMT Konferensiyasi, tarif va savdo yuzasidan Asosiy kelishuv, Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMT Komissiyasi, Davosdagi Xalqaro iqtisodiy forum, Xalqaro Turistik Tashkilot);

qit'alararo (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro hisob-kitob banki, "Parij kreditorlar klubi", Neft eksport qiluvchi mamlakatlar Tashkiloti, Osiyo-Tinch Okeani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti);

kontinental (Yevropa tiklanish va rivojlanish banki, Osiyo rivojlanish banki);

subkontinental (Yevropeyskiy soyuz "Evrika"Evropa ittifoqi g'arbiy Yevropa texnologik hamjamiyati);

regionalaro (Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va uning Savdo va rivojlanish banki, Yevropa Erkin savdo assotsiatsiyasi, MDH);

regional (Janubiy Osiyo regional hamkorlik assotsiatsiyasi, Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi)

XX asr tarixga katta siyosiy va geosiyosiy voqealarga boy asr sifatida kirdi. Aynan ushbu asrda dunyoning siyosiy xaritasida misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shunday voqiea zamirida O'rta Osiyo xalqlari ham dunyo bilan integratsiya jarayonlariga jadallik bilan qo'shib bormoqdalar. Bu xolat tarixiy zaruriyagina bo'lib qolmay, balki mintaqaning dunyo axamiyatiga molik tarixiy va iqtisodiy, siyosiy kuch ekanligini namoyish etadi. Bugungi kundagi madaniyat va boshqa sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarning barchasi xalqlarning o'zaro aloqalari natijasidir. Uning dastlabki shakllari savdo va urushlar edi. Vaqtlar o'tdi va bu aloqalar asta sekinlik bilan o'z shakl va mohiyatlarini o'zgartirib bormoqda. Bunday aloqalarda tabiiy ravishda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati beqiyos bo'lgan. Chunki, aynan shu yo'l ilk o'rta asrlarda Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo, O'rta va YAqin Sharq, O'rta er dengizi xalqlarini biri biri bilan bog'lagan ko'prik vazifasini bajargan edi.

Shu boisdan Buyuk ipak yo'lining qayta tiklanishi nafaqat O'rta Osiyo xalqlari balki butun dunyo uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk Ipak yo'lining jahon tarixida o'rni va ahamiyatini beqiyos ekanligini ko'zda tutgan xolda YUNESKO "Buyuk Ipak yo'li – muloqot yo'li" nomli programma ishlab chiqdi. Bu programmaning mazmun mohiyati shundan iboratki, dunyo xalqlarining o'zaro madaniy aloqalarida nafaqat urushlar balki, savdo munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etganligini namoyish etish, bu yo'lda joylashgan tarixiy yodgorliklar hamda asotirlarni asrash avaylash kiradi.

Buyuk Ipak yo'li yurtimiz tarixida ham katta iz qoldirgan. U dunyo xalqlariga o'n yetti asr davomida xizmat qilgan. Bugungi kunda dunyo davlatlari bugun ham o'zaro aloqalarda eng qisqa va kamxarajatli yo'llarni barpo etishiga intilmoqdalar. Bu borada Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yilidayoq davlatimiz o'z taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Tashqi siyosatimizda milliy davlat manfaatlarini ustun

qoʻygan holda jahon mamlakatlari bilan oʻzaro manfaatli teng hamkorlik qilishni maqsad qilib qoʻydi. Keyingi asrlarda oʻzaro iqtisodiy va oʻzga munosabatlar birmuncha osonlashdi, yangidan yangi transport vositalari kashf etildi. Lekin Buyuk ipak yoʻlining ulkan tarixiy ahamiyatini insoniyat unutmadi. Xususan, 1987 yildan boshlab YuNESKO “Buyuk ipak yoʻli muloqot yoʻli” shiori ostida bir qator xalqaro tadbirlar oʻtkazmoqda. Bu tadbirlarning koʻpchiligi qadam zamonlarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan sivilizatsiya tarixini yaqindan oʻrnatishga qaratilgan. YuNESKO homiyligida xususan, Samarqandda (1990 yili), Xiva (1991 yili), Buxoroda (1996 yili) xalqaro ilmiy konferansiyalar oʻtkazildi. Toshkentning eng goʻzal koʻchalaridan biriga Buyuk ipak yoʻli nomi berilgani ham bejiz emas. Mustaqil Oʻzbekiston bu buyuk karvon yoʻli trassasini tiklashga oʻz hissasini qoʻshmoqda..

Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrta Osiyoning markazida joylashgan. Bunday geografik jihatdan noqulay joylashuv jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni olib borishda qiyinchiliklar tugʻdirardi. Respublikamiz jahon bozoriga chiqadigan ham qulay, ham yaqin, ham foyda keltiradigan yangi yoʻllarni topish ishga tushirib foydalanish sohasida samarali faoliyat koʻrsata boshladi 1987 yili BMT ning YuNESKO tashkiloti butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanishi boʻyicha «Buyuk ipak yoʻli — muloqot yoʻli» dasturini qabul qildi, Ushbu dasturda Oʻrta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur oʻrganishga katta eʼtibor qaratildi. Undan tashqari bu dasturning asosiy maqsadi — Sharq va /arb oʻrtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustaxkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan kup sonli xalqlarning oʻzaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi. 2000 yilga qadar moʻljallangan ushbu dastur asosida koʻpgina ekspeditsiyalar uyushtiriddi Oʻzbekiston rahbariyati ham Buyuk ipak yoʻlini oʻrganish va qayta tiklashga, alohida eʼtibor qaratmoqda. Respublikamiz hududida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida koʻpgina tarixiy-madaniy obidalar oʻrganildi. qadimgi yoʻllar va yunalishlar aniqlandi, milliy-maʼnaviy boyligimiz, hamda anʼanalimiz oʻrganildi. Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro Instituti ochilgan boʻlib, uning asosiy yoʻnalishlaridan biri Buyuk ipak yoʻli va uning boʻylarida joylashgan shaharlarni oʻrganishdir. Shu sohada Respublikamiz 1992 yil qurilishi

boshlangan va 1996 yil may oyida foydalanishga topshirilgan Tajen-Saraxs-Mashxad yoʻnalishi boʻyicha Temur yoʻlining qurilishiga oʻz hissasini qoʻshdi. Bu yoʻl 12 davlatning hududidan oʻtib 40 ta davlat bilan hamkorlik oʻrnatishga yordam beradi. Bu bilan Oʻrta Osiyo mamlakatlarining fors qoʻltigʻiga Yevropa xalqlarini eea Oʻrta Osiyoga Temur yoʻl orqali chiqish imkoniyati tugʻildi. Uning uzunligi 240 km.

1998 yil Boku shahrida Buyuk Ipak yoʻlini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha qayta tiklash masalalariga bagʻishlangan xalqaro anjuman boʻlib oʻtdi. Yevropa—Kavkaz- Osiyoni bolgʻlaydigan ushbu transport yoʻli (TRASEKA) qurilishida Oʻzbekiston ham ishtirok etmoqda Ozarbayjon, Gruzziya Respublikalari bilan muzokaralar oʻtkazildi. Hozir bu yoʻl bitkazilib ishga tushdi. Jahonga chiqish yoʻli ikki baravar qisqardi va mahsulotning tan narxi ham ikki baravar kamaydi.

Oʻzbekiston nafaqat /arb mamlakatlari bilan, balki Sharq mamlakatlari bilan ham Buyuk ipak yoʻli orqali hamkorlikni tiklamoqda. Andijon - Oʻsh — Ergashtom – qashgʻar yoʻnalishini boʻyicha oʻtgan savdo yoʻlini tiklash maqsadida qamchiq davonida yoʻl qurib bitkazildi. Bu yoʻnalishning katta qismi qirgʻiziston hududidan oʻtadi. Kirgʻiz birdarlarimizga shu yoʻlni qurish uchun iqtisodiy va ishchi kuchi bilan yordam berishni respublikamiz oʻz zimmasiga oldi. Biroq bu yoʻl hali oxirigacha qurib bitkazilmadi. Sababi 2000 yil avgust oyida boʻlib oʻtgan Botkent voqealari bu ishga halal berdi. Kirgʻiz davlati yoʻl quruvchilarining himoyasini taʼminlashga kafolat bermadi. Agar bu yoʻl jahon andozalari talab beradigan darajada qurilib, ishga tushganda edi, biz Xitoy orqali Tinch okeaniga chiqqan boʻlar edik. Bundan Kirgʻiziston respublikasi ham katta foyda olar edn. Bu yoʻlning uzunligi 146 km.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2001 yil aprel oyida qamchiq davoni orqali Xitoyga boradigan yoʻlni gʻarb tomonga ham yunaltirish boʻyicha loyixani imzolash haqida qaror qabul qildi. Bu qarorga binoan yoʻl Nukusgacha yetib boradi va u yerdan Kozogʻistonga chiqib Yevropaga boradigan yoʻlga ulanadi. Bu loyihani amalga oshirish uchun 9 mlrd. AqSh dollari sarflash koʻzda tutilgan.

Oʻzbekiston yuk tashishda sarf xarajatni kamaytirish uchun Temur yoʻlning yangi tarmoqlarini qurib ishga tushirdi. Navoiy —



Uchquduq - Nukus yo'nalishidagi Temur yo'l 2002 yil ishga tushirildi. Mahsulot tannarxi 2 hissa kamaydi, yo'l deyarli 2 baravar qisqardi.

O'zbekiston uchun eng qisqa qulay yo'lni qaerdan o'tkazish mumkin edi?

Bu yo'l janubdan — Afg'oniston va Pokiston davlatlari orqali Hind okeaniga chiqish yo'li edi Afg'onistonda tolibonlarning hokimiyat tepasiga kelishi bu yo'lni qurishga imkoniyat bermadi. 2001 yil tolibonlar xukmronligi tutatilgach Pokiston - Hindiston mojarosi kelib chiqdi. Natijada bu yo'l qurilishi yana to'xtab qoldi. 2002 yil Eron, bilan olib borilgan muzokaralardan so'ng Afg'oniston shimolidagi Mozori Sharifdan Hirotga, undan Eron hududi orqali Chorbahor bandargohiga olib chiqadigan yo'l qurishga kelishib olindi. Hozirgi kunda bu yo'l qurilishini loyihalash va investisiyalash buyicha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Buyuk ipak-yo'li an'analarini tiklashdan manfaatdor. Bu yo'llardan O'zbekiston nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki-xalqlar, davlatlar o'rtasida madaniy aloqalarni tiklash, ular o'rtasida do'stona munosabatlarni o'rnatish uchun foydalanmoqda

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi qadimgi sivilizatsiyalar, o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashgan. Ana shu geografik joylashuv tufayli madaniyatlarining o'zaro ta'siri bu yerda kuchaydi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab keng miqiyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi, diplomatik shartnomalar, turli ittifoqlar tuzildi. Buyuk ipak yo'li faqat savdo-karvon yo'li bo'lib qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirdi. uning har taraflama taraqqiy etishida o'lgan omil bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz rahbariyati va xalqi ana shu an'analarni tiklash va yanada taraqqiy ettirish uchun mablag' va kuch-g'ayratlarini ayamaydilar.

Shuning uchun ham Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lovchi "Evropa-Kavkaz-Osiyo" yo'li (TRASEKA) barpo etishga kirishildi. Bu Buyuk Ipak yo'lini tiklash borasida muhim amaliy qadam bo'ladi.

1998 yilda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan xalqaro yig'ilish o'tkazildi. Unda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahonning 32 davlati vakillari qatnashdi.

TRASEKA kelgusida birgina O'zbekistonga qanday foyda

keltiradi? Mutaxassislar fikricha, birgina O'zbekiston paxtasini tashishga ketadigan xarajat 12 million dollarga kamaydi.

Tashqi savdo yuk tashish xarajatini ikki barobar kamaytirish imkonini beradi.

Demak, Buyuk Ipak yo'li uchinchi ming yillikda ham dunyo xalqlariga xizmat qiladi. To'g'ri, hozir bu yo'l avvalgidek Buyuk Ipak yo'li deb emas, TRASEKA deb ataladi. Gap uning qanday nom bilan atalishida emas. Eng muhimi, bu yo'lning xalqaro tinchlik, hamkorlik va davlatlar ravnaqiga xizmat qilishida.

«Ipak yo'li» Markaziy Osiyo Sharq bilan G'arb o'rtasida vositachilik qilgan. Bir so'z bilan aytganda, «Ipak yo'li» Sharq va G'arb xalqlari hayotida g'oyatda muhim va tarixiy o'rin tutgan. U xalqlarni siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarida bog'labgina qolmasdan, balki ayni zamonda bu yo'l dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, qo'shnichilik, do'stlik yo'li ham bo'lgan.

YuNESKO homiyligida, buyuk ipak yo'li joylashgan davlatlarning ko'pchiligida 15 dan ortiq ilmiy konferensiyalar hamda bir qancha ekspeditsiyalar olib borildi. O'tkazilgan 11 ta ekspeditsiyalar orasida: "*Morko Polo izidan*" (1987 yil, iyun-avgust oylari, Istambul-Pekin); "*Dengiz*" (23 oktabr 1990 yil, 23 fevral 1991 y.); "*O'rta Osiyo Respublikalari bo'ylab*" (1991 yil Xivada ilmiy seminar bilan birgalikda o'tkazilgan); "*Evropa ipak yo'li*" (1995., Istambul-Lion) kabi mavzularda olib borilgan ekspeditsiyalar alohida ahamiyatga molik.

Buyuk ipa yo'lga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiyalardan 1990 yil oktabr oyida Samarqandda o'tkazilgan, "*O'rta Osiyoda Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Qadimiyat va O'rta asr.*" nomli hamda 1996 yil 21-22 fevral kunlari Buxoroda o'tkazilgan "*Ipak yo'lining qayta tiklanishi*" nomli ilmiy konferensiyalar yurtimiz tarixida ahamiyatga molik hisoblanadi.

Sharqning *Xindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiya* kabi davlatlarida Buyuk ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsys ilmiy institutlar tashkil qilindi.

O'zbekistonda BMT va YuNESKO tashkilotlari qaroriga muvofiq Samarqand shahrida O'rta Osiyo tadqiqotlari instituti tashkil qilindi. Institut loyihalariga kiritilgan vazifalardan biri- buyuk ipak yo'lining

shaharlari va yo'nalishlarini o'rganib, tadqiq qilish hisoblanadi.

1998 yil noyabr oyida Toshkentda YuNESKO ijrochi kengashi 155 sessiyasining yakuniy kengashi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ishtirok eitb nutq so'zladı. O'z nutqida YuNESKOning «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturi olib borgan ishlari natijasida Samarqandda O'rta Osiyo tadqiqotlari instituti tashkil qilingani va O'rta Osiyo tarixini o'rganishda o'zini hissasini qo'shib kelayotgani uchun minnatdorchilik bildirdi.

Shuningdek, 1998 yil yil buyuk ipak yo'lini qayta tiklashga bag'ishlab Ozarbayjon poytaxti Bakuda o'tkazilgan konferensiyada ham I.A.Karimov ishtirok etdi. Konferensiyaada 32 dan ortiq davlatlarning hamda BMTning vakillari ishtirok etishdi. Uchrashuvda Yevropa-Kavkaz va Osiyoni bog'lovchi TRASEKAni barpo qilish masalasi atroflicha hal muhokama qilindi va Reja barchaga ma'qul tushib deklaratsiya qabul qilindi.

O'tgan vaqt davomida TRASEKA loyihasini hayotga tatbiq etish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar qilindi. Markaziy Osiyo va Eron temir yo'llarining tutashtirilishi TRASEKA loyihasini hayotga tatbiq etishda asosiy bosqichlardan bo'ldi.

O'zbekistondagi Andijon-O'sh-Irkashtam-Qoshg'ar avtomobil yo'lini tiklanishi Xitoy va Pokistonga yo'l ochdi. Buxoro-Saraxs-Mashhad-TeXron yo'nalishi ham qayta tiklanishi muhokama qilingan edi.

O'zbekiton "*Buyuk ipak yo'lida sayyohlik*" nomli loyihaaning ham a'zosi hisoblanib 1994 yildan buyun 20ta davlat bu loyihaga a'zo bo'lgan.

Shu o'rinda Ipak yo'li mamlakatlarining birinchi yig'ilishi (Samarqand, 1994-yil), Madaniy merosni asrash bo'yicha seminar (Buxoro, 1996-yil), Ipak yo'lida sayyohlikni rivojlantirish bo'yicha uchinchi yig'ilish (Buxoro, 2002-yil) singari tadbirlarni alohida ta'kidlash zarur.

2004-yili Samarqandda YUNVTO mintaqaviy bo'limining ochilishi muhim voqea bo'ldi. U Buyuk Ipak yo'li mamlakatlari milliy sayyohlik tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirishga da'vat etilgan. Mazkur bo'limda yagona axborot bazasi yaratilgan bo'lib, unda Buyuk Ipak yo'li davlatlarining diqqatga sazovor maskanlari hamda tarixiy yodgorliklari to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar jamlangan.

Jahon sayyohlik tashkilotining Bosh kotibi Taleb Rifai ishtirokida 2010-yil 8-9 – oktabrda Samarqandda bo'lib o'tgan yig'ilishi dunyo sayyohlik bozorida "Ipak yo'li" brendining yanada keng tarqalishiga yangi va sezilarli turkini berdi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi BMT Jahon sayyohlik tashkiloti bilan birgalikda "Ipak yo'li bo'yicha harakatlar rejasi"ni ishlab chiqdi va u Jahon sayyohlik tashkilotining "Ipak yo'lida sayyohlik taraqqiyoti" mavzuidagi yig'ilishida qabul qilindi.

O'zbekistonda sayyohlik sohasini rivojlantirish va takomillashtirishga bag'ishlangan turli tadbirlarning o'tkazilishiga katta ahamiyat berilmoqda. 1995-yildan buyon o'tkazib kelinadigan "Ipak yo'lida sayyohlik" yarmarkasi nafaqat O'zbekistondagi, balki butun Markaziy Osiyodagi yirik xalqaro sayyohlik anjumani hisoblanadi.

Joriy yil 2-4 – noyabrda Toshkentda o'tkaziladigan "Ipak yo'lida sayyohlik – 2011" xalqaro yarmarkasida dunyoning 25 mamlakatidan 100 ga yaqin yirik sayyohlik firma va kompaniyalari ishtirok etishlarini ma'lum qilishdi. Bu yerda mutaxassis va ekspertlar O'zbekistonning sayyohlik sohasida erishgan so'nggi yutuq va muvaffaqiyatlari, jabhadagi o'zgarishlar hamda yangi an'analar bilan tanishishlari mumkin. Mazkur tadbir doirasida mamlakatimizga sayyohlar oqimini yanada ko'paytirishning yo'llari yuzasidan o'zaro fikr almashuvlar bo'lib o'tishi barobarida yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Mamlakatimizning BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashi a'zoliciga saylangani, shubhasiz, Buyuk Ipak yo'li deya nomlangan keng mintaqada sayyohlikning rivojlanishiga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi, BMT Jahon sayyohlik tashkiloti rahbariyati organi ishiga salmoqli hissa qo'shilishi imkonini beradi hamda ushbu tashkilot tomonidan qo'yilgan yuksak maqsadlarning qo'lga kiritilishiga ko'maklashadi.

2000 yilda o'zbek olimlari buyuk ipak yo'lini qayta tiklash dasturi bo'yicha Xitoyga safar qilishdi va "Buyuk ipak yo'li haqidagi xaqiqat nomli" xujjatli fiom tayyorlashdi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun bir necha ekspeditsiya va seminarlar tashkil qilindi. O'tkazilgan o'n bir ekspiditsiya orasida: Marko Polo izidan (iyun-avgust, 1987 Stambul-

Pekin), Dengiz (1990 23.10-1991 23.02), O'rta Osiyo respublikalari bo'ylab (1991 yilda Xiva da konfrentsiya bilan yakunlangan), Ko'chmanchilar madaniyatiga sayoxat (1992 y. Iyun-avgust Mo'g'iliston), Buyuk Ipak yo'li Evropada (1995 Stambul - Lion) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari bir necha davlatlarda (Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Shri-Lanka, Yaponiya) Buyuk Ipak yo'lini o'rganish institutlari tashkil qilingan.

O'zbekitonda YUNESKOning tashabusi bilan O'rta Osiyoni o'rganish instituti (MITSIAI) ochildi. Uning bir gurux olimlari aynan ipak yo'li tarixini o'rganish bilan shug'ullanadilar. Buyuk Ipak yo'li tarixiga bag'ishlangan yakuniy konfrkntsiya 1997 yil parijda bo'lib o'tdi. Unda yangi topilmalardan iborat ko'rgazma namoyish etildi. 1998 yil Toshkentda bo'lib o'tgan yakuniy yig'ilishda O'zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimov so'zga chiqib, YUNESKO va uning a'zolariga O'rta Osiyo tarixini zrganishga qo'shgan xissalari uchun minatdorchilik bildirdi.

1. 1993 yilning may oyida Bryuselda Evrokomisiyaning tashabbusi bilan O'rta Osiyo va Kavkaz, Evropa davlatlari rahbarlari ishtirokida uchrashuv bzlib o'tdi. Uchrashuvning maqsadi mustaqil O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlarining Evropa va dunyo bilan integratsiyalashuvi masalasiga bag'ishlandi. Bryuseldagi uchrashuvda TRASEKAni (Evropa-Kavkaz-Osiyo trasport yo'lagi) tashkil etish masalasi o'rtaga tashlandi. Bu Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash yo'lidagi dastlabki amaliy qadam bo'ldi. Unda Markaziy Osiyo va boshqa davlatlar orasida o'zaro iqtisodiy hamkorlik to'g'risida shartnoma tuzildi. Unga ko'ra Tedjen-Seraxs-Mashxad temir yo'lini qurish masalasi ko'tarildi. . Birinchi marta Bryussel uchrashuvida Yevropa va Osiyoni bog'laydigan «Yevropa-Kavkaz-Osiyo» transport yo'lagi - TRASEKAni barpo etish masalasi ko'rildi va Deklaratsiya qabul qilindi. «Lazurit yo'li», keyinroq «Shoh yo'li», «Buyuk Ipak yo'li»... Bugun esa - TRASEKA. I.Karimov 1998 yil 8 sentabr kuni Ozarbayjon poytaxtida ish boshlagan Buyuk Ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan Xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Bu anjumanda jahonning 32 mamlakati hamda BMT, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etdi. 1996 yili Seraxsda Markaziy Osiyo bilan eron temir yo'l tarmoqlarning tutashtirilgani TRASEKA loyihasini amalga oshirishda dastlabki katta ishlardan biri bo'lgan edi. Xuddi o'sha, 1996 yil 13

may kuni O'zbekiston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston o'rtasida o'zaro erkin tranzit to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Buyog'i Yaponiyadan to Adriatika dengiziga qadar cho'zilgan yo'ldan foydalanishni boshlagan respublikalarning sarf-xarajati kamayadi. O'zbekiston uchun mazkur shartnoma kuchga kirgach, paxta tashishga ketadigan harajatning 12 million dollari iqtisod qilinadi. Chunki, TRASEKA shimoliy yo'nalishga nisbatan 2 ming kilometr qisqadir. O'zbekiston o'z paxtasini, Qozog'iston va Rossiya orqali Ukraina portlariga yetkazish uchun tonnasiga 100 dollardan ziyod mablag' sarflaydi. TRASEKA orqali tashilganda esa ushbu ko'rsatkich 55 dollarni tashkil etadi, xolos. Hozirga qadar jahonning 50 ta mamlakati TRASEKA yo'lagi orqali o'z yuklarini manzillariga yetkazmoqda. TRASEKA dasturini amalga oshirishda Yevropadagi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar yaqindan yordam ko'rsatyapti. Boku konferensiyasida TRASEKA loyihasini amalga oshirish bo'yicha hukumatlararo komissiyani tashkil etish, uning doimiy kotibiyatini ta'sis etish va bosh qarorgohni Bokuda joylashtirish bo'yicha o'rtaga tashlangan taklif ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi. Anjuman nihoyasida Yevropa-Kavkaz-Osiyo yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transport to'g'risidagi ko'p tomonlama Bitim imzolandi. Mazkur hujjat xalqaro yuk va yo'lovchi tashishni rivojlantirish va boshqarish transport sohasidagi huquqiy mezonlarni o'zaro muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Anjumanda Boku Deklaratsiyasi qabul qilindi. TRASEKA dasturi bo'yicha ishlarni amalga oshirish jarayonida bu dastur ishtirokchilari bo'lgan davlat orasidagi hamkorliklarni yanada kuchaytirdi.

1998 yil 8 sentyabrda Azarbayjonda bo'lib o'tgan Buyuk Ipak yo'li konfrentsiyasida Islom Karimov ishtirok etdi va O'zbekiston temir yo'ldan tashqari Andijon-O'sh-Irkishtom-Qashg'ar va Buxoro-Saraxs-Mashxad-Tehron avtomobil yo'lining qurulishida ishtirok etadigan bo'ldi. Bu yo'llar aynan ipak yo'li yo'nalishlarining davomi hamda respublikamizni dunyo bilan tashqi aloqalarini yanada rivojlanishiga katta hissa qo'shishi shubhasizdir.

Buyuk Ipak yo'li bo'ylab, sayoxat o'ilish va unda O'zbekistonning o'rnini kuchaytirish maqsadida 1995 yil 31 mayda prezident farmon chiqardi. Bu farmon "Buyuk Ipak yo'lining tiklanishi va unda O'zbekistonning sayyoxat, turizmdagi o'rnini oshirish to'g'risida" deb nomlanib, unda alohida e'tibor turizmni

rivojlantirishga qaratilgan.

Xozirda Lyulyun'gan'-Qashg'ar-Turkmanboshi-Baku-Poti-Konstantsa-Rotterdam yo'nalishi bo'ylab ham ipak yo'lini tiklashga kelishib olingan.

Buyuk Ipak yo'li asrlar davomida turli xalqlarni bir biriga yaqinlashtirish, fikr, bilim va madaniyatlar almashinuvida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarib keldi. To'g'ri, urushlar, iqtisodiy-siyosiy raqobat bu yo'lni unutilishga sabab bo'ldi. Lekin, bu yo'l Sharq va G'arb o'rtasidagi ko'prik sifatida tarixda qoldi.

#### Nazorat uchun savollar va vazifalar:

##### Savollar:

1. Qachon TRASEKAni tashkil qilish to'g'risida kelishib olindi?
2. Qaerda bo'lib o'tgan konfrentsiyada I.A.Karimov nutq so'zladi?
3. Nima sababdan Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash zarurati tug'ildi?
4. Buyuk Ipak yo'lining zamonavi tarmog'i qaerlardan o'tadi?
5. 1998 yil 8 sentyabrda qaerda konfrentsiya bo'lib o'tdi?

##### Vazifalar:

1. Xaritada BIYning bugungi kunda tiklanayotgan yo'nalishlarini ko'rsatish

#### Mustaqil ish uchun vazifalar:

1. "Marko Polo kitobi" asarining tahlili E.V.Rtveladzening BIY tarixini o'r-ganishdagi roli
2. Yu.F.Buryakovning "Qadimiy yo'llar haqidagi" asari-ning tahlili
3. Buyuk ipak yo'li – madaniyatlar aro muloqot omili

#### Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bez proshlogo net buduhego, bez sotrudnichestva net progressa G'G' Vo'stuplenie na zaklyuchitelnom zasedanii 155 sessii ispolnitelnogo Soveta YuNESKO. Sobr. Soch. v 8-mi t.t. – T.: Uzbekistan. 1996. t.4
2. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrojdennii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublikе» ot 31 maya 1995 goda.

3. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.
4. Arto'kov A. TESIS-TRASEKA: perspektivo` razvitiya. //Ekonomika i statistika. 1998. №2
5. Rtveladze E. V. V strane vikingov izuchayut nashu istoriyu. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. dekabr.
6. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
7. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskaya posobie) T.: 2002
8. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
9. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
10. Kobzeva O. P. Mark Aurel Steyn – novo'y arxeolog Shelkovogo puti. //Vestnik NUUZ. 2000 №4.
11. Taksanov A. Modelirovanie est daje v turizme. Prioritet v razvitii globalnogo proekta «Turizm na Velikom Shelkovom puti» otdan Uzbekistanu. G'G' Ekonomicheskii Vestnik Uzbekistana. 2000. №3
12. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li-hayot va taqdirlar daryosi. Moziydan sado. 2002, № 1, 44-48 bet.
13. Reimdjano'v S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
14. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
15. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.
16. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
17. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
18. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G' Vopros` istorii 1985 №9
19. Lubo-Lesnichenko E. I. Velikiy Shelkovo'y put. G'G' Vostochno'y Turkestan v drevnosti i rannem srednevekove. M.: 1988

20. Radkevich V. A. Velikiy Shelkovo'y put. – M.: 1990
21. Nasledniki Shelkovogo puti. – Shtudgard, London: 1997
22. Ierusalimskaya A. A. Velikiy Shelkovo'y put i Severno'y Kavkaz – L.: 1972
23. Na sredneaziatskix trassax Shelkovogo puti. Sb. st. T., 1990
24. Lubo-Lesnichenko E. I. Kitay na Shelkovom puti. M., 1991
25. Petrov L. M. Velikiy Shelkovo'y put. O samom prostom, no malo izvestnom – M.: 1955
26. Zelinskiy A. N. Pamir i Velikiy Shelkovo'y put NAA. 1976 №5
27. Shefer E. Zoloto'e persiki Samarkanda. – M.: 1987
28. Shteyn V. M. Ekonomicheskie i kulturno'e svyazi mejdu Kitaem i Indiy v drevnosti. M.: Nauka. 1986
29. Nikitin A. B. Xristianstvo v Sentralnoy Azii (drevnost i srednevekove) //Vostochno'y Turkestan i Srednyaya Aziya. M.: 1984
30. Staviskiy B. Ya. Velikiy Shelkovo'y put. G'G' Mejdunarodno'y ejegodnik. – Sankt Peterburg: 1997

## XULOSA

So'nggi chorak asr davomida jahon miqyosida buyuk ipak yo'li mavzusiga qiziqish o'sib bormoqda. Bu, albatta, bevosita zamon talablari bilan bog'liq. Zero, dunyoda iqtisodning globallashuvi jarayoni avj olib ketayotgan ayni paytda barcha katta-kichik mamlakatlar jahon bozorlariga shu darajada bog'lanib qolganki, bularsiz iqtisodiy rivojlanishni tavavvur etish qiyin. Bu bog'lanishni mamlakatlararo o'tgan yo'lsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu jihatdan ko'pgina mamlakatlar Buyuk ipak yo'liga ozmi-ko'pmi aloqador. Ayniqsa, dengiz bilan bevosita birona yo'l orqali bog'lanmagan O'zbekiston uchun Buyuk ipak yo'li nihoyatda ahamiyatli. Bu-rivojlanishning asosiy talablaridan biri.

Buyuk ipak yo'lining amaliy ahamiyati oshgan sari olimlar va mutaxassislar mazkur yo'lining o'tmishiga, bugungi holatiga va kelajagiga oid barcha masalalarga qayta-qayta murojaat qilmoqdalar.

Xitoy bilan G'arb o'rtasidagi ipak yo'li va iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixida saklar, xunlar, sug'diylar, eftaliylar, turklar va uyg'urlarning qo'shgan hissasi nihoyatda katta bo'lgan. Saklar Yevrosiyo shimoliy savdo yo'lini – yaylovlararo o'tgan ipak yo'lini ilk bor ochgan xalq hisoblansa, sug'diylar miloddan avvalgi V asrlardan boshlab to milodiy X asrgacha bo'lgan 1500 yillik davr davomida ipak yo'li orqali amalga oshirilgan aloqalarni rivojlantirishda g'oyat ulkan hissa qo'shgan.

Buyuk ipak yo'li nafaqat savdo, balki diplomatiya va madaniy munosabatlar yo'lidir. Turli davrlarda mazkur yo'l orqali xitoy elchilari va budda rohiblari dastlab Turkiston shaharlariga kelgan, so'ngra boshqa mamlakatlarga borgna. G'arb elchilari va missionerlari Turkiston mintaqasi orqali Xitoyga, Koreya va Yaponiyaga yo'l olgan. VIII asrdan boshlab ushbu yo'ldan islom targ'ibotchilari Sharqqa qarab yurgan.

Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Szyanning farg'onaga borishi bilan xitoylar uchun Markaziy osiyo davlatlariga boradigan yo'l ochildi. Mazkur elchigacha bo'lgan uzoq vaqt davomida esa Qadimgi Xitoy bilan G'arbiy osiyo va Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalariga, asosan, Markaziy Osiyo xalqlari vositachilik qilgan.

1987 yilda YuNESKO madaniy taarqqiyot bo'yicha BMT ning umumjahon dekadasi doirasida "Ipak yo'li-muloqot yo'li" halqaro dasturini qabul qildi. Bu dastur markaziy osil xalqlari yuoy madaniy tarixini keng qamrovda tadqiq etishni anzarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi- Sharq bilan G'arb o'rtasida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'rnatish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashdan iborat edi.

O'zbekistonda Buyuk ipak yo'lini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda. 1995 yil 2 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu asosda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi "Ipak yo'li" o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200dan oshiq yo'nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab o'tadi.

Bugungi kunda qadimiy karvon yo'lida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarni tiklash va rivojlantirish uchun halqaro hamkorlik dasturi asosida bor imkoniyatlardan foydalanilmoqda.

## GLOSSARIY

"**AVESTO**" - o'rta fors tilida "Apastak" "Asos" deb tarjima qilinadi. Urta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzaminhududlarida shakllangan qadimiy din-zardushtiylikning muqaddaskitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqaxalqlarning ibtidoiy va qadimiy tasavvurlari, koinot va erdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Fanda zardushtiylik va uning muqaddas kitobi "Avesto" paydo bo'lgan hudud Midiya deb hisoblovchi "g'arbiy" nazariya va bu ta'limotning beshigi Baqtriya, Sug'diyona, Farg'onadan iboratdir deb tasdiqlovchi "sharqiy" nazariya mavjud. Zardushtiylikni Xorazm bilan bog'lovchi nazariyaning ilmiy adabiyotda juda ko'p tarafdorlari bor. "Avesto"da zardushtiylikning muqaddas olovi - "azar-xurra" birinchi marta yoqilgan mamlakat, hamda Axuramazda Zardushtga namoyon bo'lgan mamlakat sifatida "Aryonam vayjo" eslatiladiki, "Avesto"da keltirilgan geografik-iqlimiy sharoitlar ko'proq Xorazmga mos keladi. Shuningdek, "Avesto"da Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o'tilgan. Birinchi o'rinda "Aryonam-vayjo" (Xorazm) turib, "Go'zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi" deyiladi. Keyin "Odamlarga va chorvaga boy Gava (Sug'd)", "Qudratli va muqaddas Mouru (Marg'iyona)", "Bayroqlari baland ko'tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)" ta'riflanadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, "Avesto" vatani Markaziy Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin."Avesto" dastlab 21 kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan bo'lib, bu qadimgi qismlar Yasna, Visparat, Yasht va Videvdat deb nomlanadi.

**AUREUS**- (lot. Oltin)- oltin rim tangasi, zarb etilishiga Yuliy Sezar asos solgan. Imperator Avgust davrida joriy ravishda zarb etilgan. Og'irligi 8.19g., keyinchalik 5,5.g. tashkil etgan.

**AVLIYOOTA** - Qozog'istondagi Tarozi shahrining 1938 yilgacha

bo'lgan nomi.

**ALAF PULI** - Urta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bog' va uzumzor egalaridan davlat hisobiga olinadigan soliq.

**ALEKSANDRIYA** - Aleksandar Makedonskiyning Sharqqa yurishlari oqibatida bosib olingan hududlarda barpo etilgan shaharlar. Aleksandriya nomidagi shahar Sharqning bir qancha mamlakatlarida mavjud bo'lib, ular qadimda Aleksandriya (Misrda), Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Turkmanistonda), Oks Aleksandriyasi, Aleksandriya Ariya (Eronda) deb nomlangan.

**ALEKSANDRIYA ESXATA** - olimlarning aytishicha, Bekobod bilan Xo'jand o'rtasida - Yaksart (Sirdaryo) bo'yida Aleksandr tomonidan qurilgan shahar. Bu shahar Sirdaryoning narigi tomonidagi ko'chmanchi jangovar sak qabilalari hujumiga qarshi tayanch istehkom sifatida qisqa muddatda (17 kunda) qurib bitkaziladi. Uning devori uzunligi 60 stadiy bo'lgan. (Stadiy yunon uzunlik o'lchov birligi bo'lib, 1 stadiy - 185 metrga teng)

**AXSIKAT** - qadimgi shahar xarobasi. Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahad qishlog'i hududida joylashgan. Axsikat shahri mil.avv. Sh-P asrlarda vujudga kelgan. IX-X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. 1219 yilda mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan. Axsikatning eski o'rnidan 5-7 km g'arbda bunyod etilgan yangi shahar - Axi XIU-XUP asrlarga oiddir.

**AXURAMAZDA** - zardushtiylik dining bosh xudosi, ezgulik xudosi, insonga doimo yaxshilikni ravo ko'ruvchi ilohiy kuch.

**BANOKAT**, Sharqiya, Shohruhiya - Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi karvon yo'li yoqasida joylashgan qadimiy shahar xarobasi (I-XUSH a.). Tadqiqotlarga ko'ra, dastlab (I a.) uning mudofaa devorlari bo'lmay, atrofdagi daryo va jarliklar tabiiy mudofaa vazifasini bajargan. Ilk o'rta asrlar (U-U1 a.)da burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. XP-XSh asr boshlarida shahar yanada kengaygan. Mo'gullar istilosi davrida Banokat vayron bo'lgan. 1392 yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o'g'li Shohrux sharafiga Shohruhiya deb atagan. Uzaro urushlar oqibatida XVIII asr boshlarida vayron bo'lgan.

**BAQTRA** - qadimgi shahar. Baqtriyaning markazi, Afg'onistondagi Vazirobod (Balx) shahri yaqinida joylashgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan ma'lum. Rivoyatlarga ko'ra, zardushtiylik tarqalgan joy, keyinchalik kushonlar saltanati

davrida Markaziy Osiyoda buddizmning yirik markazlaridan biri bo'lgan.

**BAQTRIYA** - geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlari kirgan. Baqtriya Eroncha "boxtar" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "quyosh chiqadigan o'lka" demakdir. Mazkur hudud qadimgi yunon

muarrixlari asarlarida Baqtriana, Baqtriya deb atalgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida turkiy qabila - toharlar keng yoyilishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

**BAQTRIYA YOZUVI** - miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunoncha bo'lgan. So'ng miloddan avvalgi Sh-P asrlar chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib Baqtriya yozuvi ishlab chiqiladi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya yozuvi namunalari va so'zlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari asosan miloddan avvalgi I asr va milodiy I asrlarga taalluqli bo'lib, baqtriya tili va yozuvi

**BOTMON** - Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda qadimgi davrda va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchov birligi. Turli davrlarda turli joylarda botmonning miqdori o'zgarib turgan. Masalan: XIU-XU asrlarda u taxminan 20 kg ga teng bo'lgan. XIX asrda botmon Xivada 20,16 kg dan 40,95 kg, Farg'onada 131,44 kg dan 163,800 kg gacha, Toshkentda 171,99 kg ga teng bo'lgan.

Urta Osiyoda botmon, shuningdek yer o'lchovi sifatida ham qo'llanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Bu taxminan bir gektarga teng o'lchov birligi bo'lgan.

**BOXTAR** - Afg'onistondagi Balx shahrining qadimgi nomlaridan biri.

**GAZ** - Sharq mamlakatlarida barmoq uchidan yelkagacha (taxminan 62 sm dan - 91 sm ga teng) bo'lgan uzunlik o'lchov birligi.

**GIRKAN DENGIZI** - tarixiy manbalarda Kaspiy dengizining qadimgi nomi. O'rta asrlarda esa Jurjon, Harkon dengizi deb yuritilgan. Dengizning janubiy sohillaridagi tarixiy viloyat esa Girkaniya (Jurjoniya) deb atalgan.

**GIRKANIYA** ("Avesto"da - Vrakana, o'rta asrlardagi nomi - Jurjon) - qadimgi tarixiy-madaniy viloyat. Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy sohilida, hozirgi Eronning shimoli va Turkmanistonning janubiy-g'arbiy

qismida joylashgan. Ko'pchilik tadqiqotchilar ushbu atama eroncha \tš - bo'ri so'zidan olingan deb hisoblaydilar. Gekatompil shahri mazkur viloyatning markazi bo'lgan.

**DABIRISTON** - 1) Podsholik huzuridagi mirzaxona. Bu yerda maxsus kotiblar, ya'ni dabirlar tomonidan davlat maktubi, xujjatlari tuzilgan va tahrir qilingan; 2) Urta asrlar davrida Movarounnahr shaharlaridagi eski maktab. Bunday maktablarda bolalar ozmi-ko'pmi dunyoviy fanlardan umumiy ma'lumot olishgan. Odatda mashhur shoirlarning devonlarini o'qib chiqishgan, yozish va hisoblashni o'rganganlar.

**DABUSIYA** - Samarqand va Buxoro oralig'ida joylashgan qo'rg'on (qal'a) lardan biri.

**DAVAN** (xit. "da-yuan" - tog'lar orasidagi vodi) - Farg'ona vodiysidagi qadimgi davlat. Mazkur davlat mil.avv. III asrdan milodiy II asrgacha hukmronlik qilgan. Mil.avv. P-I asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat - Davan haqida malumotlar keltiriladi. Davan shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushan (hoz. O'zgan shahri deb taxmin qilinadi) bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda milodiy III asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga "Boxan" va "Polona" (mil.U a.) atamaları uchraydi.

Mil.avv. II asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra Davan aholisi 300 ming kishini tashkil etgan. Davanliklar savdo-sotiq ishlarida mohirliklari bilan nom chiqarishgan. Davanda yetishtiriladigan "samoviy otlar" - Sharqda mashhur bo'lgan. "Samoviy otlar" uchun miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy askarlari Davanga ikki marta yurish qilib Ershi shahrini qamal

**DASHTI QIPCHOQ** - Sirdaryoning quyi oqimi hamda Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan xududlarning XI-XUI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun shunday nom olgan.

**DIZAK** - (sug'd. - kichik qal'a) - Jizzax shahrining o'rta asr tarixiy manbalaridagi nomi. X asrda Dizak Faknon rustoqining tekislikda joylashgan shahri bo'lib, Ustrushonaning Panjikent va Zomindan keyingi uchinchi shahri bo'lgan. Dizak shimoldagi ko'chmanchi qabilalarga qarshi kurashuvchi islom g'oziyolari

to'planadigan yer sifatida mashhur bo'lib, ular uchun bu yerda ko'plab **DINOR** - bir misqol, ya'ni 4,8 gr (ba'zi manbalarda 4,235 gr) og'irlikda so'qilgan oltin tanga.

**YETTISUV** - tarixiy-geografik viloyat. Hozirgi Qozog'iston Respublikasining janubiy-sharqi, Balxash va Issiqko'l oralig'idagi hudud. Tyanshan va Oloy tog' tizmalaridan boshlanib, Balxash ko'liga quyiladigan yettita daryo (Ili, Qoratol, Biyon, Oqsuv, Lepsa, Baskon, Sarkand)ning havzasi bo'lganligi uchun shunday nom olgan. Yettisuvda saklar, keyinchalik usunlar yashaganlar. Yettisuv o'lkasi ko'chmanchi turkiy qabilalarning azaliy yurti hisoblanib, Chig'atoy ulusining markazi ham Yettisuv bo'lgan. XVI asrda Yettisuvda qozoqlarning Katta juzi tashkil topgan. XIX asrning o'rtalarida Rossiya tomonidan bosib olingan.

**ILOQ**, Eloq - tarixiy viloyat. Hozirgi Toshkent viloyatining janubi, Ohangaron daryosi havzalariga to'g'ri keladi. V asrdan mustaqil davlat sifatida ma'lum. Iloq hukmdorlari "Iloq dehqonlari" unvoni bilan yuritilib, katta iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lishgan. VI-VII asrlarda Chochga qo'shilgan. Iloq nomi XIV asrdan manbalarda uchramaydi. Iloqning poytaxti Tunkat shahri bo'lgan.

**IXSHIDLAR** - 1) ilk o'rta asrlarda (U-USh a.) Sug'd va Farg'ona hukmdorlari unvoni. Ilk o'rta asrlarda Movarounnahr hududlari 15 dan ortiq mayda hokimliklarga bo'linib ketgan edi. Ular ichida Sug'd ixshidlari eng qudratlisi sanalgan. Samarqand shahri ularning poytaxti bo'lgan; 2) 935-969 yillarda Suriya va Misrda hukmronlik qilgan Arab xalifaligidan yarim mustaqil bo'lgan sulola vakillarining unvoni.

**ICHAN QAL'A** - Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrining ichki qal'asi; Shahrison. Ichan qal'ada xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Uning umumiy maydoni 26 gektar. Devorining uzunligi 2200 metr. Tashqi shahardan Ichan qal'aga 4 ta darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Ota darvoza, Tosh darvoza) orqali kirilgan.

1961 yilda Ichan qal'a ansambli me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan. 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. 1997 yilda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan asosiy yo'nalishdagi yodgorliklar qayta ta'mirlandi.

**IQTO'** - o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlari evaziga in'om qilingan chek yer. Odatda iqto' umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtda



qaytarib olib, boshqa birovga berishi mumkin bo'lgan.

**"YIG'IM SOLIQ"** - Qo'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq-zakot turi. U zakot to'lamaydigan boylar va ular qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlaridan iborat bo'lgan.

**MIYOŃQOL**, Miyonkol - O'zbekistondagi Okdaryo va Qoradaryo oralig'idagi joy. Qadimda Samarqand Sug'di, Nim Sug'd (yarim Sug'd), Sug'di Xurd (kichik Sug'd) nomlari bilan mashhur bo'lgan. Miyonqol dehqonchilik uchun qulay bo'lib, Xatirchi, Payshanba, Qal'ai Dabus va boshqa shahar va qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik Zarafshon vodiysining Samarqand bilan Xatirchi oralig'idagi yerlari Miyonqol deb atalgan.

**MISSIONERLIK**, tabshir, mubashshirlik - biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Missionerlik, asosan, xristian diniga xos bo'lib, IV asrda paydo bo'lgan. Missionerlik faoliyati oqibatida Urta Osiyo hududida ham ilk o'rta asrlar (U-USh a.)da xristianlik keng yoyilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga ko'ra O'zbekistonda har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

**MOL** - Temuriylar davrida va keyinchalik o'zbek xonliklari davrida dehqonlardan olinadigan yer solig'i - xiroj. XU1-XUSh asr yozma manbalarida bu soliq turi "molijihot" yoki "mol va jihot" deb ham yuritilib, asosan maxsulot tarzida hosilning 1/3 qismi hajmida to'langan. Ammo ba'zi bir paytlar vaziyatga qarab hosilning 1/4, 1/5, 1/2 miqdorida ham undirilgan.

**MOLI OMON**, omon puli - o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-taroj qilingan yoki aholidan uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

**KEPAKI**, kabakiy - Chig'atoy xonlaridan Kebekxon (1318-1326) chiqargan kumush tanga. Bir dinor kepaki ikki misqol kumushga yoki olti dirhamga teng bo'lgan. Kepakiy Temuriylar davrida ham muomalada keng foydalanilgan. Kepakxonga qadar mo'g'ul davlatlarida pul birligi bolish hisoblangan.

**KO'HNA URGANCH** - hozirda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatidagi shahar. Toshhovuz shahridan 105 km shimoliy-garbida joylashgan. Asl nomi Gurganj, arab geograflari asarlarida Jurjoniya deb tilga olinadi. Mil.avv. I asr Xitoy manbalarida Yue-Gan yoki Yue-Szyan

shaklida qayd qilingan. Ko'hna Urganch X-XIU asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo'lib, Xorazm va Movarounnahrda eng katta shaharlardan biri bo'lgan. XV-XVI asrlarda Amudaryo suv rejimining o'zgarishi munosabati bilan shaharning madaniy va iqtisodiy rivojlanishida bir oz turg'unlik ro'y beradi. 1646 yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon (1643-1664) hozirgi Urganch shahriga asos soladi. Shundan keyin qadimgi shaharning nomi Ko'hna Urganch bo'lib qoladi.

**MAYMURG'** (sug'd. "mayn" - qishloq, murg' - o'tloq, sero'tloq qishloq) -Samarqanddan janubiy sharqda joylashgan, qadimgi sug'diyonaning mulki -rustoq. Markazi hozirgi Quldortepa shahar xarobasi o'mida joylashgan. IV-X asrlarda Sug'd tarkibida bo'lgan. Dastlab Maymurg' tarkibiga Panjikent ham kirgan, lekin VII asrda u mustaqil mulk sifatida ajralib chiqqan. Ilk o'rta asrlarda Maymurg'ning nihoyatda ahamiyatli ekanligi uning hududida Samarqand vohasining asosiy sug'orish tizimlari boshlangan to'g'on -Varagsarning joylashganligi edi. Maymurg'ni hokim emas, sug'd hukmdorlari xonadoniga mansub shahar boshlig'i idora qilgan.

**MANN** - 1) qadimda amal qilgan og'irlik o'lchov birligi. Uning mikdori turli davrlarda 1,255 kg dan 25,6 kg gacha o'zgarib turgan; 2) qadimgi yuza o'lchov birligi, mamlakatimizda ekin maydonlarini o'lchashda qo'llanilgan; qiymatlari ham har xil. Masalan, XIV asrda Buxoroda bitta to'ppiga sig'adigan bug'doy (4,32 kg) ekiladigan maydon 1 mann hisoblangan. Demak, to'ppi manni 4.32 kg don ekiladigan maydonni ifodalagan. Og'irlik o'lchovi mannning qiymati har xil bo'lganligi uchun ularga mos keladigan maydonlar ham har xil bo'lgan.

**NASAF**, Naxshab - Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimi bo'ilarida joylashgan o'rta asr shahri va viloyati nomi. Qarshi shahridan 8 km shimoliy-g'arbdagi Shulluktepa shahar xarobasi o'mida bo'lgan. VII-VIII asrlarda Nasaf mahalliy hokimlari mis tangalar (fals) zarb qildira boshlaganlar. Arablar istilosidan so'ng Nasaf viloyatining ma'muriy markazi bo'lib, bu davrda mudofaa devorlari bilan o'ralgan mustahkam shaharga aylangan. XIV asrda Nasaf Qarshi nomini olgan.

**NISHOPUR** - Mashhaddan g'arbda, shimoliy-sharqiy Eronning yirik shaharlaridan biri. Tohiriylar davlatining (821-873) poytaxti, shuningdek IX-XSh asrning birinchi choragida Xurosonning markaziy shahri. Uch marta 1153 yili ko'chmanchi o'g'uzlar, 1221 yili mo'g'ullar talofati va 1250 yilgi qattiq zilzila oqibatida tamoman vayron bo'lgan. Yangi Nishopur eski Nishopurning g'arbiy tarafida

barpo qilingan.

**PAIZA**, paydza, (mo'g'. - yorliq) - Chingizxon Yasasiga binoan joriy etilgan yorliq, buyruq. Payzaga xonning buyruqlari yozilgan va ular noib yoki elchiga cheksiz vakolat huquqini bergan. Payza, shuningdek, xonlar tomonidan o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga ham berilgan. Oltin, kumush, jez va yog'ochga ma'lum bir imtiyozlar bitilgan bu yorliqqa ega bo'lgan kishilar aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega bo'lganlar. Payzaning darajasiga qarab unga qush yoki hayvon rasmi solingan. Eng oliy darajadagi payza yuziga yo'lbars surati tushirilgan. Payzaga ega shaxslar talanish yoki jazolanishdan mustasno bo'lganlar.

**PUD** (rus.) - og'irlik o'lchov birligi. 1 pud 16 kilogrammga teng. Ba'zan shevalarda put deb ham ishlatilgan.

**RABOT** (ar. - musofirxona, karvonsaroy) - Urta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tuzilishi to'rtburchak shaklida, devorlarida mineralari bo'lgan. Dastlab islom dini tarqala boshlagan davrda g'oziy'larga mo'ljallab qurilgan maxsus bino. Urta Osiyoda USh-X asrlarda ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlar chegarasida ko'plab rabotlar kurilgan. Ularning eng mashhuri Raboti Malikdir. Keyinchalik rabot faqat qo'rg'on, istehkom ma'nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. Zohidlar ham maxsus rabotlarda yashaganlar. Rabotlar XI-XP asrlarda Urta Osiyo shaharlarining mustahkam qismiga aylangan. XIII asr boshlarida mo'g'ullar istilosi natijasida ko'plab shaharlarning arki va shahristoni xarobaga aylangan bo'lsa-da, rabotlarda hayot davom etgan.

**RAY**, Rey, Raga (qadimgi Raga) - Eronning poytaxti Tehrondan 8 km shimoliy-sharqda joylashgan, qadimiy shahar, mo'g'ullar tarafidan 1220 yili vayron etilgan.

**SARROF** (ar. - pul almashtiruvchi, yirik pullarni mayda kiluvchi) - o'rta asr shahar ko'chalari va rastalarida o'tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlarning bahosini aniqlash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyumlarini ma'lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug'ullanganlar.

**SATRAPIYA**, satraplik - Ahmoniylar, Salavkiylar, Parfiya va Sosoniylar davlatlarida satrap boshchiligidagi harbiy-ma'muriy okrug,

viloyat. Satrapliklarga satrap (hokim)lardan tashqari harbiy boshliqlar ham tayinlangan. Hozirgi Urta Osiyo hududlarida ham o'sha davrda alohida satrapliklar tashkil etilgan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to'lashga majbur bo'lgan.

**STATER-** (yunon. tarozi pallgi, tarozi), ilk bor qadimgi yunon o'lchov birligi, keyin kumush, oltindan zarb etilgan tangalar nomi. Stater og'irligi 12-12 g bo'lgan.

**SUG'D YoZUVI** - qadimgi Sug'diyona aholisi tomonidan yaratilgan yozuv bo'lib, u oromiy alifbosi asosida miloddan avvalgi Sh-P asrlarda paydo bo'lgan. Milodiy 1-1U asrlardan boshlab, sug'd yozuvlari Sug'd hududlaridan tashqari, Farg'ona vodiysida, Toshkent vohasida va Yettisuvda keng tarqalgan. Bu jarayon sug'diylarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning Buyuk Ipak yo'lidagi harakatlari bilan bog'liq. Shuning uchun ham sug'd tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'iliston hududlaridan topilgan. Eramiz boshlaridan to XI asrning birinchi choragiga qadar yozilgan ko'plab noyob yozma yodgorliklar sug'd yozuvi orqali bizga yetib kelgan.

Sug'd yozuvi qadimgi uyg'ur, mug'ul, manjur va qadimgi turk yozuvlarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Arablar istilosi natijasida O'rta Osiyoga arab tili va yozuvining kirib kelishi sug'd tili va yozuvini asta-sekin muomaladan chiqardi. Hozirda sug'd tili o'lik tilga aylangan bo'lsada, o'zbek tilida qadimgi sug'dcha so'z va iboralar saqlanib qolgan.

**SUG'ISH SOLIG'I** - har bir ko'chmanchining o'z xo'jayiniga so'yib berishi kerak bo'lgan soliq.

**TALANT** - qadimgi Yunoniston, Misr, Mesopotamiya, Suriya va Eronda ishlatilgan og'irlik va yirik pul o'lchov birligi bo'lib, 1 talant 6 000 dirhamga teng bo'lgan. Og'irlik o'lchov birligi sifatida talantning mikdori turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda 1 talant 26.2 kg bo'lsa, Eronda 1 talant 33,655 kg ga to'g'ri kelgan.

**TAMG'A** - 1) turk-mo'g'ul chorvador qabilalarida xususiy mulkning keng tarqalgan belgisi. Daraxtlarga, qurol-yarog'larga, hayvon terisiga va b.ga qo'yilgan. Mas, chorvachilikda qoramol, otlarga, qo'ylarga bosiladigan maxsus belgi. Uning bir necha usullari mavjud (molning kulog'iga en solish, qirqish, raqamli sirg'alar osish, quymichiga belgini qizdirib bosish va h.k.). 2) Urta Osiy, Kavkazorti, Yaqin va Urta

Sharqning ayrim mamlakatlarida va XIII asrdagi mo'g'ullar istilosidan so'ng savdo, hunarmandchilik, turli kasb-xunarlardan pul bilan olinadigan soliq. Tamg'a XVI asrning 70-yillariga qadar mavjud bo'lgan Eronda 1565 yilda bekor qilingan.

**TANOB** (ar. - chilvir, arqon) - yer o'lchash, uzunlik o'lchash, chiziq tortish va sh.k.larda ishlatiladigan uzun ip; 1) Urta Osiyoda qo'llanilgan uzunlik o'lchov birligi. XVII asrda qiymati 39,9 m ga teng bo'lgan; 2) O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza birligi.

Tomonlari 60 gaz dan iborat bo'lgan maydonga teng. 1 tanob-3600 metr kv. 12 tanob-1 ga yer maydonini tashkil etadi.

**"TUTUN HAQI"** - Ko'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq-zakot turi. Bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq.

**USTRUSHONA** - Sug'dning sharqiy tomonida joylashgan ilk o'rta asrlardagi tarixiy viloyat. Ushbu viloyatning g'arbiy qismini Uzbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi esa Tojikistonning Sug'd viloyati hududlariga to'g'ri keladi. Ilk o'rta asrlarda Ustrushona viloyati 18 ta tuman (rustak)dan tashkil topgan bo'lib, ular tepasida turgan hukmdorlar afshinlar deb atalgan. Dastlab Ustrushona nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. Bunga ko'ra Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi. Arab geograflarining xabarlariga qaraganda, Ustrushonaning bosh shahri Bunjikat (hozirgi Shahrison) bo'lgan. Ustrushona dastlab eftaliylar, so'ngra VI asrning ikkinchi yarmidan Turk hoqonligi tasarrufiga kiritilgan.

**UShR**, ashur, ashar (ar.) - 1) o'ndan bir ulush; 2) musulmon mamlakatlarida natura (ba'zan pul) shaklida daromadning o'ndan bir qismida undirilgan soliq turi. Ushr solig'i har yili dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik mahsulotlari va boshqalardan olingan. Ushr olingan yer-suv "mulki ushuriya" deb atalgan.

Turli davrlarda ushr shakli mahalliy shart-sharoitga ko'ra o'zgarib turgan. Eron, Buxoro amirligida ushr - "dahyak" deb yuritilgan. Urta Osiyoda bu soliq turi XX asr boshigacha bo'lgan.

## TEST SAVOLLARI

**1. Buyuk ipak yo'li bo'ylab ilk bor savdo karvoni qachon yo'lga chiqqan?**

- A. mil avv 138-yili
- B. mil avv 128 yili
- S. mil avv 126 yili
- D. mil avv 124 yili

**2. Buyuk ipak yo'li bo'ylab qaysi xududlardan Old Osiyo mamlakatlariga aqiq toshlar keltirilgan?**

- A. Xorazm va Margiyona
- B. So'g'diyona va Baqtriya
- S. Xorazm va So'g'diyona
- D. Baqtriya va Marg'iyona

**3. Buyuk ipak yo'li asosiy tarmoqlari nechtaga bo'lingan?**

- A. 3 ga
- B. 2 ga
- S. 4 ga
- D. 1 ga

**4. Buyuk ipak yo'lining markaziy tarmogi qanday nomlanadi?**

- A. Bo'stonlik
- B. Yoyloq
- S. Kumal
- D. Oqsu

**5. Buyuk ipak yo'lini dastlab kim "Ipak yo'li" deb nomlagan?**

- A. Ferdinand Rixtgofer
- B. Axmad Doni Xasan
- S. Tuxliev
- D. Marko Polo

**6. Buyuk ipak yo'lining qaysi tarmogi Xo'tan va Yorkent**

shaxarlarini SHimoliy Xitoy mintaqalari bilan boglar edi?

A."Kumush yo'l"

B."Lazurit yo'l"

S."Nefrit yo'l"

D."Ayik yo'l"

7. Buyuk ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarida foydalanilgan aqiq toshlari qaerdan qazib olingan?

A. Baqtriya

B. Marg'iyona

S. So'g'diyona

D. Xorazm

8. Buyuk ipak yo'li Xitoyning qaysi shaxridan boshlangan?

A. Sian

B. Tarim

S. Oksu

D. Kumul

9. Buyuk ipak yo'li bo'ylab savdo aloqalarida savdogarlar eng ko'p qaysi yo'l o'lehov birligidan foydalangan ?

A. CHakirim

B. milya

S. kogoch

D. Farsax

10. Buyuk ipak yo'li tarmoklaridan biri "Kumush yo'li" qachon ishga tushgan?

A. mil avv II asr

B. mil avv IV asr

S. mil avv VI asr

D. mil avv V asr

11. Quyidagi shaxarlardan Buyuk ipak yo'li bo'ylab o'tgan yo'llardan 7 tasi xaqida ma'lumot bergan shaxsni aniqlang.

A. Marko Polo

B. Antoniy Jenkinson

S. Moxanlal

D. Rixtgofen

12. Arxeolog olim A.R. Muxammadjonovning fikricha Buyuk ipak yo'li qaysi shaxardan boshlanib qaergacha davom etgan. ?

A. CHanyandan Venetsiyagacha

B. Siandan Konstantipolgacha

S. CHanyandan Konstantinopolgacha

Ye. Dunxundan Venetsiyagacha

13. "Buyuk ipak yo'li" atamasi ilk bor kaysi asarda ilmiy atama sifatida ishlatilgan?

A. Marko Poloning esdaliklarida

B. F. Rixtgofenning "Xitoy" nomli asarida

S. Arab sayoxatchisi Axmad ibn Fadlan kundaliklarida

D. Fransuz sayoxatchisi Jozef Marten esdaliklarida.

14. Nechanchi asrda Buyuk ipak yo'li orkali Markaziy va SHarkiy Osiyo xududlariga nasriniylik dini kirib keldi?

A. mil avv II asrlarda

B. mil avv I-milodiy I asrda

S. milodiy I asrlarda

D. milodiy II-III asrlarda.

15. Ingliz sayyoxi Jenkinson Ipak yo'li bo'ylab o'tgan yo'llarining nechtasi xaqida ma'lumot bergan?

A. 5

B. 8

S. 6

D. 7

16. A. Muxammadjonovning ma'lumotiga ko'ra, Buyuk ipak yo'lining masofasi qancha bo'lgan?

A. 6000 km

B. 13000 km

S. 9000 km

D. 15000km

17. Buyuk ipak yo'lidagi mashxur karvonsaroylarni ko'rsating.

A. Raboti mashx Dol xotin Xasan Tugana

B. Raboti jangarband Karmana Kashg'ar

S. O'zgan, Kobul Mashxad

D. Niso Saraxs Xirot Kesh

18. XIII-XIV asrda Xitoyga borgan kaysi sayyox bosib o'tgan karvon yo'lini "Buyuk ipak yo'li" deb nomlaydi?

A. Ibn Battuta

B. Marko Polo

S. Rixtgofen

D. Aurel Steyn

**19. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Pomir tog'larida boshlanib Erondan Old Osiyo va Misrgacha o'tgan kadimiy yo'l?**

- A. kumush yo'l
- B. Oltin yo'l
- S. la'l yo'l
- D. SHox yo'l

**20. Qadimda qanday savdo yo'llari mavjud edi?**

- A. La'l yo'li, SHoh yo'li, nefrit yo'li
- V. Oltin va Kumush yo'llari, feruza yo'li
- S. Saxro yo'li, uyg'ur yo'li
- D. Barcha javob to'g'ri

**21. "Sahro yo'li" qaysi hududlarni o'zaro bog'lagan?**

- A. Qora dengiz bo'ylarini Buxoro bilan
- V. O'rtaer dengizi bo'ylarini Xitoy bilan
- S. Qora dengiz va Azov dengizi bo'ylarini Markaziy Osiyo bilan
- D. To'g'ri javob yo'q

**22. Vizantiyaga ipakchilik sanoati qachon kirib keldi?**

- A. Mil V asrda
- V. Mil. VII asrda
- S. Mil. VI asrning ikkinchi yarmida
- D. Mil. VIII asrda

**23. Nefrit yo'li qaysi hududlardan o'tgan?**

- A. SHarqiy Turkistondan Buxorogacha
- V. Xo'ton va Yorkenddan SHimoliy Xitoygacha
- S. Xo'tondan Marvgacha
- D. Xitoydan Markaziy osiyogacha

**24. Sug'diylar qaysi hududlarda o'zlarining savdo qishloqlarini borpo etgan?**

- A. Yettisuvda
- V. Xitoy va SHarqiy Turkistonda
- S. SHarqiy turkiston, Yettisuv, Mo'g'ulistonda
- D. To'g'ri javob yo'q

**25. Markaziy Osiyoni ziyorat qilgan Xitoy rohiblarini bilasizmi?**

- A. CHju Sishing
- V. Fa Syang
- S. Sung Yun, Vu King
- D. Barcha javob to'g'ri

**26. CHoyning vatani qaysi mamlakat hisoblanadi?**

- A. Xitoy
- V. Yaponiya
- S. Xindiston
- D. Indoneziya

**27. "Yalavoch" so'zining ma'nosi?**

- A. Vositachi
- V. Elchi
- S. Savdogar
- D. Maxsulot yetkazib beruvchi

**28. Aleksandr makedonskiyga elchilarini yuborgan O'rta Osiyo hukmdori kim edi?**

- A. Sug'd podshosi G'urak
- V. Xorazm hukmdori Farasman
- S. Baqtriya hukmdori Oksiart
- D. To'g'ri javob yo'q

**29. Imperator Tay U O'rta osiyoga maslahatchi amaldorlaridan kimlarni elchi qilib yuborgan?**

- A. Dun Van va Gao Minni
- V. CHao Veyni va Gao Minni
- S. Ban CHaoni va CHao Veyni
- D. Gan In va Dun Vanni

**30. Yuliy Sezar zarb ettirgna oltin tangalarning nomini toping?**

- A. Tetrodraxma
- V. aureus
- S. stater
- D. dinor

**31. Xitoyda o'tkazilgan «BIY bo'ylab « ilmiy ekspedisiyasi qachon bo'lib o'tdi?**

- A. 2002 yil
- V. 2005 yil
- S. 2000 yil
- D. 2001 yil

**32. "Ipak yo'li-muloqot yo'li" xalqaro dasturi qachon qabul qilingan?**

- A. 1988 yi
- V. 1999 yil
- S. 1987 yil
- D. 1996 yil

**33. O'zR Prezidenti I.Karimovning BIYni tiklashda O'zbekistonning ishtirokini kengaytirish va rivojlantirish borasidagi farmoni qachon qabul qilindi?**

- A. 1995 yil 31 may
- V. 1995 yil 30 may
- S. 1995 yil 21 may
- D. 1996 yil 30 may

**34. Toshkent-Andijon-O'sh-Qashqar avtomobil yo'lining uzunligini aniqlang?**

- A. 900 km
- V. 940 km
- S. 1040 km
- D. 980 km

**35. Qozog'iston-Xitoy temir yo'li qachon yo'lga qo'yildi?**

- A. 1995 yil
- V. 1991 yil
- S. 1992 yil
- D. 1993 yil

**36. Yevropa-Osiyo transkontinental avtomobil yo'lining O'zbekistondan o'tadigan qismini ko'rsating?**

- A. Andijon-Toshkent-Nukus-Qo'ng'iroq
- V. Andijon-O'sh-Qashqar
- S. Toshkent-Navoiy-Samarqand-Nukus
- D. Toshkent-Qarshi-Buxoro

**37. Yevropa-Osiyo transkontinental yo'lining umumiy uzunligini belgilang?**

- A. 20 ming km
- V. 10 ming km dan ortiq
- S. 15 ming km
- D. 12 ming km

**38. Yevropa-Osiyo transkontinental yo'lining O'zbekistondan o'tadigan qismini loyihalash O'zR Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qachondan amalga oshirila boshladi?**

- A. 1999 yil 17 avgust qarori asosida 1999-2000 yy.
- V. 1999 yil 18 avgust qarori asosida 1999-2000 yy.
- S. 1998 yil 18 avgust qarori asosida 1999-2000 yy.
- D. 2000 yil 17 avgust qarori asosida 2000-2001 yy.

**39. Toshkent-Andijon-O'sh-Qashqar avtomobil yo'lining**

**O'zbekistondagi qismida qaysi dovonlarda tunnellar qurilgan?**

- A. Qamchiq dovonida
- V. Rezak va Qamchiq dovonlarida
- S. To'g'ri jaqob yo'q
- D. CHayirchiq dovonida

**40. O'zbekiston, Qirg'iziston, Xitoy davlatlari o'rtasida Toshkent-Andijon-O'sh-Qashqar avtomobil yo'li to'g'risida bitim qachon imzolandi?**

- A. 1998 yil 23 martda Xitoyda
- V. 1999 yil 25 mayda Bishkekda
- S. 1997 yilda Toshkentda
- D. to'g'ri javob yo'q

**41. Amir Temurning Xitoyga birinchi elchisi Mavlono Hofiz qachon borgan edi?**

- A. 1388 yilda
- V. 1389 yilda
- S. 1387 yilda
- D. 1386 yilda

**42. Samarqandga Xitoydan Bo An, CHen Deven boshchiligidagi elchilari qachon kelgan edi?**

- A. 1395, 1397 yillarda
- V. 1390 yilda
- S. 1398, 1399 yillarda
- D. to'g'ri javob yo'q

**43. Amir Temur Min sulolasi davrida Xitoyga necha marta elchi yuborgan?**

- A. 9 marta
- V. 12 marta
- S. 8 marta
- D. 7 marta

**44. "Karvonsaroylararo yo'llar ochildi, yo'llardagi qaroqchilar yo'q qilindi, uzoq yurtlarga boruvchilar o'zlarini xotirjam his etadigan bo'ldi". Bu maktub kim tomonidan va kimga yuborilgan?**

- A. Xitoy imperatori tomonidan Dovon hukmdoriga
- V. Amir Temur tomonidan Xitoy hoqoni Tayszuga
- S. CHjan Szyan tomonidan U-diga
- D. to'g'ri javob yo'q

45. 1415-1440 yyilar orasida Mirzo Ulug'bek nomidan Xitoyga necha marta elchilar yuborilgan?
- A. 100 marta  
V. 27 marta  
S. 22 marta  
D. 46 marta
46. CHjang Szyan imperator U-di saroyiga olib kelgan va u saroy yonidagi bog'da ekilgan mevaning nomini aniqlang?
- A. nok  
V. uzum novdasi  
S. mayiz  
D. qovun
47. Qadimgi Xitoyda CHjang Szyan qanday o'simlikning tarqalishiga sababchi bo'ldi?
- A. sholg'om  
V. qovun  
S. beda  
D. turp
48. "Xubing" so'zi bilan qadimgi Xitoyda Markaziy Osiyodan tarqalgan qanday mahsulot atalgan?
- A. musallas  
V. sedana  
S. Tandir noni  
D. to'g'ri javob yo'q
49. Tan sulolasi davrida Xitoyning qaysi shahri xalqaro savdo markaziga aylangan?
- A. CHan'an  
V. SHansu  
S. Lanchjou  
D. Loyan
50. Amerikalik Olim Edvarl SHEferning BIYga bag'ishlangan asari qanday nomlanadi?
- A. "Buyuk ipak yo'li va Xitoy"  
V. "Qadimgi savdo yo'li"  
S. "Zolotie persiki Samarkanda"  
D. to'g'ri javob yo'q
51. "CHoyga ot almashtirib atrofdagi qo'shnilarni hursand qilish va shu yo'l bilan Xitoyning qudratini oshirish" siyosati qaysi

- sulola davrida amalga oshirilgan?
- A. Tan sulolasi  
V. Xan sulolasi  
S. Sin sulolasi  
D. Min sulolasi
52. 830 yilda uyg'urlar Xitoyga olib borgan otlari uchun aquncha ipak mato to'lagan?
- A. 200 ming bo'lak ipak mato  
V. 230 ming bo'lak ipak mato  
S. 100 ming bo'lak ipak mato  
D. 170 ming bo'lak ipak mato
53. O'rta asrlarda Xitoyga ot sotish asosan kimlarga tegishli bo'lgan?
- A. SHarqiy Turkistonliklarga  
V. Uyg'urlar va tibetliklarga  
S. sug'diylarga  
D. uyg'urlarga
54. Zotdor ot uchun Xitoyda necha bo'lak ipak mato to'langan?
- A. 150 bo'lak ipak mato  
V. 230 bo'lak ipak mato  
S. 100 bo'lak ipak mato  
D. 200 bo'lak ipak mato
55. "G'arbiy mamlakatlarga borgan elchi yoki savdogar ipak matolarini iloji boricha ko'p olib borishi kerak. Aks holda "eyishga ovqat ham topolmasligi mumkin". Bu ma'lumott qaysi sulola tarixida yozilgan?
- A. Sin sulolasi  
V. Xan sulolasi  
S. Min sulolasi  
D. Tan sulolasi
56. Bir bo'lak ipak mato Xitoyda nema metrni tashkil etgan?
- A. 20 metrni  
V. 30 metrni  
S. 13,3 metrni  
D. 17 metrni
57. Ipak matosini "bulutdek yengil", muzdek tiniq" deb kim ta'riflagan?
- A. rimliklar

V. parfiyaliklar

S. xitoyliklar

D. Sug'diylar

**58. Xitoyda xorijiy savdogarlarning ko'payishida faol bo'lgan amaldorlarni mukofotlagan, xorijiy savdogarlarga imtiyozlar bergan siyosat Xitoyning qaysi sulolasiga tegishli?**

A. Tan sulolasiga

**V. Sun sulolasiga**

S. Min sulolasiga

D. Xan sulolasiga

**59. Tan sulolasi BIYni nazorat qilish uchun Markaziy Osiyoda qaysi davlat bilan to'qnashdi?**

A. Sug'd davlati

V. Parfiya davlati

S. Turk xoqonligi

D. To'g'ri javob yo'q

**60. Import mollariga ehtiyojni ta'minlash borasida Tan sulolasi qanday tadbirlarni amalga oshirdi?**

A. CHegara shaharlarni kuchaytirdi, CHan'anni poytaxtga aylantirdi

V. CHan'anni poytaxtga aylantirdi, yo'l xavfsizligini ta'minladi

S. Bir nechta shaharlarni savdogarlarga ochib berdi, savdogarlarga imtiyozlar yaratdi

D. V va S javob to'g'ri

**61. Xunlar uchun birinchi darajali savdo mollari nima bo'lgan?**

A. Ot va qoramol

V. Tuya va ot

S. ot, qoramol, qo'y va tuya

D. tuya

**62. CHjang Szyanning U-diga hisobotlari qaysi xitoy manbasida uchraydi?**

A. "SHi ji" – "Tarixiy xotiralar" asarida

V. "Tan-shu" yilnomasida

S. "Bey-shi" da

D. To'g'ri javob yo'q

**63. Xitoy imperatori U-di xunnlarga qarshi kimlar bilan ittifoq tuzmoqchi bo'lgan?**

A. Usunlar bilan

V. Uyg'urlar bilan

S. Dayueji va usunlar bilan

D. Ug'uzlar bilan

**64. U-dining xunnlarga qarshi qaratilgan siyosatining mazmun-mohiyati nimada edi?**

A. Yov bilan savdo aloqalarini o'rnatish

V. Yovni yov qo'li bilan yo'q qilish

S. Yovni har tomondan o'rab olib urush boshlash

D. Yov bilan bitim tuzish

**65. Imperator U-dining asl ismi nima edi?**

A. Li CHI

V. Lyu CHE

S. Li CHao

D. Lyu CHao

**66. U-di imperatorining bu nomi qanday ma'nodagi ega bo'lgan?**

A. Qobiliyatli hoqon

V. Qobiliyatli siyosatchi

S. Qattiqqo'l hukmdor

D. Jangovar hoqon

**67. CHjang Szyan ikkinchi marta "g'arbiy o'lkaga" qachon kelgan?**

A. Mil. avv. 122 y.

V. Mil. avv. 121 y

**S. Mil. avv. 119 y**

D. Mil. avv. 134 y

**68. Arablar "Xuroson yo'li" deb qaysi yo'llarni atashgan?**

A. Bag'dod, Buxoro, Samarqand bo'ylaridagi yo'llarni.

V. Buxoro, Samarqand, Sirdaryo bo'ylaridagi yo'llarni

S. Bag'dod, Samarqand, Sirdaryo bo'ylaridagi yo'llarni

D. Bag'dod, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo va Pomir orqali Xitoyga o'tadigan yo'llarni

**69. Abbosiylar xalifaligi tomonidan yuborilgan Muhammad Xorazmiy va tarjimon Abdusalomlar qachon Xitoyga elchi bo'lib kelgan?**

A. 840 y.

V. 845 y

S. 842-847 y.y

D. 848 y.

**70. Xitoy manbalariga ko'ra, mil. 166 y. qaysi mamlakat elchilari**



**ilk bor Vetnam portlariga kelib, Xitoy bilan aloqa o'rnatgan?**

- A. Rim
- V. Vizantiya
- S. Parfiya
- D. To'g'ri javob yo'q

**71. Urumchi shahri qanday shahar edi?**

- A. Xo'tan viloyatidagi savdo-shahar.
- V. Taklamakon cho'lidagi chegara shahar
- S. Taklamakon cho'lining shimoliy tomonidan o'tadigan savdo yo'lidagi shahar
- D. Karvon-saroylari bilan mashhur shahar

**72. Xo'tan nimalari bilan mashhur bo'lgan?**

- A. Otlari bilan
- V. Ipakchiligi va gilamlari bilan
- S. Nefrit toshi bilan
- D. V va S javob to'g'ri

**73. Yorkend shahri qerda joylashgan edi?**

- A. SHarqiy Turkistonda
- V. Taklamakon cho'lida
- S. Qashqar bilan Xo'tan oralig'ida
- D. Taklamakon cho'lining shimolida

**74. Qadimgi xitoy manbalarida Turfon viloyati nima deb atalgan?**

- A. "yonib turadigan viloyat"
- V. "shaharlari savdogarlar bilan to'la viloyat"
- S. "savdogarlari mohir viloyat"
- D. "alangalanib turadigan viloyat"

**75. Islom diniga qadar Qashqar qaysi din markazlaridan biri sifatida dunyoga mashhur bo'lgan?**

- A. xristianlik.
- V. Xech qanday din markazi bo'lmagan
- S. buddaviylik
- D. To'g'ri javob yo'q

**76. Qadimda xitoyliklar Dunxuanni qanday ta'riflashgan?**

- A. "g'arbiy mamlakatlar chegarasi".
- V. "g'arbiy mamlakatlar darvozasi"
- S. "g'arbiy savdogarlar markazi"
- D A va V javobi to'g'ri

**77. Dunxuanda qanday yozma yodgorliklar topilgan?**

- A. Sug'd tilidagi hujjatlar
- V. Xorazmiy tilidagi hujjatlar
- S. Boxtariy yozuvidagi hujjatlar
- D. to'g'ri javob yo'q

**78. Buddaviylik san'atiga oid "Ming uy" ibodatxonasi qerda topilgan?**

- A. Xo'tanda.
- V. Yorkendda
- S. Dunxuanda
- D. Qashqarda

**79. Buyuk xitoy devorining qurilishi qachon boshlangan?**

- A. Mil. avv. X a.
- V. Mil. avv. IV a.
- S. Mil. avv. IX a.
- D. Mil. avv. VIIIa.

**80. BIYning birinchi arxeolog-tadqiqotchisi kim edi?**

- A. M. Aurel Steyn
- V. P.Pellio
- S. Sven Gedin
- D. K.F.Rixtgofer

**81. Dunxuandagi ekspeditsiyaga Angliya tomonidan kim yuborilgan edi?**

- A. P.Pellio
- V. M.Berezovskiy
- S. A.Steyn
- D. D.Klemens

**82. 1906-1908 yy. Sinszyanga yuborilgan ilmiy ekspeditsiyaga kim rahbarlik qilgan?**

- A. Ingliz olimi Aurel Steyn.
- V. Fransuz olimi Pol Pellio
- S. Rus olimi M.Berezovskiy
- D. Akademik S.F.Oldenbug

**83. SHarqiy Turkistonga ilk bor ilmiy ekspeditsiya qachon va kim tomonidan uyushtirilgan?**

- A. 1907 y. M.Berezovskiy tomonidan
- V. 1905 y. A. Steyn tomonidan
- S 1898 y. D.A.Klemens tomonidan
- D. 1914 y. P.Pellio tomonidan

**84. Sug'd davlatida bir bo'lar ipak matosi necha dirhamga baholangna**

- A. 30 dirham.
- V. 15 dirham
- S. 20-25 dirham
- D. 100 dirham

**85. "Markt Polo izidan" nomli xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi qachon o'tkazildi?**

- A. May-iyun, 1988 y., Stambul-Pekin
- V. Iyun-avgust, 1987 y., Stambul-Pekin
- S. Avgust, 1988 y. Stambul-Pekin
- D. Iyul-avgust, 1989 y., Stambul-Pekin

**86. "Evropa ipak yo'li" xalqaro ekspeditsiyasi qachon bo'lib o'tgan?**

- A. 1996 y., Stambul-Lion
- V. 1998 y., Stambul-Lion
- S. 1995 y., Stambul-Lion
- D. 1994 y., Stambul-Lion

**87. "Markaziy Osiyoda Buyuk ipak yo'li tarmoqlarining qadimgi va o'rta asrlarda shakllanishi va rivojlanishi" nomli xalqaro konferentsiyasi qachon va qaerda bo'lib o'tgan?**

- A. Buxoro, 1999 y.
- V. Samarqand, 1997 y.
- S. Samarqand, 1990y.
- D. Buxoro, 1993 y.

**88. Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi qaerda tashkil etilgan?**

- A. Angliyada
- V. Samarqandda
- S. Buxoroda
- D. Xitoyda

**89. Azarbayjonda BIY an'alarining tiklanishiga bag'ishlangan xalqaro konferentsiya qachon bo'lib o'tdi?**

- A. 1998 y. 8 sentabr
- V. 1997 y. 9 sentabr
- S. 1998 y. 8 oktabr
- D. 1997 y. 10 sentabr

**90. O'zbekistonga Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruqchi avtomobil yo'i yo'nalishini aniqlang?**

A. Andijon-Seraxs-Tehron

V. Osh-Qashqar-Tehron

S. Andijon-Osh-Irkashtam-Qashqar

D. Buxoro-Seraxs-Mashhad

**91. Xitoy manbalarida ipakchilik sanoatining shakllanishi qaysi malika nomi bilan bog'liq?**

A. Si Lyang CHI

V. Syu CHI Lin

S. Si Ling-chi

D. Si Lyang-chi

**92. Ipakchilikning markazi Xitoyning qaysi hududi hisoblanadi?**

A. SHan-dun

V. CHan'an

S. Nan-shan

D. A va S javob to'g'ri

**93. Sug'd savdogari Maniakh qachon Vizantiyaga elchi bo'lib bordi?**

A. 565 y.

V. 560 y.

S. 568y

D. 567 y.

**94. Vizantiya imperatori Istemi xoqonning huzuriga 568 y. Kimni elchi qilib yuborgan?**

A. Maniaxi

V. Tagmani

S. Zemarxni

D. Maniakh va uning o'g'lini

**95. Amudaryo xazinasi qachon va qaerda topilgan?**

A. 1878 y. SHimoliy Tojikistonda

V. 1877 y. Janubiy Tojikistonda

S. 1888 y. Xindistonda

D. 1879 y. Surxondaryoda

**96. Ryui Gonsales de Klavixo kimning elchisi edi?**

A. Fransiya qirolining

V. Angliya elchisi

S. Kastiliya va Leon (Ispaniya) qirol elchisi

D. Vizantiya elchisi

97. Stater – bu nima?

- A. O'lchov birligi
- V. Rimliklarning qo'shini
- S. Qadimgi yunonlarning og'irlik o'lchov birligi
- D. Qadimgi tanga nomi

**98. Albert Xermann kim bo'lgan?**

- A. Ingliz olimi, BIY tarixini o'rgangan
- V. Nemis olimi, xitoyshunos, BIY to'g'risida monografiya muallifi
- S. Vengriyalik tadqiqotchi, arxeolog
- D. SHarqiy Turkistonda tadqiqotlar olib borgan ingliz olimi

**99. BIYning o'rganilishiga O'zbekistonda qaysi tadqiqotchi-olimlar hissa qo'shib kelmoqda?**

- A. A.Xo'jaev, E.Rtveladze
- V. E.Rtveladze, O.Kobzeva
- S. To'g'ri javob yo'q
- D. A va V javoblar to'g'ri

**100. O'zR Vazirlar Mahkamasining 22 yanvar 2013 yilgi 25-F sonli Farmoyishining 1-ilovasiga muvofiq "Buyuk ipak yo'lining o'tmishi va hozirgi kuni: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy, tarixiy, siyosiy va iqtisodiy yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ToshDSHda qachon o'tkaziladi?**

- A. 2013 yil 25 may
- V. 2013 yil 22 mart
- S. 2013 yil 25 mart
- D. 2013 yil 25 may

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

**Asosiy:**

1. Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan «O merax po aktivizatsii uchastiya Respubliki Uzbekistan v vozrozhdenii Velikogo Shelkovogo puti i razvitiyu mejdunarodnogo turizma v respublike» ot 31 maya 1995 goda.
2. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkovo'y put. Entsiklopedicheskiy spravochnik T. -: 1999
3. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put i mirovaya sivilizatsiya (uchebno-metodicheskoye posobie) T.: 2002
4. Kobzeva O. P. Velikiy Shelkovo'y put: vchera, segodnya, zavtra. G'G' Xozyaystvo i pravo. 2000. №1
5. Buyuk ipak yo'li- buyuk muloqot yo'li. Metodik-didaktik qo'llanma. //Mas. muh. Mamatmurodova M.I.Toshkent, 2004.

**Qo'shimcha:**

1. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturo` Sentralnoy Azii. Izd. 2-e, dopolnennoe. Tashkent-2008.
2. Kobzeva O. P. U istokov nauchnogo izucheniya Velikogo Shelkovogo puti//O'zbekiston tarixi. 2000. №4
3. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007.
4. Qurbonov S., Olimov B. Ipak yo'li haqida haqiqat. Toshkent, 2000.
5. ReimdjanoV S. BIY – ko'xna madaniyat.// Ma'rifat, 2002, 27 fevral
6. Dorogami Velikogo Shelkovogo puti. /Sost. Kusanbaev B. M. – T.: Sharq. 1996.

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-bo'lim. Buyuk ipak yo'lining shakllanishi asoslari</b> .....	6
1.1. Buyuk ipak yo'li shakllanishining tarixiy asoslari .....	6
1.2. buyuk ipak yo'li shakllanishining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omilari.....	11
<b>2-bo'lim. Buyuk ipak yo'lining asosiy yo'nalishlari</b> .....	17
2.1. Buyuk ipak yo'lining ilk bosqich tarmoqlari .....	17
2.2. Buyuk ipak yo'lining ning o'rta asrlarlardagi asosiy yo'nalishlar.....	22
<b>3-bo'lim. Buyuk ipak yo'lining sivilizatsiyalararo muloqot vositasi sifatida o'rganilishi va an'analarining tiklanishi</b> .....	35
3.1. Buyuk ipak yo'li—sivilizatsiyalararo muloqot vositasi .....	35
3.2. Buyuk ipak yo'li tarixini o'rganish tarixshunosligi.....	41
3.3. Buyuk ipak yo'lida tarixiy diplomatiya.....	46
3.4. Buyuk ipak yo'li an'analarining tiklanishi .....	55
<b>XULOSA</b> .....	71
<b>GLOSSARIY</b> .....	73
<b>TEST SAVOLLARI</b> .....	83
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI</b> .....	99
<b>MUNDARIJA</b> .....	100

## QAYDLAR UCHUN

Texnik muharrir: *Zarifov M.M.*

Dizayner: *Zarifov M.M.*

Kompyuter verstkasi: *Zarifov M.M.*

O'quv qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
O'quv-uslubiy Kengashining 2010 yil 23-dekabrdagi 2-sonli qarori  
bilan nashrga tavsiya etilgan

Bosishga ruxsat etildi 24.12.2010.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Shartli 6,5 b.t. 50 nusxada bosildi.

© Mamarahimova B.I.

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2010